O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

SHUKUROVA O‘G‘ILOY UMAROVNA

TALABALARNI INNOVATSION FAOLIYATGA YO‘NALTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

MONOGRAFIYA

“Ziyo nashr-matbaa”XK
Guliston-2022 yil

KBK: 316.614.6
UDK: 88.5+74.58
Sh-90

O‘g‘iloy Shukurova. Talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirishning ijtimoiy-psixologik jihatlari/Monografiya/ - Guliston: “Ziyo nashr-matbaa”XK. 2022-yil. 108 bet.

Annotatsiya: Mazkur monografiyada innovatsiya va innovatsion faoliyat tushunchalarining nazariy-psixologik talqini yoritilib psixologiya fanida talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirishning dinamikasi asoslab berilgan. SHu bilan birgalikda talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va jihatlari o‘tkazilgan tajribalar asosida keng yoritilgan bo‘lib hozirgi uzluksiz ta’lim tizimi talablariga to‘la javob beradi.

Mazkur monografiya oliy o‘quv yurtlarining pedagogika va psixologiya, psixologiya (faoliyat turlari bo‘yicha) yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar, magistrlar, uzluksiz ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagog va psixologlar uchun mo‘ljallangan.

Annotatsiya: V dannoy monografii opisыvaetsya teoretiko-psixologicheskaya traktovka ponyatiy innovatsii i innovatsionnoy deyatelnosti, obosnovыvaetsya dinamika orientatsii studentov na innovatsionnuyu deyatelnost v psixologii. Pri etom sotsialno-psixologicheskie osobennosti i aspektы podgotovki studentov k innovatsionnoy deyatelnosti shiroko osveщayutsya na osnove eksperimentov i polnostyu otvechayut trebovaniyam deystvuyuщey sistemы nepreгыvnogo obrazovaniya.

Nastoyaщaya monografiya prednaznachena dlya studentov, magistrov, pedagogov i psixologov, rabotayuщix v sisteme dopolnitelnogo obrazovaniya, obuchayuщixsya v oblasti pedagogiki i psixologii, psixologii (po vidam deyatelnosti).

Annotation: In this monograph, the theoretical and psychological interpretation of the concepts of innovation and innovative activity is covered, and the dynamics of orientation of students in the field of psychology to innovative activity is based.

At the same time, the socio-psychological features and aspects of the preparation of students for innovative activities are widely covered on the basis of the experience conducted and fully meet the requirements of the current continuous education system.

Taqrizchilar:

Y.A. Nurumbekova - p.f.d(PhD), dotsent:

Sh.J.Usmonova - O‘zMU dotsenti psixologiya fanlari nomzodi:

ISBN – 978-9943-7337-8-7

Mazkur “Talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirishning ijtimoiy-psixologik jihatlari” nomli monografiya Guliston davlat universiteti Kengashining 2022-yil 31-maydagi №10-sonli yig‘ilishi bayonnomasi qarori bilan chop etishgа tavsiya etilgan.

© “Ziyo nashr-matbaa” nashriyoti
© O‘g‘iloy Shukurova

MUNDARIJA

KIRISH..... 4

I BOB. TALABALARNI INNOVATSION FAOLIYATGA YO‘NALTIRISHNING NAZARIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

1.1.Innovatsiya va innovatsion faoliyat tushunchalarining nazariy-psixologik talqini.....10

1.2.Psixologiya fanida talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirishning dinamikasi 20

1.3.Innovatsion faoliyat va uning strukturasi.....30

II BOB. TALABALARNI INNOVATSION FAOLIYATGA YO‘NALTIRISH METODOLOGIYASI

2.1.Talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirishning psixologik modeli.....46

2.2.Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 58

2.3.Zamonaviy ta’lim tizimida talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash 68

III BOB. TALABALARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORGARLASHNING EMPIRIK O‘RGANILGANLIGI

3.1.Talabalarni empirik faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik jihatlari 74

3.2.Talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini ajratish.....80

3.3.Empirik tadqiqotlar natijasining ijtimoiy-psixologik tahlili.....87

XULOSA.....95

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....97

Kirish

Jahonda fan-ta’lim va ishlab chiqarish (amaliyot) orasidagi tafovutni bartaraf etish yo‘lida “Tajriba asosida ta’lim olish” (Experimential learning) g‘oyasi ustuvor bo‘lib qolmoqda. Bu holat innovatsion faoliyatni rivojlantirishni taqazo etadi. XXI asrning boshlarida dunyoda va mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-madaniy rivojlanishning intensivlashuvi kasbiy faoliyatni samaradorligini ta’minlash masalasini dolzarblashtirdi, natijada oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilarining innovatsion faoliyat yuritishga tayyor turish masalasi amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Bu holat o‘z navbatida “Umr davomida ta’lim olish” (Lifelong learning) konsepsiyasiga amal qilishni talab etmoqda.

Mehnat bozorida yangi ixtisosliklarga talabning ortib borishi, fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarish amaliyotiga tadbiq etilishi, ishlab chiqaruvchi va iste’molchilar o‘rtasidagi munosabatlarning madaniylashuvi mutaxassislarni kasbiy faoliyatiga innovatsiyaviy tarzda yondashishni taqozo etmoqdaki, sotsietal-innovatsion tuzilmani[1] muhim bo‘g‘ini sanaladi.

Psixologiya fani sohasida faoliyat va uning turlari, jamiyat hayotida ifodalanadigan psixofenomenlarni turli jihatlarini o‘rganish jahonning etakchi ilmiy markazlari va ta’lim muassasalari tomonidan amalga oshirilmoqda. Jumladan, National China Association Ushu (Xitoy); Diaconia University of Applied Sciences va Institution of Martial Arts Kodokan (Yaponiya), Federation of Martial Arts Taikwondo (Janubiy Koreya); Sofiya University in Bolgary (Bolgariya), University of Social Psichology (Polsha), Hamburg University in Germany (Germaniya); M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya) kabi Ilmiy markazlarda tadqiqotlar olib borilmoqda.

Innovatsiyaviy faoliyat, kognitologik yondashuvni taqozo etib, mutaxassis kasbiy faoliyatga doir bo‘lgan turli bilim va tajribalarni o‘zlashtirib, o‘zining faoliyati doirasida ularning sara jihatlarini (ayrim elementlarini qabul qilish) tadbiq etishni talab etadi. Bu mavzu siyosiy, iqtisodiy, madaniy va psixologik mazmun

[1]Социетал- инновацион бу жамитнинг барча таркибларини мужассам этиб, ишлаб чиқариш ва юқори салоҳиятли кадрлар ўзаро нисбатини белгилаб берувчи яхлит тузилма ҳисобланади.

kasb etib, bu kunga qadar korxonalar, ta’lim muassasalarining innovatsion faoliyatiga oid bir qator tadqiqotlar o‘tkazilgan[1]. Ammo oliy ta’lim muassasasi talabalarini innovatsion faoliyatga tayyorlash masalasi ijtimoiy-psixologik jihatdan o‘rganilmagan.

Innovatsiyaviy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun shaxsda ma’lum bir sifatlar (ochiqlik, munosabatlar plyuralizimiga tayyor turish, hamkorlikka intilish, ta’limiy mobillik, kommunikativlik, psixologik kompetentlik va b.) mujassamlashgan bo‘lishi lozim. Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda psixologiya fanini yutuqlaridan maqsadli foydalanish davr talabiga aylanmoqda. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining IV. “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” bobining 4.4. “Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish” qismida:uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” lozimligi ko‘rsatib o‘tilgan[2]. Talabalarni innovatsiyaviy faoliyatga tayyorlash esa, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos kadrlarni tayyorlashni ijtimoiy-psixologik jihati hisoblanadi. Ammo, bu masalaga doir alohida ilmiy tadqiqotlar mavjud bo‘lmasada, innovatsiya va innovatsiyaviy madaniyat masalasi psixolog, pedagog va faylasuf olimlarning ishlarida o‘rganilgan. Jumladan, O‘zbekistonlik

---

[1] Yun Peng. Effects of Creativity Instruction in Science on Creative Thinking and ScienceAchievement in Chinese Students (is approved in partial fulfillment of the requirements for the degree of) // Doctor of Philosophy - Educational Psychology. -University of Nevada, Las Vegas, August 2019. – 255 p.; Cheng A.Y.N., Szeto E. Teacher leadership development and principal facilitation: Novice teachers’ perspectives // Teaching and Teacher Education. – №58. – 2016. – P. 140-148.; Иванова Л.А. Организационно-педагогические условия стимулирования инновационной деятельности в муниципальной системе образования // Дис. канд. пед. наук. - Новгород, 1998. - 188 с.; Бекова Т.Б. Инновационные структуры в современной системе высшего образования России: детерминанты и следствия // Автореф. дис. канд. социол. наук. - Тюмень: Тюменский государственный. нефтегазовый университет, 1997. - 20 с.; Бобров В.В. Инновации в технологии высшего образования (социально-философский аспект) // Дис. канд. филос. наук. - Новосибирск, 1994. - 204 с.; Азизова Г.Г. Олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчиларнинг касбий педагогик фаолиятини такомиллаштириш (инглиз тили материаллари мисолида). // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. - Самарқанд, 2019. – 52 б.; Саитқосимов А.И. Фуқаролик жамиятини барпо этишда ижтимоий соҳани инновацион ривожлантириш қонуниятлари // Фалсафа фанлари бўйича фан доктори (DSc) дисс. автореферати. – Самарқанд, 2019.- 61 б.; Мухаммедова Д.Г. Таълим менежерини инновацион фаолиятга тайёрлашнинг ижтимоий-психологик технологияларини такомиллаштириш. / Докторлик диссертацияси автореферати – Тошкент, 2015. – 75 б.

[2]2017 - 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси(Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда) strategy.reg ulatoin.gov.uz

olimlardan E.G‘.G‘oziev, G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova, B.R.Qodirov, R.S.Samarov, Sh.Abdullaeva, O.Xayitov, D.G.Muxamedova, B.M.Umarov, Z.T.Nishonova, N.S.Safoevlar, talabalarni kasbiy rivojlanishini tadqiq etgan.

MDH va xorijiy davlatlar olimlaridan T.S.Bochkareva, E.V.Galajinskiy, V.I.Dolgova, E.F.Zeer, V.E.Klochko, S.A.Novoselov, L.S.Podымov, A.I.Prigojin, V.A.Fedorov, F.T.Xamatnurov, V.A.Gerasimova, A.Inkeles, R.M.Lobatskaya, E.A.Lutoxina, S.V. Mokichev, Y. Peng, A.S.Waterman, J.Turner, S.Stryker, J.Edmondson, M.Bingham, M.Rokeach, C.R.Rogers, J.R.Nuttin, G.Hofstede va boshqalarning nnnovatsiyaviy faoliyatni egallash uchun asos bo‘ladigan shaxs sifatlarini o‘rganishga doir, ishlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

O‘zbekiston psixologlari tomonidan innovatsiyalarni yaratuvchi sub’ektlar tarzida munosabatda bo‘lishni konseptual asoslarini yaratilmagan. Bundan tashqari, pedagogik tizim doirasida mezonlarni belgilash, tayyorgarlik darajasini kasbiy va psixologik jihatdan baholash, shaxsiy sifatlarni diagnostikasini amalga oshirish va psixologik prognozini bajarish, egallagan sifatlarni istiqbolda namoyon etish ko‘nikmasini shakllantirish texnologiyasini milliy muhitda yaratilmaganligi, kasbiy ongni shakllantirish masalasi o‘rganilmagan bo‘lib, ta’lim muassasalarida innovatsiya va innovatsiyaviy faoliyatga doir mavjud munosabatlarda yagona ilmiy asoslangan munosabatlar yaratilmagan. Buning uchun, metodologik darajada, shaxsni fenomenologik nazariyasi asosida, ya’ni sub’ektni qobiliyatlari dolzarblashuv va o‘zini o‘zi dolzarblashuvi asosida kechishini inobatga olib, talabalarda innovatsiya haqida tasavvurlarni shakllantirib, innovatsiyalarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasi va malakasini shakllantirishning ijtimoiy psixologik va didaktik jihatlari o‘rganilishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari: talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish.

- talabalarni innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishini taminlovchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni tadqiq etish;

- talabalarni innovatsion faoliyat uchun lozim bo‘lgan shaxsiy-kasbiy sifatlar majmuasini aniqlash;

- talabalarni innovatsion faoliyatini ta’minlovchi motivlarni emperik yo‘l bilan aniqlash;

- talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirishda kasbga nisbatan kompitentlik bilan yangilikka aloqadorlikni asoslash.

Oxirgi o‘n yillikda pedagogik innovatsiyani nazariy asoslari ishlab chiqilyapti. Ayniqsa, K.Anglovskiy M.V. Klarin, V.Ya.Lyaudis, M.N.Potaщnik, S.D.Polyakov, T.I.Shamova, O.T.Xomeriki, N.R.Yusup-bekova, V.A.Slastenin va b.q.larning ishlarida pedagogik professionalizmni rivojlantirishning o‘ziga xos tomonlarini aniqlash va oliy ta’limda o‘qitish jarayonida bo‘lg‘usi o‘qituvchining innovatsion imkoniyatlarini rivojlantirish olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlarning bahs mavzusi bo‘lib qolmoqda.

Refleksiv – innovatsion texnologiyalarning barcha jarayonlarini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1) yangi g‘oyalar izlash bosqichi;

2) yangiliklar yuzaga keltirish bosqichi;

3) yangiliklar kiritishni amalga oshirish;

4) yangiliklarni mustahkamlash bosqichi.

Yangi g‘oyalar izlash bosqichi «innovatsion pedagogika» asoslari kursi bo‘yicha axborot innovatsion sharoitni yuzaga keltirish, maktab muammo va talablarini dolzarblashtirish, maqsad, yangilik yaratish g‘oyalarini ifoda etish bo‘yicha dastlabki ishlar, bo‘lajak maktab sharoitini tasavvur etishdan iborat. Yangilik kiritishni shakllantirish bosqichi yangilik kiritish ishlarini faol ravishda loyihalashtirish, tanlangan yangiliklarni sinab ko‘rish, maktabda yangiliklarni kiritish bo‘yicha qaror qabul qilishdan iborat.

Yangiliklarni kiritish bosqichini amalga oshirish maktabda tajriba o‘tkazish uchun sharoitlar yaratish, tajriba jarayonini tahlil qilib borish, yangilik kiritish va mazmunini tuzatib borishdan iborat bo‘ladi.

Yangilik kiritishni mustahkamlash bosqichi maktabning yangidan shakllantirilgan obrazini o‘qituvchilar ongida mustahkamlash, o‘qituvchining innovatsion harakatlarini mukammallashtirish bo‘yicha psixokorreksion metodik

ishlardan tashkil topadi.

Barcha to‘rt bosqichning asosiy maqsadi yangilikni o‘zlashtirishni rivojlantirish va o‘zlashtirilayotgan yangilikka sub’ektiv munosabatda bo‘lishdan iborat.

Insonning tashqi va ichki muhitidan kelib chiquvchi ma’lumotlarning hammasi qadriyatlar va to‘siqlar tizimi tomonidan kuzatiladi. Psixologiyada psixologik to‘siqlarni odamga ma’lum bir harakatni muvaffaqiyatli bajarishga xalaqit qiluvchi ichki to‘siqlar (istamaslik, qo‘rquv, o‘ziga ishonmaslik va hokazo) deb tushuniladi. Psixologik qarshiliklar yig‘indisini himoyalanishi uchun ishlatilib, tashqi muhitning turli xil akslarini yaratamiz. Har bir odam tashqi axborotlar yig‘indisidan uning ruhiy hayoti bilan hech qanday qarshi chiquvchilarni kiritmay, o‘zgartiriladigan ma’lumotni tanlaydi. Lekin dunyo haqidagi bu tasavvurning saqlanishi anchagina fikrlash ijodiy jarayoniga to‘siq bo‘la oladi. SHuning uchun kirib keluvchi yangi ma’lumotlarni buzuvchi, himoyalashning ta’siridan ishonchni ozod qilish degan masala kelib chiqadi.

Qadimdan yangi va noma’lum hodisalar odamlarda xavotir, qo‘rquv tug‘dirgan. Demak, salbiy jinslarning paydo bo‘lishi bilan, individual va jamlangan onglarning stereotip bo‘lishini hayot tarzi, insonlarning qiziqishi va odatlariga qarashli bo‘lgan innovatsiyalar, ularda ko‘ngilsiz taassurotlarni paydo qilishi mumkin. Bu hol hayotiy ehtiyojlarning xavfsizlik, himoyalanish, o‘zini hayotda topishi bilan bog‘liq. **Frustratsiyaga olib boruvchi sharoitlar sifatida E.Ermolaeva tomonidan innovatsiyada quyidagilar ajratiladi**:

- juda tez kiritiladigan innovatsiyalar;
- juda ko‘p kiritiladigan innovatsiyalar (doimiy);
- ko‘p hajmli (tizimli) innovatsiyalar;
- alternativsiz innovatsiyalar.

A.Xon pedagoglarda uchraydigan kognitiv va regulyativ psixologik to‘siqlarni ajratadi. Uning fikricha, yangilik oldida chiquvchi kognitiv psixologik to‘siqlar paydo bo‘lishi mumkin va ular yangi narsa haqida ma’lum bir bilimga ega bo‘lmaslik, sezishning yo‘qligi, passiv qarshi bo‘lishni keltirib chiqaradi.

Regulyatik psixologik to‘siqlar yangi hodisaga yuzma-yuz bo‘lib, yangilikning o‘ziga ishonchsizlik kelib chiqadi va yangi kashfiyotni kiritishga faol qarshilik bildiradi.

Psixologik to‘siqlar tahliliga bag‘ishlangan adabiyotlarda V.I.Antonyuk tomonidan ishlab chiqilgan tizimda, ularni baholashning mantiqiy to‘g‘ri tomonlari ajratiladi. Psixologik to‘siqlar quyidagicha ko‘rib chiqiladi:

1. yangilik kiritilishi bilan kelib chikqan innovatsiya sharoitda ishchilar harakatlari negativ psixik shaklda bo‘lishi;
2. ishchilarning harakati, mulohaza, tushuncha, fikrlash, kutish va emotsional kechinmalar yig‘indisida ongli va ongsiz, yashirin yoki ko‘zga tashlanib, ataylab yoki to‘satdan bo‘lib, ular negativ psixik ahvol bilan ifodalanadi.

I BOB. TALABALARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORGARLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Innovatsiya va innovatsion faoliyat tushunchalarining nazariy-psixologik talqini

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrning boshlarida dunyoda kechayotgan ijtimoiy va madaniy transformatsiya jarayoni jamiyat hayotini taraqqiyot yo'nalishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Natijada ta'lim va tarbiya masalasi jamiyatning ma'naviy hayotini o'zagi ekanligi yanada dolzarblashdi.

XXI asrning ikkinchi o'n yilliklarining oxirida insoniyat hayotiga to'g'ridan-to'g'ri tahdid solgan COVID-19 pandemiyasi ishlab chiqarish jarayoni bilan birga ma'naviy yaratuvchanlik, ta'lim-tarbiya, ilm-fan oldida yangi-yangi oldindan ma'lum bo'lmagan vazifalarni echishni talab qilmoqda. Natijada innovatsion faoliyat bilan shug'ullanish masalasini dolzarblashtirdi.

Shu sababdan ham 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasining "IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" nomli bobining 4.4. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish bandida "ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish"[1] alohida ko'rsatib o'tilgan. Bu borada Prezident Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Hammamiz yaxshi bilamiz, bugungi davr yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar zamonidir. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o'z oldiga nafaqat ko'plab mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni bozorga olib chiqishni, balki chuqur bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o'tish vazifasini qo'ymoqda[2]".

[1] strategy.regulatoin.gov.uz

[2] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017. - Б. 168.

Innovatsiya (innovation-yangilik kiritish)[1], yangilik kiritish degan ma'noni anglatadi. Ya'ni mavjud tizimning tarkibiga yangi element kiritib, uning faoliyatini takomillashtirishni yoki mavjud predmetdan foydalanishni engillashtirish va amaliyotda qo'llash, iste'mol uchun yaroqlilik darajasi samaradorligini ta'minlashni nazarda tutadi. Agarda talabalarni innovatsion faoliyatga yo'naltirishni, ularning ixtisosligidan kelib chiqqan holda ta'minlasak, yangi O'zbekistonda moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish zamonaviylashuv bilan birga jamiyat a'zolarining hayot tarzi ham galdagi rivojlanishi ta'minlanadi.

Evropa va AQSH olimlaridan U.Van Lith[2], H.Hoppe[3], A.Y.N.Cheng, E.Szeto[4], J.Fowler[5], B.Rienties, N.Brouwer, S.Lygo-Baker[6], S.G.L.Won, M.A.Evans, C.Carey, C.G.Schnittka[7]va boshqalar[8],Rossiya Federatsiyasi olimlaridan L.A.Ivanova[9], T.B.Bekova[10], V.V.Bobrov[11], V.A.Bordovskiy[12], S.Selektr[13], A.A.Orlov[14], A.I.Nikolaev[15], L.G.Puzep[1], S.V.Senserya[2],

---

[1]1) фан ва илғор тажриба ютуқларидан фойдаланишга асосланган техника, технология, меҳнатни ташкил этиш ва бошқариш соҳасидаги янгиликларни жорий этиш, шунингдек, бу янгиликлардан турли соҳалар ва фаолият соҳаларидан фойдаланиш; 2) таълимдаги инновация – таълим ва тарбиянинг мақсади, мазмуни, усуллари ва шаклига, ўқитувчилар, ишлаб чиқариш таълими усталари, ўқувчилар биргаликдаги фаолиятини ташкил этишда янгиликни жорий қилиш; тафаккур услубидаги ўзгариш. / Саидов М.Х., Перегудов Л.В., Тоҳиров З.Т. Олий таълим (луғат-маълумотнома). – Тошкент: "Молия", 2003. - Б. 101. (Умум. 456 б.)

[2]Van Lith U. Falsches Vertrauen in den Bildungsprotecktionismus // Handelsblatt. 1997. - 5 - 6. Dez. - P. 47.

[3]Hoppe H. Lernen fuer eine ungewisse Zukunft // Sozialer Fortschritt. 1996. - № II. - Pp. 275-279.

[4] Cheng A.Y.N., Szeto E. Teacher leadership development and principal facilitation: Novice teachers' perspectives // Teaching and Teacher Education. –№58. – 2016. – P. 140-148.

[5] Fowler J. Experiential learning and its facilitation // Nurse Education Today. – № 28. – 2008. – P. 427–433.

[6] Rienties B., Brouwer N., Lygo-Baker S. The effects of online professional development on higher education teachers' beliefs and intentions towards learning facilitation and technology // Teaching and Teacher Education. – № 29. –2013. – P. 122-131.

[7] Won S. G. L., Evans M. A., Carey C., Schnittka C.G. Youth appropriation of social media for collaborative and facilitated design-based learning // Computers in Human Behavior. – № 50. – 2015. – P. 385–391.

[8]Роджерс Н. Творчество как усиление себя // «Вопросы психологии»: http://www.voppsy.ru/issues/1990/901/901164.htm

[9]Иванова Л.А. Организационно-педагогические условия стимулирования инновационной деятельности в муниципальной системе образования // Дис. канд. пед. наук. - Новгород, 1998. - 188 с.

[10]Бекова Т.Б. Инновационные структуры в современной системе высшего образования России: детерминанты и следствия // Автореф. дис. канд. социол. наук. - Тюмень: Тюменский государственный. нефтегазовый университет, 1997. - 20 с.

[11]Бобров В.В. Инновации в технологии высшего образования (социально-философский аспект) // Дис. канд. филос. наук. - Новосибирск, 1994. - 204 с.

[12]Бордовский В.А. Теория и практика организационно-методического обеспечения инновационного развития высшего педагогического образования // Дис. д-ра. пед. наук. - СПб., 1999. - 365 с.

[13]Селектр С. Когда формируется команда. Об инновационном поведении и мотивации // Директор школы, 1995. № 4. - С.9-17.

[14]Орлов А. А. Мониторинг инновационных процессов в образовании // Педагогика. 1996. № 3. - С.9-15.

[15]Николаев А.И. Инновационное развитие и инновационная культура // http:www.center-inno.ru/materials/library/04-4

S.R.Yagolkovskiy[3], L.A.Xolodkova[4], N.A.Sablina[5] va boshqalar[6], mamlakatimiz olimlaridan D.G.Muxammedova[7], Sh.S.Qo‘shoqov[8], A.I.Saitqosimov[9], Sh.T.Kubaeva[10], I.G‘.Abdullaeva[11], G.G.Azizova[12], tadqiqotchilardan D.X.Shodmonkulova[13], Sh.A.Qoraboev va N.M.Babaeva[14] kabilar siyosiy boshqaruvda, ishlab chiqarish sohasida hamda ta’lim-tarbiya yo‘nalishi bo‘yicha bir qator tadqiqotlar ishlari amalga oshirilib, innovatsiya, shaxs rivojlanishi va jamiyat hayotini taraqqiy topishida dolzarblashtiruvchi, resurslarni yo‘naltiruvchi, maqsadni belgilab beruvchi, takomillashtiruvchi kabi funksiyalarni bajarishni

---

[1]Пузеп Л. Г. Развитие креативных черт личности студентов в процессе профессиональной подготовки в педагогическом вузе // Дис.. канд. психол.. наук. – Омск, 2007. – 61 с. // http:www.dissercat.com/content/razvitie-kreativnykh-chert-lichnost

[2]Ценцеря С. В. Понятие “инновационной личности” в современной научной теории // Мир образования – образование в мире. – 2010. – № 3 (39). – С. 142-147.

[3]Яголковский С. Р. Психология инноваций: подходы, модели, процессы. – М.: Высшая школа экономики, 2011. – 272 с.

[4]Холодкова Л.А. Инновационная культура субъектов высшего профессионального образования // Известия Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена, 2006. – № 14. – С. 78–84.

[5]Саблина Н.А. Поведенческие проявления агрессивности в подростковом возрасте и возможности их преодоления // Дис.... канд. психол. наук. – Ставрополь, 2004. – 178 с.

[6]Хван А.А. Психологические показатели эффективности инновационного процесса в школе // Вопросы прикладной психологии, 1995. - С. 37-50.; Гузеев В.В. Инновационные идеи в современном образовании // Школ, технологии. 1997. № 1. -С. 3-10.; Федак Е.И., Ценцеря С.В. Инновационная личность. Психолого-педагогическое обоснование // Мир образования – образование в мире. –2011. – № 1 (41). – С. 150-156.; Сластенин В.А., Подымова Л. С. Педагогика: Инновационная деятельность. – М.: ИЧП «Издательство Магистр», 1997. – 224 с.; Санто Б. Сила инновационного саморазвития // Инновации. – 2004. – № 2. – С. 5-15.

[7]Мухаммедова Д.Г.Таълим менежерини инновацион фаолиятга тайёрлашнинг ижтимоий-психологик технологияларини такомиллаштириш. / Докторлик диссертацияси автореферати – Тошкент, 2015. – 75 б.; Мухамедова Д. Теоретико-методологические основы социально-психологических аспектов инновационного менеджмента в образовании. Монография, ISBN-978-9943-19-260-7, Ташкент, 2013.-160 с.

[8] Қўшоқов Ш.С. Инноватика фалсафаси. /Ўзбекистон фани ва технологияларида инновация: муаммолар, ечимлар ва истиқболи. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Самарқанд 2007.-Б. 28-30.

[9]Саитқосимов А.И. Фуқаролик жамиятини барпо этишда ижтимоий соҳани инновацион ривожлантириш қонуниятлари // Фалсафа фанлари бўйича фан доктори (DSc) дисс. автореферати. – Самарқанд, 2019.- 61 б.

[10] Кубаева Ш.Т. Ўйин ва инновацион тафаккур (онтологик ва гносеологик таҳлил) // Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. – Самарқанд, 2019. - 49 б.

[11] Абдуллаева И.Ғ. Миллий тараққиётнинг янги босқичида иқтисодий ва инновацион тафаккур уйғунлиги // Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. - Самарқанд, 2019. - 48 б.

[12] Азизова Г.Г. Олий таълим муассасалари профессор -ўқитувчиларнинг касбий педагогик фаолиятини такомиллаштириш (инглиз тили материаллари мисолида). // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. - Самарқанд, 2019. – 52 б.; Азизова Г.Г. Инглиз тили ўқитувчиларининг инновацион педагогик фаолиятини ташкил этиш. Рисола.2018, - 71 б.; Азизова Г.Г. Олий таълим ўқитувчиларининг инновацион педагогик фаолиятини ташкил қилиш // Замонавий ўқитувчи касбий компетенциясининг педагогик-психологик асослари мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси. ТошВХТХҚТМОИ, 2015. –Б. 62-65.; Азизова Г.Г. Инновацион таълим жараѐнида педагогик технологияларнинг мақсад ва вазифалари // Тил ўрганишда таълим технологияларини ривожлантириш омиллари Республика илмий-амалий конференцияси. ТошВХТХҚТМОИ, 2017. - Б 34-37.

[13]Шодмонкулова Д.Х.Структура инновационной деятельности педагога. //

[14]Қорабоев Ш.А., Бабаева Н.М. Инновация ва инновацион салоҳият тушунчаларининг моҳияти ва мазмуни // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. №3, май-июнь, 2017.- www.iqtisodiyot.uz

ko‘rsatib o‘tgan bo‘lsalarda, uning faoliyat turi sifatida strukturaviy-funksional modelini belgilab bermaganlar.

Innovatsiyani faoliyat sifatida boshqaruv jihatlarini V.Y.Kalachev alohida o‘rganib, Rossiya Federatsiyasi iqtisodiyotini rivojlantirishda kasbiy ta’lim boshqaruvchilarining modelini yaratgan. Uningcha, innovatsion faoliyatning asosiy mezonlari bu innovatsion yo‘naltirilganlik hisoblanib, bunda maqsadli ustanovka yadro sanaladi.

Bizningcha, innovatsion faoliyatning xarakteristikasini amalga oshirishda uni quyidagi tiplarga ajratish mumkin, garchi maqsadli ustanovka innovatsion faoliyatning yadrosini tashkil etsada:

- innovatsiyani yaratish yoki uni moslashtirish innnovatsion faoliyat sifatida;
- innovatsiya yaratish maqsadida shart-sharoit yaratish ya’ni innnovatsion faoliyatni ta’minlovchi sifatidagi faoliyat.

Har ikkala xarakteristikada faoliyatning mahsuli belgilovchi mezon sanalib, bevosita innovatsion salohiyatni shakllantirish va rivojlantirish mujassamlashgan. Talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirishda (ta’lim tizimida) innovatsiyani ikkita guruhga ajratilishini nazarga tutish lozim. Iqtisodchi V.Y.Kalachevning ko‘rsatishicha, ta’lim tizimida innovatsiyalarni guruhlarga ajratish, ma’lumotlarni tizimlashtirish uchun qo‘layliklarga ega. Shu sababli ta’lim muhitida talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirish uchun birinchidan, kasbiy ta’limning asosiy dasturlari doirasida amalga oshirishi lozim. Ikkinchidan, oliy ta’lim muassasasining innovatsion salohiyati bilan belgilanishi mumkin. Innovatsiyaning birinchi guruhdagi xarakteristikasi nisbatan ommaviylashgan bo‘lsada, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda ko‘proq pedagogik mazmunlarni mujassam etgan. Ikkinchisi esa oliy ta’lim muassasasining marketing, moddiy ta’minot, axborot resurs hamda professor-o‘qituvchilarning faoliyatini boshqarilishi bilan bog‘liqdir. Shu sababli ikkinchi guruhning xarakteristikasi murakkabroq sanaladi. Chunki boshqaruvda moliyaviy mexanizm, haq to‘lash mexanizmi, ta’lim majmualarini shakllantirish mexanizmi, ta’lim jarayonini uzluksiz takomillashtirish mexanizmi ifodalangan. Innovatsiyalarni shakllanishi va rivojlanishi ta’lim tizimining ichki

ehtiyojlaridan vujudga kelib, lokal g‘oyalar va loyihalarni eksperemental maydonga chiqarish va olingan natijalarni butun ta’limga joriy etishdan boshlanadi. Bunda innovatsion jarayonlarni ma’lum tarixiy vaqt oralig‘ida tahlilini amalga oshirgan va masalaga strukturaviy yondashib, ta’lim mazmuni va texnologiyasini ta’minlash uchun innovatsiya zarur ekanligini belgilab bergan. Va tizimli strukturaviy yondashuv asosida bir qator nazariy modellarni uch bosqichda amalga oshirgan. Ta’limni modernizatsiyasini ta’minlashda innovatsion jarayonlar ta’lim mazmuni hamda yoshlarni tarbiyasiga ta’sir etishini ko‘rsatib o‘tgan. Uningcha, innovatsion jarayonni boshqarish tizim yaratuvchi komponent sanalib, rivojlanish tartibini ta’minlovchi sanaladi. Ta’lim tizimini innovatsion rivojlantirishni ta’minlash uchun boshqaruv ham talablarga javob berishi shart hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, innovatsiya faqatgina ta’lim berishni uslubi va mazmuniga taalluqlidir. S.Y.Kaplanning ta’kidlashicha, bu tarzdagi yondashuv ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchining hayot tarzini o‘zgartira olmaydi. Bunda fan va amaliyot hamda ijtimoiy madaniy muhit va boshqa buyurtmachi institutlarning aloqadorligi, ular orasidagi ijtimoiy masofa yaqin bo‘lishi lozim.

Ta’lim muassasasi o‘quv jarayonini ishlab chiqarishning talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirishi lozim bo‘ladiki, bunda boshqaruv jarayoniga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi:

- boshqaruv organlari tomonidan qabul qilingan direktivalarining ijrosini;
- texnologik va ilmiy yangiliklarni ta’lim amaliyotiga tadbiq etish;
- ixtisoslik fanlarining nazariy asoslarini takomillashtirish;
- buyurtmachilarni talablarini o‘rganib borish va b.

Innovatsiyalarni amaliyotga tadbiq etish ko‘p profilli faoliyat turi sanalib:

- strategik vazifalarni belgilash va ularning echimini topish;
- tahdidlarning monitoringini amalga oshirish;
- ta’lim muassasasining tuzilishi va salohiyatini o‘rganish;
- innovatsion takliflar majmuasini shakllantirish kabilarni qamrab oladi. Bu jarayonda umumiy strategiyani ishlab chiqish hamda moddiy texnik ta’minot

jarayonini nazorat qilish muhim sanaladi. Shu sababli bo‘lsa kerak, Evropa Ittifoqi davlatlarida “PRO INNO Evropa” axborot loyihasi qabul qilingan bo‘lib, innovatsiya siyosatining asosi sanaladi. Bunda “tahlil siyosati”, “bilim siyosati”, “rivojlanish siyosati” kabi masalalar ifodalangan bo‘lib, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlashda bilim va g‘oyalarining dominantligi mujassamlashgan[1]. Ko‘rinib turibdiki, rivojlangan davlatlarda bilim va yaratuvchi g‘oyalar taraqqiyotning asosi deb belgilangan. Masalan, Germaniya Federativ Respublikasida 80% ilmiy tadqiqotlar mamlakatda mavjud bo‘lgan etakchi universitetlarning loyhalari doirasida bajariladi[2].

Ibratli tomoni shundaki, bu jarayonga ular talabalarni ham, o‘qituvchilarni ham jalb etadi. Shu bois innovatsiyalarning klassifikatsiyasini amalga oshirishda quyidagi indikatorlarga e’tibor qaratiladi:

Ochiq yoki takomillashtirilgan loyha tarzida, ya’ni yangiligi bo‘yicha. Pedagogik ob’ekt va kategoriyalar bo‘yicha.

Qamrovi bo‘yicha, bunda alohida fakultet, o‘quv muassasasi yoki barcha o‘quv muassasalari.

Mualliflik darajasi bo‘yicha individual yoki jamoviy loyiha.

Manbalari bo‘yicha, tashqi buyurtma yoki shaxsiy kashfiyot sifatida.

Agarda yangi kashfiyot natijasini yoki mavjud usulni takomillashtirilgan variantini amaliyotga tadbiq etish murakkab ekanligini inobatga olsak, murakkablik quyidagi jarayonlarda o‘z in’ikosini topadi:

- yaratish;
- sinovdan o‘tkazish;
- qo‘lga kiritgan ma’lumotlarni tahlil qilish;
- o‘zgartirishlar kiritish.

Talabalarni amaliyotga tayyorlash jarayonida ularni innovatsiyaviy faoliyat bilan shug‘ullanishga tayyorlashimiz lozim bo‘ladi. Chunki innovatsiyalar samarali

[1]Hong, E., Peng, Y., Rowell, L. L., & O’Neil, H. F. Relations of metacognitive and motivational strategies to test and homework performance in Chinese students. In M. C. W. Yip (Ed.), Cognition, metacognition and academic performance: An East Asian perspective. - New York: Routledge, 2018. - Pp. 7-26.
[2] https:/ /lib.dr .iastate.edu/etd

kasbiy faoliyatning tarkibiy qismi sanaladi. Bunda talabalarni quyidagi bosqichlarda faoliyat yuritishlarini ta’minlash lozim bo‘ladi:

birinchidan, jarayonga nisbatan innovatsiyaviy yondashuvni lozim ekanligini belgilash;

ikkinchidan, jarayonga doir axborotlarning monitoringini amalga oshirish;

uchinchidan, axborot tahlilini amalga oshirib, yangi g‘oyani shakllantirish;

to‘rtinchidan, g‘oyani amaliyotga tadbiq etish uchun hamkorlikni amalga oshirish;

beshinchidan, g‘oyani amaliyotda sinab ko‘rish;

oltinchidan, institualizatsiya, yangilikni uzoq muddatda amaliyotda tadbiq etish.

Innovatsiyalar, insonni kogologik tahlilining mahsuli sanalib, o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi. Innovatsiyalar ilmiy izlanishlar hamda alohida ilg‘or tajribalarning natijasi ko‘rinishida boshqarishni taqozo etadi. Bu tushuncha X1X asrda ilmiy muloqotga kiritilgan bo‘lib, XX1 asrning boshlarida innovatika tushunchasi zamirida texnika sohasidagi yangiliklarni moddiy ishlab chiqarish jarayoniga tadbiq etishda qo‘llanildi. Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash maqsadli kasbiy faoliyat sifatida quyidagicha ta’minlanadi:

“Tahlil+O‘rganish+Ilmiy yondashuvlarni qiyoslash+Mavjud vaziyatni takomillashtirish uchun harakat” tarzida kechadi. Bunda talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorgarlik mezonini belgilash lozim bo‘ladi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda mezon tushunchasi – ko‘rsatkich, belgi, buning asosida ob’ekt, jarayon sifatini baholash shakllanadi, shunday baholash o‘lchovi; bilish nazariyasida holatning chin yoki soxtaligi[1] deb ko‘rsatilgan. Mezon predmet, hodisa va jarayonga berilgan bahoning xarakteristikasi sanalib, talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorgarligini baholash mezoni deganda, ularni innovatsiyalarni yaratish va amaliyotga tadbiq etish uchun ularda ifodalangan tahliliy tafakkurining asosiy komponentlarini ibratli xususiyatlarini tushunish lozim. Chunki bir nechta ko‘rsatkich yagona mezon tariqasida ifodalanib, oxir-

[1] Мезон арабча вазн, ўлчов, торозу деган маъноларни англатади. Саидов М.Х., Перегудов Л.В., Тоҳиров З.Т. Олий таълим (луғат-маълумотнома). – Тошкент: “Молия”, 2003. - Б. 184. (Умум. 456 б.)

oqibatda yaxlit xarakteristikani ifoda etadi. Shu sababli talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorgarlik darajasini belgilovchi mezon tarzida motivatsiyaviy, kognitiv va faoliyatli kabilarni ko‘rsatib o‘tish mumkinki, bunda quyidagi ko‘rsatkichlar indikator[1] sanaladi:

- motivatsiyaviy mezon indikatorlari sifatida yangi oldin ma’lum bo‘lmagan predmetlarni o‘rganish va innovatsiyaviy rejalarni tayyorlashga intilish;
- shaxsiy innovatsiyalarni yaratish va tadbiq etishga intilish;
- innovatsiyalarni idrok etishga intilish;
- innovatsiyalarni ommalashtirishga ehtiyojning ifodalanganligi kabilar shular jumlasidandir.

Kognitiv mezonning indikatorlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- kognitiv mezonning indikatorlari o‘z faoliyati doirasida muassasaning maqsad va vazifalarini bilish;
- bo‘lajak kasbiy faoliyatida qo‘llaniladigan metodlarning ustunlik darajasini ajrata bilish;
- kasbiy vazifalarni samarali bajarish uchun yangi ilmiy manbalar bilan tanishish;
- kasbiy faoliyatiga o‘xshash bo‘lgan vazifalar bilan tanishib borish.

Faoliyatli mezonning indikatorlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- proektiv va konstruktorli ko‘nikmalarni egallashga intilishi;
- bo‘lajak kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun shart-sharoitlarni yarata olish qobiliyati;
- faoliyat samaradorligini baholash usullarini amaliyotda qo‘llay bilishi shular jumlasidandir.

Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorgarlik darajasining mezonlarini belgilash va uning indikatorlarini aniqlash tadqiqotimizning vazifalaridan biri sanalib, kadrlarni tayyorlash tizimida raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun ham

[1] Индикатор (лот. indicator-кўрсаткич) -1) кузатилаётган жараённи ёки объект аҳволини, унинг сифат ёхуд миқдорий тавсифини акс эттирувчи прибор, қурилма, унсур; техникада, шунингдек илмий тадқиқотларда қўлланилади; 2) бирон жараён, ҳодисанинг кўрсаткичи, масалан ижтимоий фикр индикатори; тадқиқот обекти миқдорий тавсифини ҳам, тадқиқ этилаётган объектда у ёки бу хоссанинг мавжудлигини ҳам акс эттиради. / Саидов М.Х., Перегудов Л.В., Тоҳиров З.Т. Олий таълим (луғат-маълумотнома). – Тошкент: “Молия”, 2003. - Б. 99.

amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli mezonning indikatorlarini asoslash psixologik jihatdan nazariy metodologik asos kasb etadi.[1]

E.N.Stepanovning tadqiqotlarida bu masalaning tarbiyaviy tizim doirasidagi nazariy ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lsada, ammo talabalarning innovatsion faoliyati doirasida ma’lumotlar etarlicha yoritilmagan. Masalan, L.I.Petrova o‘rta kasbiy ta’lim muassasasining innovatsion faoliyat kuzatuvini amalga oshirishni metodik jihatlarini o‘rganib, faqatgina ta’lim jarayoniga jalb etgan o‘qituvchilarni innovatsion faoliyati sifatida uslubiy ko‘rsatmalar fan doirasida yaratilgan maketlar kabilarni majmuasini ko‘rsatib o‘tgan[2].

Faoliyat nazariyasidan ma’lumki, faoliyatning mahsuldorligini ta’minlash bevosita motivatsiyaga ham bog‘liqdir. Bunda talabalarning kasbiy maqsadni belgilab olishi, qadriyatlar orientatsiyasi, qiziqishlari, ehtiyojlari ham alohida ta’sir darajasiga egadir[3]. SHu sababli talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash davomida innovatsion yondashuvning iьtisodiy, madaniy, kasbiy va amaliy ahamiyatdorligi haqida ma’lumotlar berish talab etiladi. Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash majmuaviy yondashuvni talab etib, bunda oliy ta’lim va ishlab chiqarish orasidagi aloqadorlik, talabalarning faolligini ta’minlash uchun muhim sanaladi.

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va erishilgan qator ijobiy o‘zgarishlarga qaramasdan, ta’lim samara-dorligining rivojlanish dinamikasini yanada jadallashtirish, bunda yaratilgan shart–sharoitlar va imkoniyatlardan samarali foydalanish, bugungi kunda eng dolzarb masala hisoblanadi. Bu hususida yurtboshimiz dolzarb vazifalardan biri sifatida «O‘qituvchilar tarkibini tayyorlash sifati va ularning malakasini oshirish masalasiga alohida ahamiyat qaratish» lozimligini ta’kidlab o‘tgani pedagog kadrlarni tayyorlash sifatiga katta e’tibor qaratishdan dalolat beradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy va ijtimoiy kompetentliligini shakllantirish, ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta’minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni

[1]Степанов Е.Н. Методология моделирования воспитательной системы образовательного учреждения // Педагогика, 2001. - №4. –С.14-19.
[2]Петрова Л.И. Методическое сопровождение инновационной деятельности учреждение среднего профессионального образования / Автореф. дис. … канд. пед. наук. – М., 2005. -21 с.
[3]Карпенко М.П. Становление новой педагогической парадигмы и ее технологическое обеспечение // Мир психологии, 1998. - №3. – С.22-29.

yaratish, kasbiy kompetentlikni shakllanishining pedagogik asoslarini ishlab chiqish, psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash hamda kasbiy va ijtimoiy kompetentligini shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlarni asoslash kabi muammolar mavjud.

«Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish» bosh g‘oya ekan, shu g‘oyaning etakchi targ‘ibotchisi, shu g‘oyaning tarbiyachisi o‘qituvchi hisoblanadi. Erkin fuqarolik, huquqiy demokratik jamiyat qurishda ta’lim-tarbiya hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shunday ekan, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligini tarbiyalash zaminida yosh avlod tarbiyasi, komil inson taqdiri turibdi. Shu munosabat bilan bo‘lajak o‘qituvchilarni ularni oliy ta’lim muassasasigaa tayyorlash davridan talab qilinadigan kasbiy va ijtimoiy kompetentlik darajasini ta’minlaydigan yangicha yondashuvlar asosida ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb vazifa bo‘lib kelmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy va ijtimoiy kompetentliligini shakllantirishda ma’lum darajada bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari bilan uning kasbiy va ijtimoiy kompetentliligini rivojlantirish muammosining mustaqil, yaxlit bitiruv ishi mavzusi sifatida o‘rganilishi bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, omillarini aniqlashga imkon beradi. Bu talaba-yoshlar oldiga Vatanimiz mustaqilligi yo‘lida boshlang‘ich islohotlarni davom ettirishga tayyor bo‘lish, o‘z fikri va dunyoqarashiga ega bo‘lish kabi ulug‘ vazifalarni qo‘yadi. Bu esa o‘quvchi-yoshlarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishni taqozo etadi. O‘quvchi-yoshlarni kasbiy kompetentligini shakllantirish bosqichma-bosqich, pedagogik turkum fanlari hamda umummutaxassislik fanlari integratsiyasi, ya’ni didaktik sintezi va fanlararo aloqadorlik darajasida amalga oshiriladi.“Kompetentlik bu kasbiy faoliyatga oid bir qancha shaxsiy sifatlarni mujassam etgan keng qamrovli tushuncha bo‘lib, kasbiy kompetentlikni shakllantiruvchi 37 turdagi omillar ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan.”[1]

[1] Муслимов Н.А.Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. (монография)–Т.: «Fan va texnologiya», 2013.

1.2. Psixologiya fanida talabalarni innovatsion faoliyat yo‘naltirishning dinamikasi

Talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirish orqali Yangi O‘zbekistonda barpo etilayotgan Uchinchi Renessans poydevori zamin hozirlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020 yil 29 dekabrida Oliy majlisga yo‘llangan murojaatnomasida “...avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib, xizmat qilishi lozim[1]” deb ko‘rsatib o‘tganlar.

Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda ularda innovatsion kompetensiyalarni shakllantirish lozim bo‘ladiki, uning muhimligi quyidagi holatlar bilan bog‘liqdir:

- mamlakatimizda, ta’lim siyosati hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligini inobatga olinganligi;
- zamonaviy ta’lim tizimi mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy talablaridan yiroq ekanligi;
- milliy taraqqiyotni ta’minlashda innovatsiyalarga bo‘lgan talablarning ortib borishi shular jumlasidandir.

Bugungi kunda bir qator o‘z echimini kutayotgan muammolar mavjudki, ularni quyidagicha ko‘rsatib o‘tishmiz mumkin:

- ijtimoiy-psixologik darajada (davlat va jamiyat tomonidan oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilariga buyurtmaning bajara olmasligi. Ya’ni ishlab chiqaruvchining mutaxassisga quyidigan talablari, oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarida o‘z in’ikosini topmagan);
- ilmiy-nazariy darajada (bitiruvchilarining ixtisosligi bo‘yicha kasbga psixologik tayyorgarligini belgilab beruvchi konsepsiya va metodologiyaning mavjud emasligi);

[1] strategy.regulatoin.gov.uz

- ilmiy-metodik darajada (oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarida ishlab chiqaruvchining talab va ehtiyojlari hududlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy talablari bilan integratsiyalashmaganligi);
- ilmiy-amaliy darajada (innovatsion faoliyatning qadriyat sifatida e’tirof etmasligi va bu yo‘nalishda kerakli konsepsiyalarning yaratilmaganligi).

Shu sababli talabalarda innovatsion kompetensiyalarni shakllanish jarayonini ijtimoiy-psixologik jihatdan o‘rganish tadqiqotning predmeti sifatida belgilandi.

Talabalarning innovatsion kompetensiyasi deganda ular egallayotgan ixtisoslik doirasida bajaradigan funksiyalarni ta’minlovchi integral kasbiy-shaxsiy xarakteristikasi tushunilib, bunda asosiy e’tibor yangi g‘oyani amaliyotga tadbiq etish uchun nazariy bilimlarni ishlab chiqarish amaliyotiga tadbiq eta bilish qobiliyati tushuniladi.

Shu sababli talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda ishlab chiqarish, ya’ni amaliyotning talablaridan kelib chiqqan holda yondashish maqsadga muvofiqdir. Chunki innovatsion kompetensiya bu bo‘lajak mutaxassis shaxsini uzluksiz rivojlanish jarayoni hisoblanib, ishlab chiqarish amaliyotida fan va texnologiya yutuqlari natijalarini joriy etib, bunda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi tashqi omillarning – kasbiy faoliyat va shaxsiy intilishlarning ta’siri asosida kechadi.

Nazariy jihatdan talabalarda innovatsion kompetensiyalarning shakllanishi o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lib, bunda tashqi va ichki omillar, prinsiplar, umumlashtirilgan holatlar, amaliyot va nazariyani ifoda etuvchi maqsad, mazmun va texnologiya hamda faoliyatni tashkil etish jarayoni mujassamlashgan bo‘lishi lozim.

Innovatsion faoliyat tushunchasi Y.V.Gromыko, V.S.Lazerev va B.P.Martirosyan kabi tadqiqotchilarning ishlarida qo‘llanilgan bo‘lib, bu tushunchaning birlamchi ma’nosi bir madaniyatning ayrim elementlarini boshqa

bir madaniyatga kiritilishi ma’nosini anglatganki, buni V. Nikitin barqaror me’yor va namunalarning translyasiyasi natijasida vujudga kelishini ko‘rsatib o‘tgan[1].

Psixologiya fanining rivojlanish nazariyasidan ma’lumki, ikkita madaniyatning elementlarining integratsiyalashuvi natijasida ularga o‘xshamaydigan yangi element vujudga keladi. Shu sababli AQShlik madaniy antropologiyaning etakchi vakillaridan biri M.J.Herskovits qadriyatlarning ta’siri natijasida madaniyatni translyasiyalashuvi davomida individ kognitiv, emotsional hamda xulq-atvorda o‘xshash bo‘lgan xulq-atvor namunasini boshqa madaniyat vakilidan o‘rganib oladi[2]. Shu tariqa mavjud me’yor va qadriyatni kasbiy faoliyat doirasida biron-bir elementining o‘zgartirilishi, yo ijobiy yoki salbiy mazmun kasb etishi mumkin. So‘nggisi bizning misolimizda oliy ta’lim muassasalari bitiruvchisi nazariy qonuniyatlar va amaliyot me’yorlari orasidagi aloqadorlikni bilmasligi natijasida vujudga kelishi mumkin. Nazariyani chuqur o‘rganib, amaliyot ehtiyojidan, ya’ni rivojlanishni ta’minlash maqsadida mas’uliyatni o‘z zimmasiga olib, yangi elementni kiritishi ishlab chiqarishni rivojlanishini ta’minlaydi. Sh.Yusufning ta’kidlashicha, innovatsiya bu bilimni ijodiy tarzda qabul qilishdir va uning asosini kreativlik hamda bilimlar yig‘indisi tashkil etadi[3].

Bizningcha, innovatsiya tizim sanalib, davlat tashabbuslarini milliy va mintaqa darajasida hamda ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish institutlari hamda ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi kabi o‘zaro aloqador bo‘lgan majmua sanaladi va bularni birlashtiruvchi asosiy komponent bilim sanaladi. Bunda bilim, ta’lim oluvchi-ta’lim beruvchi, ta’lim muassasasi-ishlab chiqaruvchilarning maqsad asosida birlashtiradi. Shu sababli talabalarda innovatsion komponentlarni shakllantirish nazariy va amaliy mazmun kasb etadi. Ta’kidlanishicha, Shvetsiyaning rivojlanishida innovatsiyalarning ulushi katta va davlat aholining innovatsion va kreativ layoqatlarini ta’minlashga alohida e’tibor qaratadi[4].

---

[1]Никитин В. Образование в ловушке развития // Кентавр, 2004. №33. – С.36-41
[2]Herskovits M.J. Les basis del antrologie culturelle. – Paris, 1967.
[3]Юсуф Ш. От креативности к инновации. / Пер. с анг. А.Пинской // Вопросы образования, 2007. № 4. -С. 159-172.
[4]Хольм С.Т. Инновационая цепь: в поисках недостающего звена российской инновационной системы // Бллеютень Инновационные Тренды, 2011. №1. –С. 12-14.

N.Yusufbekova yangilik yaratish jarayonini innovatsiya deb idrok etishni ko‘rsatib o‘tgan[1]. Bizningcha muallif, ta’lim amaliyoti va tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan usullarni nazarda tutgan bo‘lishi mumkin.

R.Mertonning ta’kidlashicha, innovatsion g‘oyalarni ilgari surganlik, deviant xulqning namunasi sanaladi[2]. R.Merton innovatsiya institutsional amaliyotni, ya’ni ishlab chiqarishda mavjud bo‘lgan me’yor, tamoyil va mezonlarni inkor etganligi sababli, ijtimoiy-madaniy nuqtai nazardan bu fikrni ilgari surgan bo‘lishi mumkin.

Agarda talabalarimizni kasbiy faoliyatning manfaatidan kelib chiqqan holda innovatsion g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga tadbiq etib, samaradorligi asosida baholab, ishlab chiqarishga joriy etishga o‘rgatsak: “talaba-innovatsion g‘oya-nazariya- amaliyot-refleksiya-ishlab chiqarish” kabi murakkab kasbiy munosabatlar tizimi amal qilib, oliy ta’lim va amaliyot orasidagi munosabat (ijtimoiy masofa (futuromaydon)), ya’ni tajribaviy maydoncha va ishlab chiqarish ta’minlanadi. Chunki innovatsiyalar istiqbolni – bizning misolimizda kasbiy faoliyat istiqbolini belgilab, bunda nazariya vositasida amaliyotni boyitish kuzatiladi. Shu sababli innovatsionfaoliyatning egalarini tarbiyalash taraqqiyotni ta’minlashda ishtirok etuvchi ijtimoiy-psixologik omil sanaladi.

Garchi N.Lapin innovatsion faoliyatni metafaoliyat tarzida belgilab[3], faoliyatning reproduktiv komponentlarini o‘zgartiruvchi deb ko‘rsatsada, innovatsionfaoliyat ishlab chiqarish xarakterini-samaradorligini ta’minlash jihatidan o‘zgartiradi. Tez o‘zgaruvchan ijtimoiy va kasbiy reallikda samarali kasbiy faoliyat yuritshni ta’minlash psixologiyani, xususan mehnat psixologiyasining vazifasi sanaladi[4]. Ayrim tadqiqotchilar bu tushunchaga shaxsiy jihatni ham kiritib, sub’ektning shaxsiy vositalar majmuasini tez o‘zgaruvchan

---

[1] Юсуфбекова Н.Р. Общие основы педагогической инноватика. Опыт реализации иннновационных процессов в образование. – М., 1991. - 91 с.
[2]Мертон Р. Социальная теория и социальная структура. – М.: Хранитель, 2006. - 873 с.
[3]Лапин Н.И. Теория и практика инноватики. – М.: Логос, 2008. - 328 с.
[4] Толочек В.А. Современная психология труда. – СПб.: Питер, 2005. -479 с.

kasbiy muhitga adaptatsiyalashuvi deb ko‘rsatadi[1]. Bizningcha, innovatsion faoliyatning samaradorligini ta’minlovchi komponentlar tizimida Yu.Karpovaning yondashuvi bo‘yicha barcha komponentlar belgilab berilgan va ularning darajaviy ko‘rsatkichi ham belgilab berilgan. Agarda birlamchi ma’noda innovatsiya tushunchasi natija va jarayon kabilarning asosida tuzilgan bo‘lsada, uni faoliyatning progressiv natijasi sifatida ham belgilash mumkin. Chunki innovatsiyalarning keng miqyosida tadbiq etilishi insonning hayot va faoliyati hamda jamiyatning o‘zgarishga sabab bo‘ladi. Bunda innovatsiya jarayon sifatida g‘oyani yaratish va uni aniq mahsulot tarziga keltirish kabi bosqichlar ifodalangan bo‘lib, mehnat bozorining talab va ehtiyojlari bu jarayonlarning dinamikasini belgilovchi sanaladi. Shu sababli innovatsiya, kashfiyot yoki aniq g‘oyaning moddiylashgani, ya’ni biron-bir mahsulot shaklini olganligi iqtisodiy ko‘rsatkich sanaladi. Innovatsiya faoliyat turi sifatida yuqori natija hamda texnologiyalarning amaliyotga tadbiq etilishi va yangi g‘oyalarni moddiylashtirish uchun o‘zgaruvchan sotsiumda dinamik jarayonlarni ta’minlash uchun muhim sanaladi. Innovatsion faoliyatga doir bo‘lgan ilmiy manbalarning qiyosiy tahlili, uni tashkil etish prinsiplarini ajratishni taqozo etadi. Bu yo‘nalishda bir nechta paradigmalar[2] shakllangan bo‘lib, asosiylari sifatida quyidagilarni ko‘rsatib, ularni innovatsion jarayonlarni prinsiplari deb qabul qilish mumkin:

-texnologik jarayon. Bunda to‘liq prognozni ifoda etgan barqaror innovatsiyalar kiradiki, ular boshqaruv psixologiyasi nuqtai nazaridan tashkillashtiriladigan va nazorat qilinadigan jarayon sanaladi;

- **majmuaviy va oraliq jarayon**. Bunda innnovatsiyalar jamoalar tomonidan ishlab chiqaladiki, jamoa tarkibida nazariyotchi va amaliyot vakillari ham qatnashib, aksariyat holatlarda fanlarning kesishgan nuqtasida amal qiladi;

- **sikllilik jarayoni**. Jamiyat va insonning hayot faoliyati dinamik ekanligi natijasida bir marotabalik kashfiyot insoniyat uchun maqbul emas. Natijada bir kashfiyotning asosida, ikkinchi bir kashfiyot va yana keyingi kashfiyot amalga oshirilishi nazarda tutilmoqda;

[1]Карпова Ю.А. Введение в социологию инноватики. – СПб.: Питер, 2004. -192 с.
[2] Paradeigma– намуна, ибрат. Райзберг Б.А. Современный социоэкономический словарь. – М., 2012. - С.356.

- **fan va ijod jarayoni**. Har qanday yaratilgan mahsulot iste'molchilar uchun kerakli sanalishini ta'minlash uchun fanning xulosalari bo'yicha yaratuvchanlik bilan shug'ullanib, ma'lum rejalar asosida ish yuritishini ta'minlashni taqozo etadi;
- **ochiqlik jarayoni**. Raqobatbardoshlikni ta'minlash maqsadida ilm shakliga keltirilmagan axborotlarni muntazam takomillashtirib borish lozim. Buning evaziga axborot resurslari kengayishi bilan uning iste'molchilarning soni ham oshib boradi;
- **global jarayon**. Innovatsiyaning muvaffaqiyatligi uning ko'lamiga bog'liq bo'lib, madaniy tizimda mavjud bo'lgan elementning o'zgartirilishi keng qamrovli bo'lsa, unga bo'lgan qiziqish shu darajada oshadi.

A.N.Leontev ijtimoiy jarayonlarni aniqlashtirib, innovatsion faoliyat bu faqatgina alohida insonning harakati emas balki, boshqalarning ham harakati davom etayotgan bir davrda buning ham faoliyati, ya'ni qandaydir hamkorlik faoliyati sanaladi deb ko'rsatib o'tgan[1].

O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonunining 3-moddasida:

"innovatsiya - fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma;

innovatsion infratuzilma - innovatsion faoliyatni moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy-uslubiy, axborot, konsultativ va boshqa jihatdan ta'minlaydigan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, mulkchilikning istalgan shaklidagi ular birlashmalarining majmui;

innovatsion loyiha - yangi ishlanmalar yaratish uchun bajarish muddatlarini, ijrochilarni, moliyalashtirish manbalarini va tegishli infratuzilmani shakllantirishni nazarda tutuvchi tadbirlar majmui;

innovatsion faoliyat - yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha faoliyat;

[1]Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Смысл, 2004. - 352 с.

innovatsiyalar yaratish uchun davlat buyurtmasi - O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga innovatsion loyihani bajarish uchun topshiriq;

texnologiyalar transferi - yangi ishlanmani u olinadigan (ishlab chiqariladigan) sohadan amalda qo‘llash sohasiga o‘tkazishga qaratilgan tadbirlar majmui;

yangi ishlanma - mavjud o‘xshash intellektual faoliyat natijalariga nisbatan yangi belgilarga ega bo‘lgan, amalda qo‘llash mumkin bo‘lgan va amaliyotda undan foydalanganda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta’minlay oladigan intellektual faoliyat natijasi (ishlab chiqarish, ma’muriy, tijorat yoki boshqa xususiyatga ega yangi yoki mukammal texnologiya, xizmat va tashkiliy-texnik echim)”[1] deb ko‘rsatilgan. G.I.Gerasimov va L.V.Ilyuxina innovatsiya bu shaxsda mujassamlashgan salohiyatni maqsadli amalga oshirish sanaladi. Innovatsiyaning faoliyat sifatida o‘ziga xosligi shaxsning ma’lum tipini belgilab beradi[2]. Bizningcha, bu tipdagilarni innovatsion shaxs deb belgilasak maqsadga muvofiq bo‘ladi. G.I.Gerasimov va L.V.Ilyuxinaning fikrini S.Knowles Malcolm, F.Holton Elwood, A.Swanson Richard ham davom ettirib, bugungi kunda shunday insonlarni tayyorlash lozimki, ular o‘zlarining bilimlarini o‘zgaruvchan sharoitda ham qo‘llab, o‘z hayotlarini takomillashtirib borsinlar[3].

E.Xagenning Innovatsion shaxs nazariyasi bo‘yicha innovatsion shaxs - bu zamonaviylikni barpo etuvchi, jamiyat hayotining o‘zgarib va takomillashib boradigan mezonlari, qadriyatlari, iqtisodiy rivojlanishini, tadbirkorlikning rivojlanishini, kapitalni jamlovchisi sanaladi. Bunda innovatsion faoliyatga tayyorgarlik muhim sanalib, biz tadqiqotimiz davomida talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashni asosiy jabhalarini belgilab olishni maqsad qilib oldik. Chunki insonni shaxs sifatida resurslarning shakllanganligi uning intelektual

---

[1]Ўзбекистон Республикасининг “Инновацион фаолият тўғрисида”ги Қонуни. / Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.07.2020 й., 03/20/630/1101-сон.

[2]Герасимов Г.И., Илюхина Л.В. Инновации в образовании: сущность и социальные механизмы. – Ростов н/Д., 1999. - 136 с.

[3] Knowles Malcolm S., Holton Elwood F., Swanson Richard A. The AdultLearner: The Definitive Classic in Adult Education and Human Resource Development(Managing Cultural Differences) 5 th ed, Houston, TX: Gulf Publishing Company, 1998.

jihatdan o‘zini namoyon etish erkinligini ta’minlaydi. SHu sababli bo‘lsa kerak, K.Rodjers agarda insonga to‘g‘ma salohiyatlarni to‘liq ifodalash uchun sharoit yaratib bersak, u (inson - Sh.O‘.) optimal va samarali tarzda rivojlanadi. Bu tarzdagi konstruktiv tug‘ma salohiyatning rivojlanishi insonga o‘z kompetensiyalarini indentichligini va professionalizmini, shu bilan birga ijtimoiy etukligini, mas’uliyatligini va ijodga intilishini ta’minlaydi[1].

Bu masalani nazariy ahamiyatidan ko‘ra, amaliy jihati shaxs, ishlab chiqarish jarayoni va jamiyat ravnaqi uchun alohida mazmun kasb etib, R.W.Rycroft va D.E.Kashlarning ta’kidlashicha, innovatsiyani tavsiflovchi sanaladi[2]. Bunda yangilikning uchta darajasi muhim sanalishi ko‘rsatib o‘tilgan:

- takomillashgan (incremental innovations);
- radikal texnik o‘zgarishlar (radical innovations);
- tizimli innovatsiyalar (technology system changes).

Innovatsion faoliyat iqtisodiyot fanida ko‘proq o‘rganilgan bo‘lib, uning turli tasnifi keltirilgan. Bizningcha, talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda ularning ta’lim yo‘nalishini inobatga olgan holda innovatsiyalarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- mavjud bo‘lgan madaniy majmuaga yangi elementni kiritish;
- egallagan ixtisosligi bo‘yicha oldin mavjud bo‘lmagan metodni kiritish;
- mavjud metodlarni tarkibiy qismlarini takomillashtirish yo‘li bilan faoliyat samaradorligini oshirish va b.

Shu o‘rinda D.Muxammedovaning tadqiqotida keltirilgan oliy ta’lim muassasalari menejerining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda innovatsion faoliyatning funksiyalarini keltirish mumkin[3].

Innovatsiya umumiy va xususiy sifatlarni, tarkiblarni, munosabatlar va ularning turlarini mujassam etgan ilmiy kategoriya sanaladi va u quyidagi funksiyalarni bajaradi:

---

[1]Роджерс К. Взгляд на психотерапию. Становление человека: Пер.с англ. / Общ. ред. и предисл. Исениной Е. И. – М.: Издательская группа «Прогресс», «Универс», 1994. – 480 с.

[2]Rycroft R.W., Kash D.E. Steering Complex Innovation // Research Technology Management. 2000. Vol. 43. № 3. - P. 18–23.

[3] Мухаммедова Д.Г. Таълим менежерини инновацион фаолиятга тайёрлашнинг ижтимоий-психологик технологияларини такомиллаштириш. / Докторлик диссертацияси автореферати – Тошкент, 2015. – Б.17-18.

- yaratuvchanlik (moddiy va nomoddiy);
- iqtisodiy (investitsiya va b);
- rag‘batlantiruvchi (moddiy va nomoddiy).

Ko‘rinib to‘ribdiki, innovatsiyaning asosiy funksiyalari insonning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, bunda rag‘batlantiruvchi funksiya ijtimoiy-psixologik jihatdan kasbiy tafakkurni rivojlantirish, pozitiv kasbiy “Men”ni rivojlantirish uchun xizmat qilishi bilan birga jamoa bilan hamkorlikda faoliyat yuritishni, ya’ni guruh a’zolari bilan belgilangan vazifani bajarish uchun muvaffaqiyatli faoliyat yuritishni ta’minlaydi.

Innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishda ichki va tashqi omillarning ta’siri yaqqol kuzatiladi. Ularni innovatsiyaning asosiy manbalari sifatida ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- kutilmagan muvaffaqiyat yoki omadsizlik;
- real holat va istali holat orasidagi tafovutni bartaraf etish istagi;
- shaxsiy ehtiyojini, ya’ni boshqalar tomonidan hurmatga sazovar bo‘lish va e’tirof etilish ehtiyojining qondirilmaganligi;
- qadriyatlar tizimini takomillashuvi natijasida o‘zi va o‘z kasbiga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi;
- yangi bilimlarni o‘zlashtirilganligi;
- iqtisodiy manfaatdorlikka erishish va b.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan oltita manbalarning zamirida inson va uning ehtiyojlari ifodalangandir. Agarda innovatsiya tushunchasi bilan kashfiyot va yangilik yaratish tushunchalari o‘zaro aloqador bo‘lsada, bunda strategik/bazaviy ehtiyojlar muhim sanaladi.

Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonida institutsional darajada quyidagi ijtimoiy psixologik jarayonlarni inobatga olish lozim:

- ishontirish ob’ekti va predmetini dinamik o‘zgarishini monitoringini amalga oshirish;
- ishontirish predmetini optimal parametrlarini belgilash;
- psixologik modellashtirish;

- talabalarni rag‘batlantirish.

Mazkur to‘rtlik bevosita talabalarni innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishga yo‘naltirish uchun psixologik ta’sir ko‘rsatish maydoni sanaladi. Nazariy jihatdan innovatsiya jarayon sifatida ham, dinamik va ham statistik jihatlari bilan o‘rganilishi mumkin. Chunki innovatsiyaning tarkibida ilmiy-madaniy yangilik (jumladan, texnik), amaliyotda joriy etishida qo‘laylik va samaradorlik ifodalangan. Bu o‘z navbatida innovatsion jarayonni ikkita fazada[1] kechishini ko‘rsatadi. Birinchi faza bu yangilikni yaratish va uni amaliyotda qo‘llash. Ikkinchisi esa yangi yaratilgan g‘oyaning diffuziyasi[2].

Birinchi faza doirasida ilmiy tadqiqotlar, tajriba va sinovlar bosqichma-bosqich o‘tkazilib, uning samaradorligi, qo‘layligi belgilanadi. Ikkinchi faza doirasida esa kasbiy muhit doirasida turli xil kommunikatsiya vositasida ommaviylashadi. Diffuziya jarayonida innovatsiyani o‘z faoliyatida qo‘llovchilar va uni yaratuvchilarning soni o‘sishi kuzatiladiki, Y. Shumpeterning nazariyasini asosiy tamoyillariga mos tushadi[3].

Oliy ta’lim tizimida talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash uchun ularda analitik tafakkurni rivojlantirib, mavjud holat va istalgan holat orasidagi tafovutni bartaraf etish uchun bilim va tajriba, aniqrog‘i kasbiy amaliyotning tajribasi lozimligini uqtirish lozim. Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda ularda innovatsion kompetensiyaning asosiy komponentlarini shakllantirish talab etiladi. Buning uchun ta’lim amaliyotida mavjud bo‘lgan vaziyatli mashqlar hamda shakllantiruvchi treninglardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Chunki innovatsion faoliyatni rivojlantirishga nisbatan faktorli yondashuv, funksional yondashuv, vaziyatli yondashuv hamda tizimli yondashuv kabi ta’limotlar mavjud bo‘lib, fikrimizcha ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan, ya’ni nazariy bilim va kasbiy ko‘nikmalar, muloqatchanlik, yaratuvchanlik va bunyodkorlikka intilish, yangiliklarga intilish kabi sifatlarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

---

[1] Фаза юнонча вужудга келиш. Табиат ва жамиятда бирон бир ҳолат ёки жараённинг алоҳида ривожланиши. / Словарь иностранных слов. 17-е изд., испр. – М.: Рус. яз., 1988. – С. 517.

[2] Диффузия лотинча тарқалиш, ёйилиш, кенгайиш маъноларида ифодаланади. / Словарь иностранных слов. 17-е изд., испр. – М.: Рус. яз., 1988. – С. 171.

[3] Шумпетер Й.А. Теория экономического развития. – М.: ЭКСМО, 2008. – 864 с.

1.3. Innovatsion faoliyat va uning strukturasi

Ta’lim tizimi oldida turgan asosiy muammolar birinchi navbatda globallashuv jarayoni, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatningo‘zgarishi, jamiyatni axborotlashtirish va innovatsion texnologiyalarni jadal rivojlantirish bilan boshlangan. Shu sababli, oxirgi yillarda talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash masalasi dolzarb bo‘lib borayotganligi sir emas. Chunki, talaba ilm-fan va amaliyot sifatining asosiy drayveri (tashuvchisi) bo‘lib, uning innovatsion salohiyatini rivojlantirish o‘zgarishlarga qarshi ishlashga tayyorlikni ta’minlashning asosiy shartidir.

“Talabalarning innovatsion kompetensiyasini shakllantirish” konsepsiyasini yaratish uchun umumiy bo‘lgan tushunchalarning mazmunini va ushbu kompetensiyaning tuzilishini, uni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan bosqichlar va shartlarni ko‘rib chiqamiz. E’tiborli jihati shundan iboratki, zamonaviy sharoitlarda talaba o‘quv faoliyatining vazifasi har qanday yangilikni amalga oshirish emas, balki maktablarda olib borilayotgan innovatsion jarayonlarni ta’limni rivojlantirishning u yoki bu strategiyasini modernizatsiyalashga yo‘naltirish va talabalar jamoalarining innovatsiyalarini etarlicha rag‘batlantirishdir.

Ushbu maqsadlarga turdosh umumiy tushunchalar “kasbiy kompetensiya”, “kasbiy rivojlanish”, “innovatsion faoliyat”dir.

Bugungi kunda kompetentlikka asoslangan yondashuv hozirgi jarayon trendi emas, balki davlat va ish beruvchilar tomonidan rasmiylashtirilgan mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash talabidir. Ta’lim sohasi ham bundan mustasno emas.

Yuqori darajadagi kompetentlik, harakatchanlik, o‘z-o‘zini rivojlantirish usullarini o‘zlashtirish - bu zamonaviy o‘qituvchiga xos bo‘lishi lozim bo‘lgan fazilatlar ro‘yxatidan juda uzoqdadir.

Ijtimoiy tajribaning murakkablashishi va kengayishi, axborotni taqdim etish va qayta ishlashning tobora xilma-xil shakllarining paydo bo‘lishi, ta’lim xizmatlari ko‘lamining doimiy kengayishi bilan bog‘liq holda talabaning kompetensiyasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kompetentlikka asoslangan yondashuv talabaning kasbiy ta'limini yangilash sharoitida pedagogika fani tomonidan tan olingan usullardan biridir [134, 205, 217, 261, 356]. Shuning uchun, bizning fikrimizcha, "kasbiy kompetensiya" tushunchasini har tomonlama o'rganib chiqish muhimdir.

Ilm-fanda ushbu tushunchaning aniq talqini mavjud emas, ammo shunga qaramay, kasbiy pedagogik kompetensiya muammosi zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan ichki psixologik va pedagogik fanlarda shakllangan an'analarga muvofiq - talabaning xususiyatlarini tahlil qilish yo'li bilan ko'rib chiqilmoqda. Uning kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli bajarish uchun muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, N.V.Kuzmina xulosasiga ko'ra, kompetentlik - bu talabaning samarali faoliyatining sub'ektiv omillaridan biri, shaxsga yo'naltirilganlik turi va qobiliyatlar darajasi, bu kompetensiyaning maxsus pedagogik, uslubiy, ijtimoiy-psixologik, differensial-psixologik, autopsixologik tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi. Ilm-fan sohasida birinchi marta olim autopsixologik kompetensiyani "kasbiy kompetensiya" tushunchasiga o'zini, shuningdek, boshqa odamlarni, ularning munosabatlarini va "shaxslararo voqealar"ni bashorat qilish qobiliyati sifatida tushuntiradi [205]. Ushbu ta'rif E.A.Klimov tomonidan "Inson-inson" kasblar guruhining alohida ko'rsatilishi va soha ixtisosliklarning ushbu guruh kasblarining xususiyatlari bilan o'zaro bog'liqligi [182, 183] bilan izohlanadi.

E.F.Zeer xulosasiga ko'ra, kasbiy kompetentlik, yo'nalish va kasbiy muhim fazilatlar bilan bir qatorda, faoliyat sub'ektini shakllantirishning asoslaridan biridir [133, b.52-56]. "Kasbiy kompetensiya" toifasi "kasbiy ta'lim darajasi, insonning tajribasiva individual qobiliyatlari darajasi, uning doimiy ravishda o'zini o'zi tarbiyalash va o'zini takomillashtirishga bo'lgan intilishi, mehnatga ijodiy va mas'uliyatli munosabati" bilan belgilanadi. Ushbu fazilatlar B.S.Gershunskiy [90, 289, b.74] tadqiqotlariga ko'ra, professional (kasbiy) ta'lim tarkibi va mazmuniga kiritilishi lozim.

L.M.Mitin tomonidan ishlab chiqilgan talabaning professional (kasbiy) rivojlanish konsepsiyasi talabaning kasbiy rivojlanish bosqichlarini uning shaxsini psixologik qayta qurish bosqichi sifatida belgilaydi: o'z taqdirini o'zi

belgilash, o‘zini namoyon qilish, o‘zini anglash. Bosqichlarni aniqlash mezoni talabalarning o‘z maqsadlari va qadriyatlarini anglash darajasining o‘zgarishi bo‘lib, u kompetensiyali yondashuvi nuqtai nazaridan talabaning kasbiy kompetensiyasining motivatsion-qiymat tarkibiy qismining shakllanishiga mos keladi. Muallif o‘zini o‘zi anglash va aks ettirishni tashkil etish orqali talabani innovatsion faoliyatga tayyorlashorqali kasbiy rivojlanishiga sun’iy va texnik ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ta’kidlaydi [240, 241].

Bizning tadqiqotimiz uchun bu jarayon shuni anglatadiki, kasbiy maqsadni belgilash va uni amalga oshirishtalabalarning innovatsion faoliyatga tayyorligi mezonlari bo‘lishi mumkin.

V.A.Slastenin kasbiy innovatsion kompetensiya tarkibidagi ikkita asosiy komponentni ajratgan holda ko‘rsatib beradi:

1) talaba kasbiy faoliyatni amalga oshirishga nazariy tayyorligini belgilaydigan bilimlar tizimi;

2) talaba kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorlikning amaliy asosini tashkil etadigan malaka va ko‘nikmalar tizimi.

Olim birinchi komponentni umumiy madaniy, umumiy ilmiy, maxsus va psixologik-pedagogik bilimlar yig‘indisiga egalik qilish deb ataydi. Ikkinchi komponent turli xil faoliyat turlaridan iborat: prognostik, loyihaviy, konstruktiv, tashkiliy, kommunikativ, refleksiv.

Ko‘rsatib o‘tilgan faoliyat turlariga muvofiq talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan ushbu faoliyat usullari bo‘lgan ksbiy mahorat tizimi shakllanadi [340, b.5]. Olim quyidagi o‘zaro bog‘liq qobiliyatlarni aniqlaydi: gnostik, prognostik, loyihaviy, konstruktiv, tashkiliy, kommunikativ, refleksiv, tahliliy. Ushbu ko‘nikmalar tegishli faoliyat davomida shakllanadi. Talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishni kasbdagi shaxsni shakllantirish jarayoni sifatida ko‘rib chiqadigan V.A.Adolf o‘zining dissertatsiya tadqiqotida “Kasbiy kompetensiya - bu talabaning shaxsiy sifati, u yuqori darajadagi nazariy va amaliy, uslubiy, psixologik, pedagogik, uslubiy tayyorgarlikni o‘z ichiga oladi” deb, uning eng to‘liq ta’rifini beradi [27, b. 96].

Kasbiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, u kompetensiyaning quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib turadi: motivatsion, maqsadni belgilash, shaxsiy va mazmun-tezkor.

Talabalarning kasbiy kompetensiyasi, olimning fikriga ko‘ra, “kasbiy muammolarni ongli ravishda hal qilish va talaba -novatorning kasbiy rivojlanish sharti”ni ta’minlash vositasidir [26, b.97].

A.K.Markova kasbiy pedagogik kompetensiyani talaba shaxsiyatining kasbiy faoliyatning yuqori natijasini ta’minlovchi xususiyati sifatida belgilaydi [230]. Muallif kasbiy kompetentlikning bir nechta turlarini ajratib ko‘rsatgan:

maxsus - kasbiy faoliyatni yuqori darajada egallash;

ijtimoiy - kasbiy muloqot, hamkorlik usullarini o‘zlashtirish;

shaxsiy - o‘zini namoyon qilish va o‘zini rivojlantirish yo‘llariga egalik qilish;

individual - kasb-hunar doirasida o‘zini anglash va individual rivojlanish yo‘llariga egalik qilish, kasbiy va shaxsiy o‘sishga tayyorlik.

Muallif ushbu kompetensiya turlari talabalarning o‘zlari tomonidan ham, tashqi ta’sirlarning ta’siri, xususan uzluksiz ta’limning maxsus tashkil etilgan jarayoni orqali yaxshilanishiga yordam beradi, deb hisoblaydi.

Bizningcha “kasbiy kompetensiya” tushunchasining mohiyatini aniqlash uchun quyidagi yondashuvlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

-shaxsiy-faoliyat yondashuvi, uning doirasida talabaning kasbiy ko‘nikmasi va shaxsiyati bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi. Kasb bo‘yicha talabani innovatsion faoliyatga ko‘nikmalarning shakllantirish boshqa guruhdoshlari bilan o‘zaro aloqani o‘z ichiga olgan o‘quv faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari orqali amalga oshiriladi;

-funksional-faoliyat yondashuvi, bunda kompetensiya innovatsion faoliyatni amalga oshirishga, kasbiy funksiyalarni bajarishga nazariy va amaliy tayyorlikning birligi sifatida qaraladi;

-kasbiy kompetentlikni, bir tomondan, universal yondashuv bilan ikkinchi tomondan mutaxassisning asosiy malakalari bog‘laydigan, talabaga turli

masalalarda harakat qilish imkoniyatini beradi, bu esa shaxsning ijtimoiy va professional harakatchanligini, ochiqligini ta’minlaydi ijodiy izlanishga, o‘zini namoyon qilish qobiliyatiga, o‘zini o‘zi yangidan yaratishga, o‘z-o‘ziga mustaqil ta’lim va tarbiya berishga, shu bilan birga innovatsion faoliyatga tayyorlash imkon yaratadi.

Shunday qilib, talabalarning innovatsion kompetensiyasi deganda, uning ahamiyatini anglab, professional va ijtimoiy sohada muvaffaqiyatli ijodiy faoliyat uchun o‘z salohiyatini (bilim, ko‘nikma, tajriba, shaxsiy fazilatlar va boshqalarni) amalga oshirish uchun amalda ko‘rsatilgan istak va qobiliyat (tayyorlik) tushuniladi, ushbu innovatsion faoliyat natijalari talabalarda shaxsiy javobgarlik, uni doimiy ravishda takomillashtirish zaruratini taqozo etadi [134].

Innovatsiya nazariy jihatdan, ongli faoliyat asosida bo‘lishi zarurligi sababli, innovatsion kompetensiya elementlarini faoliyatning ayrim izchil elementlarining asosi sifatida quyidagicha ko‘rib chiqish mumkin:

ehtiyojni anglash;

motivni shakllantirish;

innovatsion faoliyatni amalga oshirish usulini tanlash;

tadbirlarni rejalashtirish;

talab qilinadigan elementar harakatlar ro‘yxatini tahlil qilish va maqsadga erishish uchun harakatlarni amalga oshirish.

Ehtiyojni qondirish usulini tanlashda faoliyat sub’ekti uning qiymat yo‘nalishlari va ijtimoiy g‘oyalariga tayanadi. Faoliyatni rejalashtirish uchun talabao‘zi tanlagan kasbiy faoliyatni amalga oshiradigan qonunlarni va bu holda sodir bo‘ladigan jarayonlarni bilishi kerak.

Amallarni bajarishda esa ma’lum bir innovatsion maqsadga erishish uchun operatsiyalarni ongli ravishda tanlash imkoniyatini va ushbu harakatni to‘g‘ri amalga oshirishni aniqlaydigan bilimlar majmuisiz bo‘lishi lozim. Innovatsion faoliyat amaliyotni bajarish uchun talabaga ma’lum mahorat kerak. SHuning uchun, ushbu nuqtai nazardan, har qanday innovatsion kompetensiyaning majburiy elementlari quyidagicha ifodalash mumkin:

1)innovatsion faoliyat uchun ijobiy motivatsiya;

2)innovatsion faoliyat mazmuni va natijasiga qiymat-semantik munosabatlar;

3) tegishli innovatson faoliyatni amalga oshirish yo‘lini tanlash asosida bilim;

4)mavjud bilimlar asosida innovatsion faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va ko‘nikmalar.

Tadqiqotimizda belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda biz aniqlagan yondashuvlarni tahlil qilish asosida quyidagi xulosalar asosida ilmiy ta’riflarni shakllantirdik:

talabalarning innovatsion kompetensiyasi – bu talabalarning innovatson faoliyatga tayyorgarligini shaxsiy, nazariy va amaliy jihatdan aks ettiradigan, doimiy ravishda yangilanib turadigan, kasbiy muhitda muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatida ifodalanadigan, uning innovatsion faoliyati sifatini belgilaydigan ajralmas kasbiy va shaxsiy tavsifnomasidir.

Talabalarning innovatsion faoliyatga yo‘naltirish va kasbiy rivojlanishi haqida so‘z ketganda, uning kelib chiqishi “shakllanish”, “shaxsni shakllantirish” tushunchalarida ekanligini ta’kidlash kerak. Ilm-fanda “bo‘lish” tushunchasini aniqlash muammosi mavjud. Ko‘pchilik olimlar “bo‘lish” va “rivojlanish” tushunchalarini aniqlaydilar yoki qisman boshqasining aksini topishga harakat qiladilar.

Shu bilan birga, falsafada shaxsni shakllantirish muammosi inson mohiyati masalasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Zamonaviy faylasuflarning asarlarida shaxsning individual rivojlanishi quyidagi jarayonlarni o‘z ichiga oladi:

Ijtimoiylashuv – ijtimoiy tajribani rivojlantirish; individualizatsiya – tabiiy moyillik, ijtimoiy sharoit va madaniyatning o‘zaro ta’siri orqali bir kishining boshqasidan o‘ziga xos xususiyatlarini shakllantirish; shaxsiylashtirish – shaxsning shakllanishi [163]. Bo‘lish, shuningdek, yuqoridagi uchta jarayonni ham o‘z ichiga oladi.

Ekzistensializm falsafasida inson hayotning ma’nosini topish, egallash, murakkab dunyodagi inson rolini topish, hayot yo‘lini tanlash jarayonida muammolarni hal qilish jarayonida “bo‘ladi” [201, p.371]. Falsafaning ushbu yo‘nalishi vakili J.-P.Sartrning fikriga ko‘ra, inson o‘zini o‘zi belgilash va hayot strategiyasini amalga oshirish jarayonida o‘zi uchun to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga olganda shaxsga aylanadi [402, b. 108-137]. E.Frommning falsafiy konsepsiyasiga muvofiq, shaxsning shakllanish jarayoni jamiyatdagi shaxsning o‘zini o‘zi belgilashi bilan bog‘liq (shaxsning shakllanishi, o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida sodir bo‘ladi), faoliyatida va boshqa shaxslar bilan muloqotda [394].

V.I.Slobodchikovaning tadqiqotlarida shakllanish jarayoni rivojlanish jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Olimning ta’kidlashicha, “rivojlanish” kategoriyasi bir vaqtning o‘zida kamida uchta jarayonni saqlaydi: shakllanish, rivojlanish, transformatsiya [343].

Rivojlanishning o‘zi nima? Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o‘tish, yangilanish, yangining paydo bo‘lishi, eskining yo‘qolib borishi, miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishiga o‘tishini ifodalaydi. Rivojlanishning manbayi qarama-qarshiliklarning o‘rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson iitimoiy maviudotdir degan falsafiy ta’limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir.Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologikvaiitimoiv qonuniyatlar birgalikda ta’sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi.

Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta’sir etadi.

Inson butun umri davomida o‘zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga etadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq

bo‘lsa, u jamiyat a’zosi sifatida kamol to‘ib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘ziga munosib o‘rin esallaydi.Chunki rivojlanish tarbiya ta’siri ostida boradi.

Shaxsning fazilatlarini to‘g‘ri ko‘rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Bo‘lish - bu “bir aniq holatdan ikkinchisiga o‘tish - yuqori daraja; allaqachon amalga oshirilgan va potensial mumkin bo‘lgan birlik”. Shakllanish - yaratilish (“shaklni olish”) va takomillashtirish; rivojlanish maqsadi va natijasi birligi - asosan ijtimoiy-madaniy tuzilmalarga taalluqlidir.

Islohot – o‘z-o‘zini rivojlantirish va asosiy hayot vektorining o‘zgarishi, tub o‘zgarish asosan ma’naviy va amaliy tuzilmalarga taalluqlidir [342, b. 22]. Insonning shakllanishi jarayonining antropologik ma’nosi, olimning fikriga ko‘ra, uning sub’ektivligini shakllantirishda yotadi. Bizningcha, nafaqat innovatsion faoliyatni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, balki “uning asoslari va vositalarini me’yoriy tarkibida to‘liq aks ettira oladigan”masalaga e’tibor qaratish lozim [342, b.28-29].

V.P.Zinchenko talabalarda innovatsion faoliyatga yo‘naltirishda talaba shaxsni shakllantirishni uning ma’naviy, ijodiy va ijtimoiy mohiyatini anglash bilan bog‘laydi. Zamonaviy pedagogikaning vazifasi, olimning fikriga ko‘ra, “talabaga o‘zini o‘zi hurmat qilishga yordam berish” [138].

Tizimli fikrlash metodologiyasining vakili S.V.Popov “rivojlanish” atamasi “rivojlantirish”dan ko‘ra samaraliroq deb hisoblaydi. Vaziyat o‘zgarishi bilan o‘zini namoyon qiladigan bo‘lish jarayoni tabiiy jarayonlar va sun’iy ta’sirlardan kelib chiqadi: “bo‘lish tarixiy doirada birgalikda tashkil etilgan jarayonning tabiiy va sun’iy tarkibiy qismlarining kombinatsiyasini o‘z ichiga oladi” [300, b. 4].

Tabiiy jarayonlar mavjud sharoitlarni, vaziyatlarni, osonlashtiruvchi va to‘sqinlik qiluvchi omillarni o‘z ichiga oladi. Sun’iy jarayonlar sun’iy ta’sir sub’ektlari (o‘zgartiruvchilar) tomonidan o‘rnatiladi. O‘zgartiruvchilar mavjud vaziyatni yaxlit holga keltirishni ko‘radi, ushbu vaziyatni shakllantirish

maqsadlari bor, ushbu vaziyatni o‘zgartirish loyihasi maqsadlar va loyihaga muvofiq ravishda ta’sir o‘tkazadi.

Konverterning ta’siri normalarni kiritish orqali namoyon bo‘ladi. Butunlikka ta’sir qilish mexanizmi - o‘z g‘oyalarini va boshqa odamlarning g‘oyalarini o‘zgartirish. Qoida tariqasida, shakllanish jarayoniga bir vaqtning o‘zida bir nechta transformatorlar, shuningdek, hodisalarning tabiiy jarayoni (qonuniyatlari) ta’sir qiladi, shuning uchun konvertatsiya mahsuloti ma’lum bir sub’ektning shakllanishi haqidagi g‘oyalariga to‘liq mos kelmaydi. O‘zgartiruvchi tizimda ishlaydi, har bir qadamda tizim o‘zgaradi (individual va jamoaviy sub’ektlarning harakatlari orqali) va u o‘zi ham o‘zgaradi. Turli xil tabiat omillari ta’sirida o‘zgartiruvchi yangi bilimlar, g‘oyalar, qadriyatlarni egallaydi.

Demak, bizning tadqiqotlarimiz uchun bu shuni anglatadiki, bir tomondan, agar talaba ta’lim amaliyotining transformatori vazifasini bajarsa, demak u o‘zini o‘zgartiradi (E.F.Zeerning fikriga ko‘ra, shaxsiy faolligi tufayli), talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayoniga “ijtimoiy ta’sirlar” orqali tashqi tomondan ta’sir o‘tkazish mumkin (E.F.Zeerning fikriga ko‘ra), masalan, tegishli ta’lim maydonini yaratib, o‘z ta’limida maqsadga muvofiq ravishda shug‘ullanish kabilar.

V.G.Maralov talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorgarligini rivojlanish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

o‘z-o‘zini anglash (o‘zini mutaxassis sifatida anglash);

o‘z-o‘zini bilish (kimligimni, qanday kasbiy fazilatlarga ega ekanligimni anglash);

o‘zini tasdiqlash (kasbiy fazilatlarimni aniqlash va tasdiqlash);

o‘z-o‘zini takomillashtirish (o‘z kasbiy mahorati, fazilatlari, qobiliyatlarini rivojlantirishni ongli ravishda boshqarish jarayoni);

o‘z-o‘zini anglash (u nimaga qodir bo‘lsa, shunday bo‘lish qobiliyati) [229].

E.F.Zeer innovatsion faoliyat shakllanishini “ijtimoiy ta’sirlar va o‘z faoliyati ta’sirida shaxsning maqsadga muvofiq ravishda progressiv ravishda o‘zgarib turadigan doimiy jarayoni” deb ta’riflaydi [133, b. 18]. Shaxsni

shakllantirish jarayoniga ta’sir qiluvchi tashqi omillar, muallifning fikriga ko‘ra, insonning atrof-muhitdagi faoliyati orqali atrofdagilar bilan o‘zaro aloqasi orqali shaxsning shakllanishini belgilaydigan yashash sharoitlari, tashqi ta’sirlardir.

Bizning nuqtai nazarimcha, talabalarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligiga va professional (kasbiy) shakllanishga, ichki va tashqi omillar ta’siri qiladi.

E.F.Zeerning ta’kidlashicha, kasbiy (professional) rivojlanish sohasidagi o‘z tadqiqotlarini sarhisob qilar ekan, kasbiy rivojlanish o‘quv-kasbiy va kasbiy faoliyatda bilim, ko‘nikma va malakalardan tashqari, “Professional jihatdan muhim shaxsiy fazilatlar” shakllanishini belgilaydi, masalan, bilimdonlik, maqsadni belgilash, amaliy va diagnostik fikrlash, sezgi, kuzatish, bashorat va tahlil qilish hamda fikr yurgizish. SHu sababli, muallifning fikriga ko‘ra, kasbiy rivojlanish bilan birga olib boriladigan mashg‘ulotlar ish faoliyati asosida qurilishi kerak.

E.F.Zeertalabalarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirishda kasbiy rivojlanishning quyidagi bosqichlarini belgilaydiki, bunda :

- talabalarda kasbiy niyatlarni shakllantirish – kasbni ongli tanlash;

- talabalar kasbiy tayyorgarligi– kasbiy bilim, qobiliyat va ko‘nikmalar tizimini o‘zlashtirish, ijtimoiy ahamiyatga ega va kasbiy muhim fazilatlarni shakllantirish;

-kasbiylashtirish – kasbga moslashish, kasbiy o‘zini o‘zi belgilash, kasbiy tajribani egallash, kasbiy faoliyatni malakali bajarish uchun zarur bo‘lgan shaxsiy xususiyatlar va fazilatlarni rivojlantirish;

-mahorat – kasbiy faoliyatni sifatli, ijodiy bajarish [133, 66–67].

Bizning tadqiqotlarimizda talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirishda ijtimoiy-psixologik texnologiyalarining o‘rganish sohasiga tegishlidir. SHu sababli ham bunda talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonlarini tadqiq etish muhim sanaladi. Bu xususida V.A.Adolf oliy ta’limi tizimida talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirishda “talabaning universitetgacha bo‘lgan tajribasidan boshlab, kasbiy savodxonlik va kasbiy tayyorgarlikka, ulardan ixtisoslikning kasbiy vakolatigacha, kasbiy vakolatdan to intellektual

(tushunadigan) kasb egasigacha” kabi yo‘nalishlaridan birini alohida ta’kidlaydi [26, b.113].

V.A.Adolf, insonning har qanday faoliyati muammolarni hal qilishni o‘z ichiga oladi, shuning uchun talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda uning turiga xos bo‘lgan muammolarni hal qilish asosida mutaxassisning innovatsion rivojlanish darajasini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, mutaxassisning kasbiy rivojlanish ko‘rsatkichlari nafaqat natijani, balki butun “uzluksiz ta’limning turli bosqichlarida mutaxassis bo‘lish jarayoni” ni baholash uchun ishlatilishi kerak [26, b. 88]. Bu shuni anglatadiki, ta’lim va kasbiy vazifalar uzluksiz ta’limning har qanday bosqichida bajarishga qulay bo‘lishi kerak. Muallifning fikriga ko‘ra, bilim, ko‘nikma (mavzu, umumiy didaktik, psixologik, uslubiy)lar, “talabaning innovatsion kompetensiyasining yadrosi va tarkibiy qismlari” hisoblanadi. Ular innovatsion muhitni modellashtirishga qaratilgan “kasbiy va texnologik tarkib vazifalariga nisbatan harakat uslubining orientatsion asoslari darajasida qurilgan vazifalar tipologiyasi funksionaldir, talabaning kasbiy rivojlanishini boshqarish tizimi, shu jumladan turli xil darajadagi vazifalar va maqsadlarni tanlashda kasbiy yo‘nalishni shakllantirishni ta’minlash, mashg‘ulot turini belgilash va shu sababli ta’lim faoliyati turini, o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanish, talabalarning hatti-harakatlarini modellashtirish va talaba shaxsining kasbiy ahamiyatga ega tuzilmalarini rivojlantirish” kabi muammoli kasbiy vazifalarni hal qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi [26, b.137].

Agarda, innovatsiyaviy faoliyatga yo‘naltirish uchun ularni modellashtirish, qiyosiy tahlillarni amalga oshirishga o‘rgatsak, yangilikka bo‘lgan qiziqishlarini o‘stirsak ularning faoliyatining samaradorligi ta’minlanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy–pedagogik tayyorlash sifatini tubdan oshirish uning mazmuni bilan bevosita bog‘liqdir. Pedagogik kadrlar tayyorgarligi sifatini sezilarli darajada oshirish uchun pedagogik va texnik bilimlar sintezini ta’minlash zarur. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirish pedagogik va texnik bilimlarni fan, ta’lim, texnika, texnologiya va ishlab chiqarish iqtisodiyoti sohalaridagi o‘zgarishlarga asoslangan integratsiyasi ta’lim jarayonining

samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayon bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash mazmunini asoslash va kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasini yaratishda muayyan o‘zgarishlarni amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish muammosini o‘rganish ishiga bir qator ilmiy ishlar bag‘ishlangan. Biroq bu muammoning turli jihatlari va aspektlariga olimlarning qiziqishlari kamaymayapti, bu esa uzluksiz ta’lim tizimini modernizatsiyalash va rivojlantirishning hozirgi zamon bosqichida alohida ahamiyatga egaligidan va uning dolzarbligidan guvohlik beradi.

Shu o‘rinda “kompetentlik” so‘ziga izoh berib o‘tsak.

Kompetentlik- lotincha Competens-tegishli, layoqatli ma’nosini anglatadi. U malakani tavsiflovchi sof kasbiy bilim va layoqatni o‘z ichiga olishdan tashqari, yana sifat, tashabbus, hamkorlik, guruhda ishlay bilish qobiliyati, kommunikativ uquv, ta’lim olish, baholash, mantiqiy va tanqidiy fikrlash, axborotni tanlash va foydalanish layoqatlari kabi sifatlarni ham o‘zida mujassamlashtiradi.

Pedagogikada “kompetentlik” – o‘quvchining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularning kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi bilan ifodalanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy kompetentligini shakllantirish, ta’lim muassasalarida ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta’minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, o‘qituvchilarni tayyorlash mazmuni va tuzilmasini modernizatsiyalash, psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash hamda uning sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmini ishlab chiqish orqali mutaxassis kompetentligini shakllantirishning asosiy maqsadini belgilaydi.

Ta’lim jarayonini takomillashtirishning muhim omili pedagogika kolleji o‘quvchilarining kasbiy kompetentligini yuqori darajada shakllantirilishi bilan uzviy bog‘liq. Shu sababli, zamonaviy ta’lim texnologiyalari imkoniyatlaridan hamda yaratilayotgan o‘quv uslubiy majmualardan unumli foydalanish negizida

o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish dolzarb vazifalardan biri ekanligini belgilaydi.

Shu munosabat bilan o‘qituvchilarni oliy ta’lim muassasasida tayyorlash davridan talab qilinadigan kasbiy kompetentlik darajasini ta’minlaydigan yangicha yondashuvlarni ilmiy asoslash dolzarb vazifa bo‘lib kelmoqda.

Mutaxassislarni kasbiy jihatdan tayyorlash borasida xorijiy mamlakatlarda amalda bo‘lgan ta’lim mazmunini bevosita o‘rganishi shuni ko‘rsatdiki, G‘arb mamlakatlarida asosiy o‘rinni mutaxassisning kompetentlik malaka darajasi egallaydi. Respublikamizning milliy ta’lim tizimi mohiyatiga ko‘ra ta’lim mazmunining minimal talablari bilim, ko‘nikma va malakaga asoslanadi.

Agarda «kompetent» va «kompetentlik» tushunchalarining etimologik tahliliga nazar tashlasak, ular tasodifan yuzaga kelmaganligini anglash mumkin.

Kompetentlik talaba tomonidan alohida bilim va malakalarni egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi.

Bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo‘yiluvchi talablar nuqtai nazaridan kompetentlik talabalarning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat usullari to‘plamini maqsadga muvofiq qo‘llash qobiliyatini anglatadi.

Kompetentlik – bu talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi bilan ifodalanadi. Mazkur o‘rinda «kompetentlik» tushunchasining mohiyati ham to‘la ochiladi, u quyidagi ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: kompetentlik talabalarning shaxsiy sifatlari to‘plami hamda kasbiy sohaning tayanch talablari sifatida.

Ta’lim mazmunining o‘quv rejadagi fanlar bloklari (barcha fanlar uchun), fanlararo (fanlar to‘plami uchun) va predmetli (ma’lum bir fan uchun) tarzda guruhlanganligi bois quyidagi uch darajani namoyon etuvchi kompetentlikni e’tirof etib o‘tamiz:

– tayanch kompetentlik (ta’limning gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga ko‘ra);

– fanlararo kompetentlik (umumkasbiy tayyorgarlikning o‘quv fanlari va ta’lim bloklarining ma’lum doirligiga ko‘ra);

– bitta predmet(fan) bo‘yicha kompetentligi (maxsus o‘quv fani doirasida aniq va ma’lum imkoniyatga egaligiga ko‘ra).

Shunday qilib, tayanch kompetentlik pedagogik ta’limning har bir bosqichi uchun ta’lim bloklari va o‘quv fanlari darajasida aniqlanadi. Tayanch kompetentlik tartibini belgilashda kasbiy pedagogik ta’limning asosiy maqsadlariga muvofiq ijtimoiy va shaxsiy tajribaning mohiyati, ijtimoiy jamiyatda kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida hayotiy ko‘nikmalarni egallashga imkon beruvchi asosiy turlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nuqtai nazardan ular quyidagi kompetentlik turlariga bo‘linadi:[1]

1. **Yaxlit-mazmunli kompetentlik.** Bu o‘quvchining qadriyatli yo‘nalishlari bilan bog‘liq, uning ijtimoiy borliqni his eta bilishi va tushunish qobiliyati, mustaqil hayot yo‘lini topa olishi, o‘zining ijtimoiy jamiyatdagi roli va o‘rnini anglab etishi, harakatlarni tashkil etishda aniq maqsadni belgilash hamda qaror qabul qilish malakasi, dunyoqarashi bilan bog‘liq kompetentlik, u talaba uchun o‘quv va boshqa vaziyatlarda o‘zini aniqlash mexanizmini ta’minlaydi. Talabaning individual ta’lim yo‘nalishi va uning hayotiy faoliyatining umumiy dasturi ana shu kompetent-likka bog‘liq.

2. **Ijtimoiy-madaniy kompetentlik**. O‘quvchi chuqur o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan bilim va faoliyat tajribasining doirasi bo‘lib, milliy va umuminsoniy madaniyatlar xususiyatlari, inson va insoniyat hayotining ma’naviy-axloqiy asoslari, oilaviy va ijtimoiy an’analarning madaniy asoslari, inson hayotida fan va dinning roli, ularning moddiy borliqqa ta’siri, turmush va dam olish borasidagi bilimlar, masalan, bo‘sh vaqtni samarali tashkil etish usullarini bilishi.

3. **O‘quv-bilish kompetentligi**, bu talabaning o‘rganilayotgan aniq ob’ektlar bilan bog‘liq mantiqiy, metodologik va ijtimoiy faoliyati elementlaridan iborat

[1]Козырева О.А. Компетентность современного учителя: современная проблема определения понятия. //Стандарты и мониторинг в образовании.–2004.– № 2. – с.48-51.

bo‘lgan mustaqil fikrlash kompetentliklarining to‘plami bo‘lib, unga maqsadni ko‘ra bilish, faoliyatni rejalashtirish, uning mazmunini tahlil qilish, refleksiya, faoliyatga shaxsiy baho berish borasidagi bilim va malakalar kiradi. O‘rganilayotgan ob’ektlarga nisbatan talaba-larni kreativ ko‘nikmalari, ya’ni bilimlarni bevosita borliqdan olish, nostandart vaziyatlarda muammoni hal etishning harakat usullari va evristik metodlarini egallaydi.

4. **Axborot olish kompetentligi.** Audio-video ko‘rsatuv vositalari va axborot texnologiyalari yordamida mustaqil izlanish, tahlil qilish va zarur axborotlarni tanlab olish, ularni o‘zgartirish, saqlash va uzatish mahorati shakllantiriladi. Ushbu kompetentlik talabaning o‘quv fanlari asoslarini muhim axborotlar asosida o‘zlashtirishini ta’minlaydi.

5. **Kommunikativ kompetentlik.** Ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro munosabatlar, ularning usullari, muloqot jarayonida ustuvor o‘rin tutuvchi tilni o‘zlashtirish, guruhlarda ishlash ko‘nikmalari, jamoada turli xil manaviy-marifiy tadbirlarni tashkil qilish va o‘tkazishni bilishni o‘z ichiga oladi.

6. **Ijtimoiy-faoliyatli kompetentlik.** Fuqarolik (fuqaro, kuzatuvchi, saylovchi, vakil vazifasini bajaruvchi), ijtimoiy-mehnat sohasi (iste’molchi, haridor, mijoz, ishlab chiqaruvchi huquqlari), oilaviy munosabatlar va majburiyatlar, iqtisod va huquq masalalari, kasbiy, shuningdek, shaxsiy mavqeini aniqlash borasidagi bilim va tajribalarni egallash(xususan, mehnat bozoridagi mavjud vaziyatni tahlil qilish, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni ko‘zlab, harakat qilish mahorati, mehnat hamda fuqarolik munosabatlarining odobini bilish)ni anglatadi.

7. **Amaliy faoliyatga oid kompetentlik**da bir harakat holatidan ikkinchi harakat holatiga ko‘chira olish, harakat va amallarni yangi vaziyatlarda qo‘llay olish, yangi axborotlar ichida tez yo‘nalish olish ko‘nikmalari tushuniladi.

Mutaxassisni tayyorlashning bo‘lajak kasbni egallash bo‘yicha o‘quv va bilish faoliyatini o‘z ichiga oladigan me’yoriy modelini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Jumladan, bitiruvchi, yuqori nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini ta’minlaydigan zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanishi, ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etishi, ularni o‘quv rejasi va o‘quv jarayoniga muvofiq ravishda to‘la hajmda amalga oshirilishi uchun mas’ul bo‘lishi, ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat etishni tashkil etishi, olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llashga ularni tayyorlashi va ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlarini nazorat qilishi, aniq o‘quv fani o‘quv-metodik jihozlanishining bazasini yaratishi; ta’lim muassasasining ilmiy-metodik faoliyatida ishtirok etishi, sinf rahbari vazifasini bajarishi, ta’lim oluvchilar bilan tarbiyaviy ishni tashkil etishi va o‘tkazishi, o‘quv rejalari va dasturlarining bajarilishini ta’minlashi, ta’lim intizomini ta’minlashi, ta’lim oluvchilarning huquqlari va erkinliklariga rioya etishi, o‘z kasbiy malakasini oshirishi lozim.

Mutaxassisning malakaviy tavsifida, talim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarni tayyorlash mazmuni asosan bo‘lajak o‘qituvchi bilimining faoliyatli-ijodiy aspekti bilan ifodalangan va u o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limining kasbiy vazifalarini yaxlit hal etish tajribasini nazarda tutadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarini kasbiy kompetentligini shakllantirishda talabalarning pedagogik hamda ishlab chiqarish muammoli vaziyatlarida aniq qaror qabul qila olish qobiliyatlarini rivojlantirish, ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi fanlar bo‘yicha axborotlar olish imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun fanlararo o‘zaro aloqadorlikka erishish asosida muammoli vaziyatli topshiriqlarni ishlab chiqish uni tizimlashtirish, pedagog kadrlar tayyorlash tizimi sifatini oshirishda ta’limning yangi shakllaridan foydalanish, fundamental, xususan, pedagogik va texnik bilimlarni o‘zlashtirishda fanlararo uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash, pedagogik fanlarning gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy, matematika va tabiiy fanlar hamda umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bilan o‘zaro aloqasi ko‘p qirrali muammo bo‘lganligi sababli nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy asoslashni taqozo etadi.

II BOB. TALABALARNI INNOVATSION FAOLIYATGA YO‘NALTIRISH METODOLOGIYASI

2.1. Talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirishning psixologik modeli

Bizning tadqiqotimizda yuqorida ta’kidlab o‘tilganlar, talabalarning kasbiy rivojlanishi texnologiyasida quyidagi shartli bosqichlarni ajratish mumkinligini anglatadi:

-tushunchalar va ma’nolarni qurish asosida bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish;

-innovatsion ta’lim muhitini modellashtirish asosida kasbiy muammolarni hal qilish;

-faoliyatni loyihalash, individual ta’lim vazifalari va ularni amalga oshirish dasturlari asosida kasbiy harakatning o‘z traektoriyasini yaratish.

V.V.Ignatova ta’lim jarayonida talaba shaxsni shakllantirish jarayonining psixologik mohiyatini “shaxsda potensialning to‘planishi va namoyon bo‘lishining uzluksiz jarayoni sifatida belgilaydi. SHaxsni shakllantirish yo‘li, tadqiqotchi olimning fikriga ko‘ra, “tarbiya, o‘qitish, ta’lim, mustaqil o‘qish, pedagogik qo‘llab-quvvatlash, hamrohlik qilish, tuzatish, rivojlanishni umumlashtirish” bilan ta’minlanadi [306, b.31].

Biz uchun bu shuni anglatadiki, kasbiy rivojlanish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar ta’kidlangan va ular innovatsion faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlariga o‘tkazilishi kerak. Bunda tarbiyalash, o‘qitish, ta’lim, o‘qituvchining yordami, talabaga innovatsion faoliyatda hamrohlik qilish kabi jihatlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Soha amaliyotini innovatsion tashkil etish sharoitida talabalarning kasbiy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini S.P.Shulyaev o‘z asarida ko‘rib chiqib[419], talabaning kasbiy kompetensiyasini o‘zgartirish oliy ta’limdagi innovatsion o‘zgartirishlar jarayoni bilan parallel ravishda amalga oshirilishi kerakligi haqidagi “yo‘lda o‘rganing”, “harakatda o‘rganing” tezisini asoslab berdi.

Bizning fikrimizcha, bu to‘g‘ri qaror, negaki, avval talabalarni tayyorlamasdan, innovatsion texnologiyalarni joriy etish mumkin emas, chunki innovatsion amaliyot har doim rivojlanib, o‘zgarib boradi va kasbiy rivojlanish jarayoni unga parallel ravishda rivojlanadi.

V.A.Adolf, V.I.Ignatova, V.I.Slobodchikov, E.F.Zeer, E.A.Klimov, L.M.Mitinalarning tadqiqotlari asosida, biz quyidagi mualliflik ta’rifni keltirmoqchimiz: talabaning kasbiy rivojlanishi – bu tashqi ta’sirlar, kasbiy faoliyat va talabaning o‘z kuchi ta’sirida uning kasbiy ahamiyatga ega sifatlarini takomillashtirishning doimiy jarayonidir.

S.V.Popovdan ushbu jarayon tabiiy o‘z-o‘zidan va sun’iy komponentlarini o‘z ichiga olganini ko‘rsatib, tabiiy-o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan komponent – bu, voqealarning bevosita yo‘nalishi sifatida sodir bo‘ladigan barcha narsadir, sun’iy komponent esa sub’ektlarning maqsadli faoliyati bilan belgilanadi.

Oldingi paragrafda biz “innovatsion faoliyat” tushunchasini ta’lim sifatini oshirish va jamiyatning dinamik rivojlanishini ta’minlash maqsadida turli darajadagi (oliy ta’lim, shahar, mintaqaviy) ta’lim tizimlariga yangiliklarni (yangi qarashlarni) maqsadga muvofiq ravishda kiritish deb ta’kidladik.

“Kasbiy kompetentlik”, “kasbiy shakllanish” va “innovatsion faoliyat” tushunchalarining mohiyatiga asoslanib, biz “talabaning innovatsion vakolati” tushunchasini belgilaymiz.

Talabalarning innovatsion kompetentligi uning kasbiy kompetentligining bir qismi hisoblanadi. Talabalarning innovatsion kompetentligini shakllanishi – bu tabiiy-sun’iy xususiyatga ega va tashqi omillar ta’sirida amalga oshiriladigan, oliy ta’lim tizimga yangiliklarni maqsadli ravishda kiritish uchun talabaning shaxsiy, nazariy va amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning doimiy jarayonidir.

Talabaning innovatsion kompetentligi talabaning o‘ziga biriktirilgan vazifalariga muvofiq ravishda innovatsion faoliyatni sifatli amalga oshira olishida namoyon bo‘ladi.

Talabaning innovatsion kompetentligini shakllantirishni ta’minlashning dolzarbligi mintaqaviy darajada innovatsion qobiliyatlarni tashuvchilarni

shakllantirish, ta’lim muassasalari darajasida olib borilayotgan innovatsion faoliyatni davlat va mintaqaviy ta’lim siyosatiga muvofiqlashtirish zarurati bilan bog‘liq.

Yuqoridagi ta’riflarga asoslanib, biz innovatsion kompetentlik tarkibini o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi motivatsion-qiymat, mazmun-operatsion, tadqiqot-refleksiv komponentlari to‘plami orqali ifodalash mumkin.

Innovatsion komponentning motivatsion-qadriyat komponenti haqida fikr bildirganda, uning tarkibiy qismlariga e’tibor qaratish lozim. Psixologiyada motivatsiya inson hayotining murakkab ko‘p darajali regulyatori - uning xulq-atvori va faoliyati sifatida qaraladi. Motivatsiya ehtiyojlar, sabablar, qiziqishlar, ideallar, intilishlar, munosabat, hissiyotlar, me’yorlar va boshqalarni o‘z ichiga olgan murakkab, har xil turdagi turtki beruvchi tizim sifatida qaraladi.

Motivning talqini ushbu tushunchani yoki ehtiyoj bilan (A.Maslou), yoki ehtiyoj tajribasi va uning qondirilishi bilan (S.L.Rubinshteyn) yoki ehtiyoj ob’ekti bilan o‘zaro bog‘liqdir. A.N.Leont’evning faoliyat nazariyasi kontekstida, “motiv” atamasi “ehtiyoj tajribasini belgilash uchun emas, balki ushbu ehtiyoj mazkur sharoitda konkretlashtirilgan maqsad va uni rag‘batlantirish uchun faoliyat nimaga yo‘naltirilganligi ma’nosi sifatida ishlatiladi” [222, b.38].

Motivlarning barcha turlari orasida eng muhimi, bizning fikrimizcha, ichki, ya’ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yangilik, ya’ni innovatsiya va uning jarayoni bilan bog‘liq bo‘lganlari hisoblanadi.

Innovatsion faoliyat yangi me’yorlarni, munosabatlar turlarini, qadriyatlarni joriy etishni ko‘zda tutadi. Me’yorlar va qadriyatlar ijtimoiy hayotga hodisa sifatida kiritiladi: ularga da’vat qilinmaydi, balki talabalarning o‘quv faoliyatini ularga mos ravishda tashkil etilishi kerak. Sub’ektning qadriyatlari uning manfaatlari, o‘zi uchun ahamiyatli bo‘lgan ob’ektlar haqidagi umumlashtirilgan barqaror tasavvurlaridir. Inson har doim o‘z qadriyatlaridan kelib chiqib harakat qiladi. Aksiologik asoslar sub’ektning ichki ma’naviy dunyosiga tegishli, ammo faoliyatda, uning boshqalar bilan bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladi.

Innovatsion kompetentlikni tarkibiy qismini shakllantirishda bir tomondan, talabalarning innovatsion faoliyat yo‘naltirishni amalga oshirish ulardagi mavjud istak va ehtiyoji bilan, boshqa tomondan, yangiliklarga nisbatan namoyon bo‘ladigan va yashirin qarshilikning yo‘qligi bilan izohlash mumkin. Maqsadni belgilashda motivlar va qadriyatlar yotadi.

Innovatsion kompetentlikning tarkibiy-tashkiliy komponentining tarkibi haqida gapirganda, biz V.I.Slobodchikov faoliyatining me’yoriy tuzilmasiga tayanamiz. V.I.Slobodchikovning fikricha, faoliyat murakkab sub’ektiv-ob’ektiv tuzilishga ega bo‘lib, uning “sodda bazasini” manba, imkoniyat, harakat, shart-sharoit va maqsad tashkil etadi [342, b. 3].

Faoliyat toifalarining turli darajalarida ushbu komponentlarning turlicha birlashish holatlarida, ta’lim jarayoniga yangiliklarni kiritishga imkon beradigan usul va uslublar, vosita, metodlar, usulubiyot va texnologiyalar shaklida namoyon bo‘lishi mumkin.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, innovatsion faoliyat past darajasidan yuqori toifasiga qarab rivojlanib boradi. Shuning uchun ideal holda, har bir faoliyat, shu jumladan innovatsion faoliyat texnologiklik darajasiga etkazilishi kerak. Bu o‘tgan asrning 80-90-yillarida Krasnoyarsk o‘lkasida innovatsion amaliyotda kollektiv o‘quv mashg‘ulotlari uchun texnologiyalarni loyihalashtirish (V.K.Dyachenko, M.A.Mkrtchyan), o‘qitishning dialektik usuli (A.I.Goncharuk, L.Zorin), rivojlantiriuvchi ta’lim (D.B.Elkonin, V.V.Davidov) ko‘rinishida namoyon bo‘ldi.

Fikrimizcha, texnologiyalarni mukammallashtirish mualliflarning metodlari bilan taqqoslaganda, sub’ektiv tarkibiy qism yo‘qligida va shunga muvofiq, har qanday talaba tomonidan, agar u innovatsion vakolatning motivatsion-qiymatini shakllantirgan bo‘lsa, amalda texnologiyalarni amalga oshirishi mumkin.

Innovatsion kompetentlikning tadqiqot-refleksiv komponenti talaba tomonidan o‘z faoliyatining innovatsion jihatlari va refleksiyasini tadqiq qilishini nazar tutadi.

Refleksiya innovatsion faoliyatni amalga oshirish usullarini ob’ektivlashtirishga qaratilgan bo‘lib, yutuqlar va muammolarni kashf etishga,

biron bir narsada nima uchun ishlayotganini yoki ishlamayotganligini tushunishga imkon beradi, ya’ni yutuqlar va muammolarning sabablarini topishi kerak.

Talabaning innovatsion kompetentligi komponentlarining o‘zaro bog‘liqligi va bir-birini to‘ldirishi biz tomonimizdan innovatsion faoliyatini rivojlantirish modelida namoyon bo‘ladi. Talabaning innovatsion faoliyatini rivojlantirishning uslubiy yondashuvlarini asoslab ko‘rsatamiz.

Bizning tadqiqotimizda tizimli yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqligi va ushbu yondashuv hayotiy ta’limning mintaqaviy makonini o‘z ichiga olgan ijtimoiy tizimlarni o‘rganish orqali samarali bo‘lishi bilan asoslanadi.

Ma’lumki, tizimli yondashuvining asosiy tamoyillari yaxlitlik va o‘zgaruvchanlikdir. Yaxlitlik tamoyilining mohiyati shundan iboratki, yaxlitlik xususiyatlari unga bog‘liq bo‘lsa-da, uning tarkibiy elementlari xossalari yig‘indisiga kamaytirilmaydi.

Shunga muvofiq, talabaning innovatsion vakolatini rivojlantirishning mintaqaviy uzluksiz ta’lim sohasidagi jarayoni yaxlit bo‘lib, maqsadi, mazmuni, usullari, shakllari va vositalari uning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Variativlik tamoyili individual ta’lim dasturlari asosida uzluksiz ta’limning mintaqaviy makonida talabaning innovatsion vakolatini rivojlantirish jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi.

Sinergetik yondashuv o‘zini o‘zi tashkil etuvchi tizimlar nazariyasiga asoslanadi. Ushbu yondashuv kichik rezonansli ta’sirlar yordamida murakkab tizimlarni boshqarish bo‘yicha bilimlarni beradi.

I.R.Prigojinning nuqtai nazaridan, sinergetikada ijtimoiy ob’ektlarning shakllanishi bosqichlarning almashuvi sifatida taqdim etiladi. Bizning tadqiqotimizdagi sinergetik yondashuv talabaning innovatsion kompetentligi rivojlantirishning ko‘p o‘zgaruvchan usullarini loyihalash va dasturlashni belgilaydi.

Tizimli-fikr-faoliyat yondashuvi G.P.Щedrovitskiyning aqliy faoliyat sxemasiga asoslanadi va ob’ektlarni fikrlash va faoliyatni tashkil etish shakllari nuqtai nazaridan tahlil qilishga imkon beradi. Jamoaviy fikrlash va faoliyatni

tashkil etishning yangi shakllari ushbu yondashuvning ijtimoiy-amaliy timsoli sifatida namoyon bo‘ldi.

Kompetentlikka asoslangan yondashuvning mohiyati talabani innovatsion faoliyatiga tayyorlashda, muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini shakllantirishni o‘z ichiga oladi. A.G.Bermusning fikricha, kompetentli yondashuvdagi ta’lim mazmuni qadriyatlar munosabati tajribasi, bilim, ko‘nikma, ijodiy faoliyat tajribalarini o‘z ichiga olgan to‘rtkomponentli model sifatida tariflanadi [52]. Talabaning kasbiy kompetensiyasi tarkibida innovatsiyalarga tayyorlik mezonlari va ko‘rsatkichlarini, uzluksiz ta’limning mintaqaviy makonida talabaning innovatsion kompetentligini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqishda kompetensiyaga asoslangan yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Talabalarning innovatsion kompetentligini shakllantirish bo‘yicha yondashuvlarni ko‘rib chiqish quyidagi muammolarni ajratib olishga imkon berdi:

metodologik - talabaning innovatsion kompetentligini shakllantirish asoslarini belgilash;

pedagogik – talabaning innovatsion kompetentligini shakllantirish jarayonining maqsadlari va mazmunini rasmiylashtirish;

psixologik – talabalarning innovatsion faoliyatga motivatsion tayyorgarligi jarayonining xususiyatlarini yoritib berish;

faoliyatli – talabaning innovatsion kompetentligini shakllantirish jarayonini tashkil etish shakllari va vositalarini yaratish.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun talabalarning innovatsion faoliyatga tayyorligi mezonlarini aniqlash, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolari va xatarlari nuqtai nazaridan pedagogik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan talablarni aniqlash kerak.

Ta’lim sohasida milliy ustuvor loyihalarning amalga oshirilishi, biror bir ustuvor vazifalarning natijalari bo‘yicha boshqarish strategiyasi har-xil turdagi ta’lim dasturlari, o‘quv qo‘llanmalari va umumta’lim muassasalari asosida o‘zgaruvchan sharoitlarda talabalarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini

ta’minlaydi. Bundan tashqari, shuni tan olish kerakki, jamiyat rivojlanishining zamonaviy bosqichida kadrlarga bo‘lgan talablarning o‘zgarishi kuzatilmoqda. Agar, bir necha o‘n yillar oldin kadrlarning professionalligi muhim tavsifi bo‘lib o‘tiladigan fan, pedagogika va psixologiya doirasidagi aniq bilimlari va asosan reproduktiv xarakterga ega bo‘lgan professional ko‘nikma va malakalar sanalgan bo‘lsa, bugun esa tizimli dunyoqarash, innovatsion ko‘rinishda fikrlash va hulq-atvor, professional ijodkorlik dolzarb hisoblanmoqda. Shuning uchun ijtimoiy vaziyat, zamonaviy oliy ta’lim tizimi amaliyoti, umuman jamiyatda qadr-qimmat asoslarining o‘zgarishi bilan yuzaga kelishiga asoslangan kadrlar bilan ishlash strategiyasining qayta qurilishi va bu mutaxassislik hamjamiyati oldiga innovatsion faoliyatga shaylik ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish vazifasini ko‘ymoqda. Shu kabi vazifalar innovatsion ta’lim dasturlarini ishlab chiqayotgan va tatbiq qilayotgan jamoalar va ta’lim muassaslari oldiga vazifa sifatida qo‘yilmoqda.

Innovatsion monitoringni birinchi navbatda, xohlayotgan (kutilayotgan) natijaga uning mosligini aniqlash maqsadida, biron-bir jarayonni doimiy kuzatuvi deb belgilash mumkin.

A.N.Mayorovning ta’kidlashicha “innovatsion monitoring bu, - ta’lim tizimi yoki uning alohida elementlari haqidagi ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash va tarqatish (yoyish)tizimidir, u boshqaruvni axborotli ta’minlashga mo‘ljallangan bo‘lib, holat haqida vaqtning har-xil paytida hakamlik qilishga va uning rivojlanish prognozini ta’minlash imkonini beradi” [227].

Bugungi kunda jahon amaliyotida monitoringga bo‘lgan yondashuvlardan, uch xil asosidagi tayanch tushunchalardan quyidagilar kengroq tarqalgan:

sifatli ta’lim va ilmiy faoliyat uchun muassasalarda yaratiladigan shart-sharoitlar;

ta’lim jarayoni;

natijalar.

Shu bois, aynan ta’lim natijalari barcha tizimlar uchun sifatni ta’minlovchi tayanch nuqta sifatida (natijalar bo‘yicha boshqarish texnologiyalarini joriy qilish

bilan bog‘liq hollarda bu sharoit katta ahamiyat kasb etmoqda) muhimliroq omil bo‘lmoqda.

Tadqiqot maqsadlariga asoslanib, biz tomondan quyidagi monitoring turlaridan foydalanildi:

- **fonli** (tayanch), oldinda uchraydigan muammo va qiyinchiliklarni aniqlash va uning innovatsion kompetentligini shakllantirish kontekstida talabaning innovatsion faoliyatga shayligini ta’minlashga yo‘naltirilgan;

- **muammoli,** talabaning innovatsion kompetentligini shakllantirishda boshqarish nuqtai-nazardan dolzarb bo‘lgan muammolarni aniqlash imkonini beradi;

- boshqaruvli, uzluksiz ta’lim mintaqaviy makonida talabaning innovatsion kompetentligini shakllantirish natijasida yuzaga kelgan samara va natijadorlikni baholash va kuzatishni ta’minlaydi.

Ushbu monitoring turlaridan foydalanilganda, biz tomondan quyidagi asosiy natijalar erishildiki, bular:

- talabalarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini ta’minlash samaradorligi aniqlash;

- talabalarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini ta’minlashda cheklovlar va xavf-xatar zonalarini aniqlash;

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun kerak bo‘lgan axborotlarni shakllantirish.

Ta’limda monitoring vositalarini ishlab chiqish uchun A.N.Mayorov, S.E.Shishov va V.A.Kalneylarning ishlari nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kvalimetriya bo‘yicha ilmiy ishlarning (M.M.Kaleychik, V.N.Fomin) tahlili, bizningcha tadqiqotimizda ob’ektini, ya’ni talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorgarligining sifat tavsifi sifatida “mezon” tushunchasini aniqlash imkonini berdi.

Fanda innovatsion faoliyatni baholash mezonlarini ishlab chiqish yo‘nalishida bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. S.A.Belyakov va

V.J.Kuklinlarning ta’kidlashicha, ta’lim tizimi faoliyati natijalarining o‘lchovli sifat tavsiflari belgilangani va bu nafaqat umumiy tizimda, balki uning alohida elementlarida ham muammo ekanligi qayd etilgan [49].

Aytish joizki, innovatsion kompetentlikning ta’rifidan kelib chiqqan holda, tizimga yangiliklarni tatbiq qilishgatalabaning shaxs sifatida, shuningdek nazariy va amaliy tayyorligi bo‘yicha innovatsion shakllanganligini bo‘yicha baholash mumkin.

I.A.Zimney innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni - talabaning refleksiv yo‘nalganligi, dunyoqarashi jihatidan uning ulg‘ayganligi, keng va tizimli kasbiy-predmetli kompetentligi, shuningdek kommunikativ va didaktik qobiliyatlari, affiliatsiyaga ehtiyoji sifatida belgilaydi[135].

Ta’limda innovatsion faoliyatning muhim jihatlarini va talabaning innovatsion faoliyatga tayyorligi ostida “shaylik” tushunchasining mohiyatini inobatga olgan holda, V.S.Lazarevning fikricha, shaxsiy kasbiy faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan talabaning sifatlar yig‘indisini hamda ta’lim jarayonida dolzarb muammolarni aniqlash va ularni hal qilish samarali usullarni amalga oshirish qobiliyatini tushuniladi [207, 208].

Talabaning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini belgilovchi mezonlarni V.A.Adolf, G.M.Kadjaspirova, A.K.Markova, L.M.Mitina, I.D.Frumin va boshqa olimlar o‘zlarining ishlarida ko‘rib chiqqanlar.

I.D.Fruminning fikriga ko‘ra, talaba-innovatorlar quyidagi xarakteristikalar bilan tavsiflanadi, ya’ni:

fuqarolik pozitsiyasini ifodalash;

o‘z mavqei qadr-qimmatini bilish;

eshitish va birovlarni tinglash mahoratini o‘z ichiga oluvchi pedagogikaning demokratik uslubida ishlash;

ta’lim jarayonini rejalashtirish va idora qilishga ta’lim oluvchilarni jalb etishni nazarda tutuvchi yuqori kommunikativ madaniyatga ega bo‘lishlari lozim [395].

F.Genovning fikriga ko‘ra, innovatsiyaning asosiy mezoni sifatida yangilik deb olinadi, shuning uchun innovatsion jarayonga qo‘shilish istagida bo‘lgan talabaga ko‘zlangan yangilikningmohiyati, uning yangilik darajasi nimadan iborat ekanligini belgilab olishi juda muhimdir.

Ommaviy tajribada innovatsiyani ijodiy qo‘llash imkoniyati, muallif tomonidan pedagogik innovatsiyani baholash mezoni sifatida qaralmoqda [88]. Haqiqiy holatda, agar qimmatli pedagogik g‘oya yoki texnologiya talaba faoliyatida texnik ta’minlashdagi murakkablik, uni qo‘llashda cheklanganlik jihatlari bilan shartlangantor doirada yoki talabaning o‘ziga xos jihatida qolib ketsa, u holda biz yangilik haqida so‘z yuritishimiz qiyindir.

Yuqorida keltirilgan mezonlar, innovatsiyani baholashda foydalanilishi va ijodiyot uchun asos bo‘lishi mumkin.

Ayrim olimlar, talabaning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini baholash uchun ijodiyot mezonlaridan foydalanishni nazarda tutadi. Jumladan, G.M. Kadjaspirova kasbiy ijodiyotni tadqiq qilish jarayonida, quyidagi mezonlarni belgilaydi:

chuqur va har tomonlama bilimlarning mavjudligi, ularni anglash va tanqidiy ko‘rib chiqish;

nazariy holatni kasbiy harakatlarga o‘tkazish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

o‘zining bilimlarini oshirish va takomillashtirish qobiliyati;

mashg‘ulot o‘tishning yangi usul va uslublarini hamda vositalarni ishlab chiqish va ularni bir-biri bilan mohirona qo‘llash;

yangi sharoitlarda mavjud bo‘lgan tajribani samarali qo‘llash;

o‘z faoliyatiga va uning natijalariga refleksiv baho berish qobiliyati;

talaba shaxsining betakror, individual sifatlarini ishlab chiqish va ularni bir-biriga qo‘shish asosida o‘z professional faoliyati usulini shakllantirish va takomillashtirish;

mashg‘ulotlar va shaxsiy intuitsiyaga asoslangan holda improvizatsiya qilish qobiliyati;

tanlagan sohasining u yoki bu vaziyatida harakat usullari “o‘zgaruvchanligi”ni ko‘rish qobiliyati [164].

Bo‘lajak mutaxassisning lavozimda kasbiy shakllanish ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishda, V.A.Adolf bir qator dastlabki prinsiplarga ahamiyat qaratadi.Tadqiqotimizda shulardan ikkitasi qiziqish o‘yg‘otadi, ya’ni:

“maxsus ishlab chiqilgan kasbiy vazifa va topshiriqlarni bajarish asosida ta’lim sohasida mutaxassislarning tayyorgarlik darajasini belgilash maqsadga muvofiq”, “tayyorgarlik ko‘rsatkichlari nafaqat kasbiy tayyorgarlik natijasini, balki uzluksiz ta’limning barcha bo‘g‘in va bosqichlarida mutaxassisni lavozimda shakllanish umumiy jarayonini baholashi kerak” [26, b.83].

Mutaxassisning lavozimda kasbiy shakllanish darajasini baholash professional faoliyatga taalluqli bo‘lgan asosiy funksiyalar bo‘yicha amalga oshirilishi lozim [26, b. 56]. Muallif kasbiy faoliyatga taalluqli bo‘lgan quyidagi funksiyalar belgilagan: diagnostik, axborotli, konstruktiv-loyihali, tashkilotchanlik, kommunikativ, prognostik, tadqiqotli va baholi [26, b. 57–58].

K.Angelovskiy talaba malakasini belgilaydigan asosiy belgilardan biri – uning yangiliklarga bo‘lgan munosabati, umuman innovatsion jamoaviy jarayonlarda va bevosita o‘zining faoliyatida faol ishtirok etishi, deb hisoblaydi. Olim tomonidan talabalarni innovatsion faoliyat rejimida ishlashga chorlovchi asosiy motivlar ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, bular: ishlash samaradorligini oshirish, ta’lim natijalaridan jamoatning qoniqqani, shaxsiy qat’iyat, moddiy rag‘batlantirishlar [38].

Talabalarning innovatsion faoliyatga yo‘naltirishning o‘ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda empirik ma’lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish natijasida, talabaning innovatsion faoliyatga tayyorligini ta’minlaydigan va belgilaydigan asosiy shartlar ajratib olindi:

- innovatsion faoliyat metodologiyasi sohasida asosiy va puxta tayyorgarligi;

- shaxsiy tadqiqotni rejalashtirish va o‘tkazish sohasida talabalarning maxsus va professional tayyorgarligi;

- OTMda ta’lim olish davrida talabalarning mustaqil o‘quv-tadqiqot amaliyoti;

- o‘quv rejalarida innovatsion faoliyatga tayyorligini ta’minlovchi oliy ta’lim muassasalarida, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga mo‘ljallangan maxsus kurslarning tashkil etilganligi va kasbiy ta’lim beradigan qo‘shimcha muassasalar mavjudligi;

- mintaqaviy ta’lim tizimida o‘quv-tadqiqot va innovatsion faoliyatni nazorat qiladigan keng tarmoqli monitoring tizimini yaratish.

Innovatsion ta’lim muhiti-pedagogik jarayonda zamonaviy fan va texnika yutuqlariga asoslangan va kasbiy sohada krativ (ijodiy) qaror qabul qila oladigan shaxs(talaba)ni shakllantirishga qaratilgan o‘qitishning mazmuni, shakl, metod va vositalari majmuidir.

V.A.Slastenin innovatsiyani yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanishga qaratilgan maqsadga muvofiq, yo‘naltirilgan jarayoni majmui deb biladi. Muallifning fikriga ko‘ra har qanday innovatsiya yangi vositalar yordamida ijtimoiy sub’ektlarning ehtiyojini qondirish va intilishlarini rag‘batlantirish maqsadini ko‘zlaydi.

Har qanday innovatsiyada “yangi”, “yangilik” tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Turli munosabat va jarayonlarga kiritilayotgan yangilik mazmunan xususiy, sub’ektiv, mahalliy va shartli g‘oyalar tarzida namoyon bo‘ladi.

R.N.Yusufbekova innovatsiyalarni pedagogik nuqtai nazardan ko‘rib chiqishga e’tiborni qaratadi. Xususan, pedagogik innovatsiyalar muallif tomonidan ta’lim va tarbiya jarayonida avval ma’lum bo‘lmagan, qayd qilinmagan holat yoki natijaga olib boruvchi pedagogik hodisaning o‘zgarib turishi mumkin bo‘lgan mazmuni ekanligi ta’kidlanadi.

2.2. Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari

Mamlakatimizda va butun jahon hamjamiyatining hozirgi rivojlanish bosqichi, umuman olganda, inson faoliyatining barcha sohalarida innovatsion jarayonlarning tezkor joylashuvi bilan tavsiflanadi. Agar o‘tgan asrning 90-yillari o‘rtalaridan boshlab moddiy resurslar kompleksi mamlakatimiz taraqqiyoti uchun eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa, endi milliy xavfsizlikni ta’minlash, xalq farovonligi va mamlakat kelajagini barpo etishda hamda yagona ijtimoiy-madaniy makonni saqlab qolishda etakchi o‘ringa ilmiy-ta’lim da’vo qilmoqda. SHuning uchun uzluksiz innovatsion pedagogik ta’lim tizimi konsepsiyasini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanmoqda.

Konsepsiya ta’lim siyosatini amalga oshirishning mintaqaviy xususiyatlarini, innovatsion faoliyatni amalga oshiradigan talabalar bilan ishlash strategiyasi va taktikasini belgilaydigan normativ-huquqiy, dasturiy-tashkiliy va uslubiy xarakterdagi hujjatlarni yanada takomillashtirishning umumiy g‘oyaviy-uslubiy asoslarini belgilaydi. Bu mavjud bo‘lgan, ammo bir-biridan ajratilgan va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanadigan talabalar bilan ishlashning xilma-xil shakllari va darajalarini moslashuvchan, ko‘p bosqichli qulay tizimga, shu jumladan, mintaqaviy ta’lim tizimida innovatsiyalarni aniqlash, qo‘llab-quvvatlash va davom ettirishga oid muvofiqlashtirilgan harakatlarni o‘z ichiga olgan tizimli o‘zgartirishga qaratilgan.

Konsepsiyaning asosiy qoidalari faoliyatning yangi o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va talabaning innovatsion kompetensiyasini shakllantirishni ta’minlash uchun tuzilmalararo hamkorlik strategiyasini shakllantirish uchun asos bo‘ladi.

Talabaning innovatsion kompetensiyasini shakllantirishni ta’minlashning dolzarbligi mintaqaviy darajada innovatsion qobiliyat tashuvchilarni shakllantirish, ta’lim muassasalari darajasida olib borilayotgan innovatsion faoliyatni davlat va mintaqaviy ta’lim siyosatiga muvofiqlashtirish, mintaqaning ta’lim tashkilotlarining hozirgi va kelajakdagi kadrlar, menejment va mehnat jamoalari

(innovatsiyalarning individual va jamoaviy sub’ektlari) tomonidan taqdim etiladigan turli darajali tashuvchilarni tayyorlash orqali ta’limni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari sharoitida mavjud yangiliklarni “to‘ldirish”.

Talabaning innovatsion kompetensiyasi deganda uning o‘quv faoliyati sifatini belgilaydigan, innovatsiyalarni joriy etishga shaxsiy, nazariy va amaliy tayyorgarligi (ya’ni mazmun va ta’lim texnologiyalarining tubdan yangi obrazlarini ishlab chiqish va joriy etish)ni aks ettiruvchi hamda doimo o‘zgaruvchan professional muhitda muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatida ifodalaydigan uning ajralmas kasbiy-shaxsiy xususiyatlarini tushunamiz.

Talabaning innovatsion kompetensiyasini shakllantirish – bu ta’lim tizimga yangiliklarni maqsadli ravishda kiritishga qaratilgan talabaning shaxsiy, nazariy va amaliy tayyorgarligini takomillashtirishdagi doimiy jarayon bo‘lib, tabiiy-sun’iy xususiyatga ega va tashqi sharoit ta’sirida hamda shaxsning kasbiy faoliyati va o‘z mahorati bilan amalga oshiriladi.

Konsepsiyaning asosiy g‘oyasi uzluksiz ta’limning mintaqaviy tizimini yaratish va ishlashini ta’minlash orqali hozirgi va kelajakdagi kadrlar, mintaqaning ta’lim tashkilotlari rahbarlari va mehnat jamoalarining (innovatsion faoliyatning individual va jamoaviy sub’ektlari) innovatsion vakolatlarini shakllantirishni ta’minlashdan iborat bo‘lib, davlat va mintaqaviy ta’lim siyosatiga muvofiq va ta’lim rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari sharoitida mavjud innovatsiyalarni “to‘ldirish”ga imkon yaratuvchi oliy ta’lim muassasalari darajasida amalga oshiriladigan innovatsion faoliyatni joriy etish.

Mintaqaviy uzluksiz ta’lim makonidagi talabaning innovatsion kompetensiyasini shakllantirish konsepsiyasi talabani innovatsion faoliyatga tayyorlash maqsadi, mazmuni, texnologiyasi va tashkillashtirish jarayonlarini aks ettiruvchi qonuniyatlar, omillar, tamoyillar, umumlashtirilgan qoidalar to‘plami bilan ifodalanadi.

Mintaqaviy uzluksiz ta’lim makonidagi kadrlarning innovatsion kompetensiyasini shakllantirish konsepsiyasi talabaning innovatsion faoliyatidagi ilmiy-uslubiy ta’minotiga - innovatsion jarayonlarning mikro va makro darajalari;

oliy ta’lim muassasalarning ko‘p strukturali innovatsion faoliyatining sub’ektiv va tashkiliy-boshqaruv jihatlari; innovatsiyalarni maqsadga muvofiq ravishda mintaqaviy, munitsipal va oliy ta’lim darajalarida tarqatish miqyosi bilan bog‘liqligini belgilaydigan ta’limdagi innovatsion jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi.

Konsepsiyaning maqsadi – mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorligini ta’minlaydigan nazariy-uslubiy bazani yaratish va uning asosida strategiya va modelni ishlab chiqishdan iboratligini e’tiborga olish lozim.

Konsepsiya doirasida talabaning innovatsion kompetensiyasini shakllantirishning uslubiy asosi sifatida quyidagi ***yondashuvlar*** belgilangan:

tizimli - talabaning innovatsion kompetensiyasini shakllantirishni uning innovatsion faoliyatga tayyorligining o‘zaro bog‘liq va bir-biriga bog‘liq tarkibiy qismlarining birligini ta’minlaydigan ajralmas jarayon sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi;

tizimli fikrlash faoliyati – fikrlash va faoliyat birligini ta’minlaydi, talabaning individual ta’lim kamchiliklarini bartaraf etishga yo‘naltirilgan innovatsion kompetensiyasini shakllantirish yo‘lini aks ettiradi;

kompetensiya – talabaning innovatsion malakasini shakllantirishni uning innovatsion faoliyatga shaxsiy, nazariy va amaliy tayyorgarligining birligi sifatida ko‘rib chiqishga yordam beradi;

sinergetik – innovatsion faoliyatni amalga oshirishda turli darajadagi vakolatlar darajasida ta’lim tizimi sub’ektlarini ijtimoiy loyihalash va dasturiy maqsadli boshqarishga yo‘naltirilgan.

Konsepsiyaning asosiy mazmuni (o‘zagi) – mintaqaviy uzluksiz ta’lim makonida talabaning innovatsion kompetensiyasini shakllantirish konuniyati hisoblanadi. Qonuniyatlarni aniqlashda E.N.Yakovlev va O.N. Kovleva tominidan taklif qilingan usublar qo‘llanilgan:

1.O‘rganilayotgan mavzuning protsessual xususiyatlarini hisobga olish.

2.Uning rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari (ichki qarama-qarshiliklari)ni hisobga olish.

3.Tanlangan tadqiqotning uslubiy yondashuvlarini hisobga olish [431] (deduktiv usul bilan uslubiy asoslarni konsepsiyalash).

Psixologiya fanidagi qonuniyatlar ommaviy xarakterga ega ekanligini hisobga olgan holda, uni tashqi (ijtimoiy va kasbiy hodisalar o‘rtasidagi munosabatni belgilaydi) va ichki (talabaning mintaqaviy uzluksiz ta’lim makonining tarkibiy qismlari o‘rtasidagi munosabatni aks ettiruvchi talabaning innovatsion kompetensiyasini shakllantirish amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan) qonuniyatlarga ajratish zarur.

Oliy ta’lim tizimida talabaning innovatsion kompetensiyasini shakllantirishning ***tashqi qonuniyatlariga*** quyidagilar kiradi:

talabaning oliy ta’lim makonida innovatsion kompetensiyasini shakllantirishni ta’minlashning maqsad va vazifalari mintaqaning ijtimoiy-madaniy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari va ta’lim an’analari bilan belgilanadi;

talabaning innovatsion kompetensiyasini shakllantirish jarayoni ushbu jarayonni osonlashtiradigan yoki to‘sqinlik qiladigan turli xil omillar ta’siriga bog‘liq.

Oliy ta’lim tizimida talabaning innovatsion kompetensiyasini shakllantirishning ***ichki qonuniyatlari***:

talabaning oliy ta’lim makonida innovatsion qobiliyatlarini shakllantirish ta’lim tizimidagi yangiliklarni aniqlash, qo‘llab-quvvatlash va davom ettirishga qaratilgan quyi tizimlarning muvofiqlashtirilgan harakatlari bilan amalga oshiriladi;

talabaning innovatsion kompetensiyasini shakllantirish samaradorligi u amalga oshiriladigan o‘quv jarayonining tabiati bilan bog‘liq bo‘lib, ta’lim makonining turli tuzilmalarida ushbu jarayonning yaxlitligi va uzluksizligi bilan chambarchas bog‘liq.

Aniqlangan qonuniyatlar oliy ta’lim makonida talabaning innovatsion kompetensiyasini shakllantirishga ta’sir qiluvchi omillarni va ushbu jarayonning asosini tashkil etuvchi tartib (prinsip)larni aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqotimiz davomida talabaning innovatsion kompetensiyasini shakllantirishda quyidagi omillar faol ta’sir ko‘rsatayotganligi aniqlandi:

jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning muhim qismi bozor sharoitiga o‘tishi;

mintaqaviy iqtisodiyotning innovatsion faoliyat nuqtai nazaridan kadrlar tayyorlash sifatiga talablari;

ta’lim tizimining rivojlanishiga tashqi (xorijiy) omillar ta’sirining kuchayishi;

ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning xususiylashtirilishi va axborotlashtirilishi;

milliy va mintaqaviy darajadagi individual tizimlar (hukumat - biznes - fan - kadrlar tayyorlash - fuqarolik jamiyati institutlari) o‘rtasidagi ziddiyatlarning kuchayishi;

turli darajalarda (mamlakat - mintaqa - mahalliy tizimlar) jamiyatni boshqarishda inson omili rolining oshishi va ahamiyati.

Talabalarning innovatsion kompetensiyasini shakllantirish konsepsiyasini ishlab chiqishda, turli xil yondashuvlar, masalan, V.K.Dyachenko, V.A.Slastenin, A.M.Novikov, I.F.Xarlamov va boshqalar tomonidan ilgari surilgan. A.M.Novikovning [265] asarlarida keltirilgan tizimli yondashuv nuqtai nazaridan belgilangan prinsiplar eng maqbul deb qabul qilingan. Buning sababi shundaki, tizimli yondashuv talabaning innovatsion kompetensiyasini shakllantirishni ajralmas butun bir jarayon sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Yuqoridagi tadqiqotlariga asoslangan holda biz tomonimizdan taldabaning innovatsion kompetentligini quyidagi shakllanish tamoyillari keltirib o‘tamiz:

1.Zamonaviy ta’limning uzluksiz xarakterini belgilovchi kontinuallik tamoyili. Bizning fikrimizcha, ushbu tamoyil tizim uchunva sub’ektni ta’lim faoliyatining uzluksiz jarayoni mobaynida ishtiroki uchun eng muhim tamoyil bo‘lib qoladi.

Talabaning innovatsion kompetentligini shakllanishini ta’minlash mobaynida oliy ta’lim bosqichidagi uzluksiz ta’lim tamoyili talabalarni tanlab olgan kurslari doirasida o‘z ta’lim yo‘nalishlarini belgilab olish, individual ta’lim va tadqiqot dasturlarini tuzib olishlarida namoyon bo‘ladi. Qo‘shimcha kasbiy ta’lim bosqichida mazkur tamoyil pedagog tomonidan har qanday hayotiy vaziyatni o‘zi uchun ta’limga aylantirib olishini ko‘zda tutadi. Uzluksizlik ta’lim faoliyatining kamida uchta: formal, noformal va informal turlarini birikishini ko‘zda tutadi.

2.Mazmunli-tuzilmaviy tamoyil, ushbu tamoyil kasbiy ta’lim mazmunining shakllanishi uning tashkiliy shakllaridan ustuvorligini belgilab beradi.

3.Kasbiy ta’lim dasturlarining ko‘p pog‘onalilik va qo‘shimchalilik tamoyili, bu tamoyil kasbiy ta’lim bilan bir qatorda qo‘shimcha kasbiy ta’limning ko‘p pog‘onalari va darajalarining mavjud ekanligini belgilaydi.

4.Kasbiy ta’lim dasturlarining harakatchanlik tamoyili, bu tamoyil sub’ekt tomonidan o‘z hayotiy yo‘lining u yoki bu bosqichida kasbiy faoliyatini o‘zgartirish extimoli yoki parallel ravishda qo‘shimcha kasbiy ta’lim olishini nazarada tutadi.

5.Ta’lim maqsadlari va dasturlarini individuallashtirish tamoyili.

Ta’lim o‘z tabiatiga ko‘ra sub’ektiv hisoblanib, insonda bilimlar, usullar va madaniy qadriyatlarning ortib borishi bilan bog‘liq bo‘ladi. SHuning uchun ta’lim maqsadlari va vazifalari maksimal ravishda individuallashtirilgan bo‘ladi.

Individuallashtirish tamoyili ta’lim jarayoni ishtirokchilarining individual dasturlarini tuzish va amalga oshirish orqali namoyon bo‘ladi. Ta’limning maqsadlari va dasturlari individualdir, lekin ularni yakka tarzda amalga oshirishning imkoni yo‘q (vositalar, usullar etishmaydi), shuning uchun jamoaviy ish zarur bo‘ladi. Ta’lim jamoaviy fikrlashva faoliyat jarayonlari tashkil etilgan murakkab jamoalarda amalga oshiriladi.

6.Kasbiy ta’lim dasturlarining keyingi avlod tomonidan davom ettirish tamoyili, bu tamoyil talabaga kasbiy tayyorgarlikdan tortib qo‘shimcha kasbiy

ta’lim va kasbiy rivojlanishgacha bo‘lgan uzluksiz mintaqaviy ta’lim kengligida erkin ko‘chib yurishiga imkoniyat beradi.

7.Kasbiy ta’limning faoliyatli va sohalararo yo‘nalishini belgilash imkoniyatini ta’minlovchi kasbiy ta’lim tuzilmalarini inmtegratsiya qilish tamoyili.

8. Uzluksiz mintaqaviy ta’lim kengligida uni o‘zlashtirish mazmuni va rejalashtirilishining tizimlilik va ko‘p bosqichlilik tamoyili.

9.Ta’lim jarayonining mazmunini o‘zlashtirilishini optimallashtirishga imkon yaratuvchi modulli-variativ tamoyil.

10.Ta’lim jarayonini tarmoqli tashkillashtirish tamoyili, bu tamoyilda ta’lim muhiti ta’lim tashkiloti bilan cheklanib qolmasligini, chunki tarmoqda an’anaviy tushunchadagi tashkilot yoki uyushqoqlik tushunchlarning yo‘qligini ko‘rsatadi, birlashmaning birlamchi xujayrasi sifatida “vaziyatli umumiylik” va “uyushma” namoyon bo‘ladi [343, s. 416].

“Uyushqoqlik (hamjihatlik)” tushunchasi bir tomondan tuzilmaviy birliklar (mustaqil yaxlitliklar) o‘rtasidagi o‘zaro aloqa va o‘zaro bog‘liqlik usullarini ko‘rib chiqsa, ikkinchi tomondan qurilmaning umumiy manzarasini (yaxlitlikni ich-ichidan ushlub turuvchi narsa) ta’riflaydi.

Odatda “tarmoq” atamasi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan “tugun”lardan iborat qandaydir yaxlitlikni ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Mazkur tushunchaning o‘ziga xos xususiyati quyidagilardan iborat:

1) istalgan tugundan boshqa istalgan tugunga ichki aloqalar orqali etib borish mumkin;

2)barcha tugunlarning axamiyati ob’ektning yaxlitligi nuqtai nazaridan bir xildir;

3) umumiy yaxlitlikda o‘zaro bog‘liq bo‘la turib, har bir tugun ma’lum darajadagi mustaqillikka egadir. Bu esa aslida, turli marshrutlar bilan bitta tugundan ikkinchisiga o‘tish imkoni sifatida namoyon bo‘ladi.

K.Angelovski, M.V.Klarin, V.S.Lazarev, L.S.Podыmova, V.A.Slastenin, T.N.Razuvaeva va boshqalarning ishlarini umumlashtirish va tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, bunda talabaning innovatsion faoliyatga tayyorlik asosini shaxsiy

kasbiy faoliyatni takomillashtirishga yo‘naltirilgan kasbiy-shaxsiy sifatlar tashkil qilar ekan, shu bilan birga, olimlar tomonidan shunday sifatlar tariqasida: refleksiyaga, ijodiy, tadqiqot faoliyatni olib borish qobiliyatga e’tibor qaratilgan.

Talabaning innovatsion faoliyatga shayligi, ko‘proq kompetentli yondashuv nuqtai-nazardan (I.A.Zimnyaya, Y.G.Tatur, N.V.Kuzmin, V.A.Slastenin va b.) ilmiy izlanishlarida ko‘rilgan.

V.A.Slastenin tomonidan ishlab chiqilgan professional kasbiys kompetensiya strukturasidan kelib chiqib, umummadaniy va umumilmiy, maxsus, psixolo-pedagogik bilimlarga ega bo‘lishni nazariy komponentga mansubligi ta’kidlanadi. Shaylikning amaliy komponenti faoliyatning bir necha xil turi, ya’ni: prognostik, loyihali, konstruktivli, tashkilotchanlik, kommunikativ va refleksiv kabi ko‘rinishidan tuziladi [340].

Xususan, bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan quyidagi malakalar ko‘rsatilgan: gnostik, prognostik loyihali, konstruktiv, tashkilotchanlik, kommunikativ, refleksiv, tahliliy. Ushbu malakalar mazkur faoliyat jarayonida shakllanib boradi va ularning mavjudligini, bizning nazarimizda, pedagogning innovatsion faoliyatga shayligini belgilaydigan majburiy komponent sifatida ko‘rish mumkin.

O‘zining tadqiqotini rivojlantirish jarayonida V.A. Slastenin L.S. Podымova bilan birgalikda, talabaning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini belgilaydigan quyidagi mezonlarni belgilaydi:

- talabaning innovatsion faoliyat kerakligini anglashi;
- yanglilikni yaratish (kashf etish) bo‘yicha ijodiy faoliyat yuritishga shayligi;
- yanglilik (kashfiyot) ijobiy natija olib kelishiga ishonch hosil qilish;
- shaxsiy maqsadlarning innovatsion faoliyat bilan kelishilganligi (muvofiqligi);
- faoliyatida ijodiy muvaffaqyatsizliklarni engib o‘tishga shayligi;
- innovatsion faoliyatni olib borishga texnologik shayligining darajasi;
- innovatsion faoliyat borasida o‘zining avvalgi tajribalarining ijobiy bahosi;

- kasbiy refleksiyaga qobiliyati (moilligi) [341].

V.S.Lazarevning fikriga ko‘ra, talabaning innovatsion faoliyatga shayligini quyidagilar tashkil qiladi:

- innovatsion faoliyatga kirishib ketish uchun motivning mavjudligi;

- ta’limi natijalariga, ta’limning innovatsion model va texnologiyalariga qo‘yilgan zamonaviy talablar to‘g‘risida majmuaviy bilimlar mavjudligi;

- kasbiy innovatsiya sohasida kompetensiyaga ega bo‘lish [207].

T.N.Razuvaevaning fikriga ko‘ra, psixologiya nuqtai-nazaridan alohida talaba va umuman talabalar jamoasining innovatsion faoliyatga shayligi bo‘ladigan o‘zgarishlarga uning axloqiy tayyorligi, innovatsion faoliyat shartlarini ijobiy qabul qilishi, ushbu faoliyatni boshqarishda madaniyat usullarini ishlatishi va tashqaridan yangiliklarni qabul qilish shayligi bilan belgilanadi [311].

Bu kontekstda, shuningdek, G.I.Gerasimov va L.V.Ilyuxinaning tadqiqoti qiziqish o‘yg‘otadi, unda shaxs darajasida innovatsionlikning quyidagi mezonlari ko‘rsatiladi:

- shaxsiy muhim qimmat sifatida innovatsiya qabul qilinganmi;

- innovatsiyaga bo‘lgan yondashuvlar ta’lim tizimini rivojlantirishga kerak bo‘lgan ijtimoiy mexanizm sifatida bo‘linadimi;

- innovatsiya munosabatlarning bir butun tizimi va o‘ziga xos tashkiliy faoliyat sifatida tushuniladimi;

- ushbu munosabat shaxsiy kasbiy faoliyatni tashkillashtirishga o‘tkazilganmi;

- shaxsiy faoliyatda pedagog tomonidan uni tashkillashtirishda uning innovatsiyaga oidligiga xos belgisi qanchalik ahamiyat berilgan [89, b. 102].

Ta’kidlash joizki, biz tahlil qilayotgan tadqiqotlarning u yoki bu holatlarida shaylikni tashkil qiluvchi shaxsiy, nazariy va amaliy alomatlari ko‘zga tashlanadi.

Shu tariqa, talabalarning innovatsion faoliyatga yo‘naltirilganligi motivatsiya, bilim, ko‘nikma va malaka, innovatsiyalarni ishlab chiqish va tatbiq qilish uchun kerak bo‘lgan kasbiy va shaxsiy muhim sifatlarningshakllanganligi bilan belgilanadi. Talabaning innovatsion faoliyatga shaxsiy tayyorgarligi,

bizningcha, motivlar, yo‘naltirilganlik, da’vogarlik darajasi, o‘ziga baho berish bilan izohlanadi.

Binobarin, talabaning innovatsion faoliyatga past tayyorgarlik darajasining sabablaridan biri bu, motivlarning talabaning innovatsion faoliyatga bo‘lgan munosabati bo‘yicha motivlar tuzilmasidagi tashqi muhiti (L.S. Podыmova, V.A. Slastenin) daliliy isbotlangan.

N.V. Kuzminaning tadqiqoti bo‘yicha shaxsiy yo‘naltirilganlik qiziqishlar, moilliklar, ishonch, ideallar bilan izohlanadi, ularda odamning dunyoqarashi namoyon bo‘ladi [205, b. 23]. So‘z innovatsion faoliyat xaqida borayotganligi bois, ijodga bo‘lgan qiziqish, u bilan shug‘ullanish, talabaning umumiy madaniyati, refleksiyaning rivojlanganligi, yaratuvchanlik bu yo‘nalishda katta ahamiyat kasb etadi.

O‘ziga baho berish strukturasida kognitivli va emotsional aspektlar keltirilgan. A.K. Markovaning fikriga ko‘ra, talabaning o‘ziga baho berish strukturasi qachon optimal bo‘lishi mumkin, qachonki unda dolzarb va refleksiv orasidagi minimal farqlar, retrospektiv va dolzarb, dolzarb va ideal ko‘rinishda o‘ziga baho berish orasidagi maksimal farqlar aks ettirilgan bo‘lsa, shuningdek, unda ijobiy Men-konsepsiyani yaratilishi fiksatsiya qilinsa shunda u samarali bo‘la oladi [230, b. 58].

Nazariy tayyorgarlikkasbiy innovatsiya asoslarini o‘zlashtirganlikdan iborat bo‘lib, innovatsion usulda fikrlashda namoyon bo‘ladi va faoliyatni nazariy o‘zlashtirishni nazarda tutadi.

Nazariy tayyorgarlikning asosiy komponentlari bo‘lib, uni konstruktiv va gnostik faoliyat tashkil qiladi. Faoliyatning ikkala turi ham pedagogda tahliliy, prognostik, loyihali va refleksiv malakalarni shakllantirishni nazarda tutadi[30, b. 79–82].

Amaliy tayyorgarlik innovatsion kasbiy faoliyatni amalga oshirish imkonini beruvchi ko‘nikmalarda namoyon bo‘ladi.

2.3. Zamonaviy ta’lim tizimida talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash

ta’lim tizimi o‘zining an’analari, istiqbollari va innovatsion rivojlanish tendensiyalariga ega. U o‘zining tuzilmasi, yangilanish va dunyo ta’lim makoniga integratsiya qilish ketma-ketligi ega. Oliy ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan tendensiyalar va talablarni quyidagicha izohlash mumkin:

1. Oliy ta’lim sohalarini kengaytirish va o‘quv muassasalari bitiruvchilarini nafaqat ta’lim sohasidagi faoliyatga, balki turli gumanitar texnologiyalar talab etiladigan boshqa sohalarda ham ishlashga yo‘naltirish. Sotsiologik tadqiqotlarning ma’lumotlariga ko‘ra, bitiruvchilar o‘z ixtisosligi bo‘yicha tobora kam ishlamoqdalar. Boshqa tomondan ta’lim tizimiga pedagogik ma’lumoti bo‘lmagan mutaxassislar kelmoqdalar.

2. Zamonaviy ta’limning dolzarb extiyojlari va o‘qituvchilarni tayyorlash sifatining o‘rtasidagi tafovutni oshib borishi. Bu birinchi navbatda, maktab ta’lim mazmuni, ta’lim jarayonining uslubiy va moddiy-texnik ta’minotiningyangilanganligi bilan bog‘liq. Bunday sharoitlarda pedagogik ta’limni ushlab turish davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiq kompetentlik asosida jidiy o‘zgarishlarni talab etadi.

3. Uzluksiz ta’lim, butun xayot davomida o‘qish, malaka va kompetensiyani yangilanishining oshib borayotgan ahamiyati bilan hisoblashish va ta’lim sohasi xodimlarining qo‘shimcha kasbiy ta’lim tizimiga yangi talablarni qo‘yish. Bu birinchi navbatda, pedagoglar malakasini oshirish tizimini jiddiy ravishda amaliy yo‘naltirganlikda, doimiy kasbiy o‘sish uchun sharoitlar yaratishda namoyon bo‘ladi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan tendensiyalar, muammolar va kamchiliklar mamlakat ta’lim tizimini yangilash mexanizmlarini tadqiqot qilishning dolzarbligini oshiradi, bu esa uning innovatsion rivojlanish strategiyasini shakllantirishga va ushbu tizimni mintaqaning rivojlanish istiqbollariga muvofiqlashtirish imkonini beradi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini zamonaviylashtirish jarayonlari ta’limning barcha darajalarini birlashtirishga qaratilgan tizimni yaratishni, shuningdek, uzluksiz ta’lim konsepsiyasini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirishni nazarda tutadi. Umuman olganda, ta’limning innovatsion faoliyatida yangi paydo bo‘lgan fikrlash (refleksiya) darajasini ta’kidlash mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish muammolari va xavf-xatarlari nuqtai nazaridan kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan quyidagi talablarni ajratish mumkin:

1. Kadrlarni tayyorlashda mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va uning ehtiyojlari (kelajakdagi faoliyatga tayyorligi)ni hisobga olgan holda, istiqbolli va innovatsion bo‘lishi kerak.

2. Kadrlar ta’limi mazmunidagi yangi g‘oyalar, loyihalar, rejalar, fanlar ta’lim tizimini va umuman mintaqadagi ta’lim tizimini isloh qilish muammolari kontekstida tushunilishi kerak.

3. Kadrlar ta’lim olishi uzluksiz bo‘lishi va uning innovatsion faoliyatini amalga oshirish bilan bir vaqtda amalga oshirilishi kerak. Avvaliga innovatsion amaliyotni kurib, so‘ngra kadrlarni tayyorlash yoki aksincha.

4. Mutaxassisning ta’lim olish mazmuni uning amaliyoti va keyingi davr faoliyati muammolari bilan belgilanishi kerak.

5. Talabaning innovatsion faoliyatga tayyorligini shakllantirish mintaqaning maqsadli ko‘rsatmalariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Shunday qilib, ilmiy ishlar va dasturiy hujjatlarni tahlil qilish asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, zamonaviy sharoitda fanning jamiyat hayotining barcha jabhalariga ta’siri kuchaymoqda va shu munosabat bilan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillari o‘zgarib bormoqda.

Sub’ektlarning innovatsion kompetensiyasini shakllantirish sohasidagi ilmiy bilimlar tabiiy resurslar bilan bir qatorda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan ajralmas manbaga aylanib bormoqda. Amaliy faoliyat sohasida yangi bilimlarni texnologik yangiliklarga aylantirishni ta’minlaydigan innovatsion jarayon etakchi hisoblanadi. Ushbu

holatlar pedagogning innovatsion kompetensiyasini shakllantirishning nazariy va konseptual asoslarini ishlab chiqish va ularni mintaqaviy amaliyotga tatbiq etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Ta’lim amaliyotining tartibga solinmagan xilma-xilligi pedagogik ta’limiga xos xususiyatlarni keltirib chiqaradi, bu paradigmatik ko‘plik, qiymat-semantik noaniqlik, uning tizimli-konstruktiv o‘zgarishining to‘liq emasligi. SHu nuqtai nazardan, ta’lim tizimi rivojlanishining barqarorligi, bir tomondan, turli xil amaliy innovatsiyalarini yaratish mumkin bo‘lgan kollektiv va individual sub’ektlarni shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqa tomondan, ushbu sharoitda – mintaqaviy rivojlantirish doirasida o‘z mavqeini aniqlash bilan bog‘liq.

Yuqoridagilarga asoslanib, mamlakatimizda uzluksiz ta’lim yo‘nalishiga qaratilgan innovatsion jarayonlarning mintaqaviy makonini yaratishva ta’minlash evaziga, hozirgi va kelajakdagi kadrlarning innovatsion kompetensiyasi shakllantirish bo‘yicha hamda mintaqaning ta’lim tashkilotlari (innovatsion faoliyatning individual va jamoviy sub’ektlari)ning boshqaruv-mehnat jamoalarining tadqiqotlar olib borish fundamental g‘oyasi ishlab chiqilgan. SHu o‘rinda, oliy ta’lim mussasasalari darajasida olib boriladigan innovatsion faoliyatni davlat ta’lim siyosatiga moslashtirish va ta’limni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari sharoitida mavjud yangiliklarni “kiritish” – talabalarning innovatsion faoliyatga tayyorligini ta’minlaydi.

Ta’limdagi innovatsion faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida talabaning innovatsion faoliyatga tayyor bo‘lishining quyidagi asosiy mezonlari aniqlandi:

talaba tomonidan yangilikni shaxsiy qadriyat sifatida qabul qilish, ehtiyojning mavjudligi va innovatsion rejimda ishlash zarurligiga ishonchi hamda o‘z ishining natijalari uchun javobgarlik (shaxsiy tayyorlik) hissi borligi;

kasbiy yangilik sohasida nazariy bilimlar (nazariy tayyorlik)ning mavjudligi;

innovatsion texnika, usul, vosita, ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar (amaliy tayyorlik) mavjudligi.

talabaning innovatsion faoliyatga tayyorligining ierarxik (yuqoridan pastgacha) darajalari ko‘rsatilagan va tavsiflangan.

Bobda keltirilgan talabaning innovatsion kompetensiyasini shakllantirishning ilmiy-uslubiy shartlarini tahlili ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi muammolari va xavf-xatarlari nuqtai nazaridan kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan quyidagi talablarni asoslashga imkon berdi:

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari va mintaqaning ehtiyojlarini hisobga olgan holda kadrlarni tayyorlashning ilg‘or va innovatsion xususiyati;

mintaqaviy ta’lim tizimini va umuman mintaqani isloh qilish muammolari kontekstida yangi g‘oyalar, loyihalar, rejalar, kadrlar ta’limi tarkibidagi fanlarni o‘qitish;

talabaning innovatsion faoliyatini amalga oshirish bilan bir vaqtda amalga oshiriladigan uzluksiz ta’limini tashkil etish;

ta’lim mazmunining asosi soha amaliyoti va uning keyingi davrdagi faoliyati muammolariga asoslanishi kerak;

talabaning innovatsion kompetensiyasini shakllantirish mintaqaning maqsadli ko‘rsatmalariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Talabaning innovatsion kompetensiyasini shakllantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini o‘rganish jarayonida ta’limni rivojlantirishning innovatsion tabiati (xarakteri) – innovatsion salohiyatni shakllantirishni ta’minlaydigan nafaqat ta’lim tizimi (umuman tizim) sub’ekti, balki millatning innovatsion qobiliyatining oxirgi natijasi ko‘rinishidagi ijtimoiy-texnologik mexanizm ekanligi to‘g‘risida dalillar keltirilgan.

Tadqiqot jarayonida mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi muammolar aniqlandi, ya’ni:

ayrim hududida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

mintaqaning sanoat majmuasining yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyoji;

ta’lim tizimining ikkala sub’ekti va tizimning o‘zi ham innovatsion salohiyatni shakllantirish va natijada mamlakat aholisining innovatsion qobiliyati;

hududning iqtisodiy etakchiligining asosi bo‘lgan inson va ijtimoiy kapitalni shakllantirish; tashkilotlarning ilmiy, o‘quv va innovatsion salohiyatini amalga oshirish;

korxona va tashkilotlarning innovatsion faoliyatini shakllantirishni qo‘llab-quvvatlash.

Shu bilan birga, ta’lim tizimini rivojlantirishning global va ichki tendensiyalarini aks ettiradigan uzoq muddatli-tizimli muammolar aniqlandi va asoslandi:

iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida ta’lim tizimi tomonidan ishlab chiqarilgan inson kapitali rolining o‘sib borayotganligi;

klaster natijalari orqali ta’lim tizimi faoliyatini baholash;

o‘z faoliyatida innovatsion yondashuvlardan foydalangan holda ta’lim tashkilotlari ulushini oshirish uchun mintaqa iqtisodiyotini muvaffaqiyatli rivojlantirish zarurati.

Dasturiy hujjatlarni tahlil qilish asosida mintaqaning ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha vazifalarni taklif qilingan, ulardan biri uzluksiz ta’limni tashkil etish bo‘lib, u sub’ektni butun hayoti davomida professional darajada o‘sishiga imkon beradi. Ushbu vazifa mamlakat aholisining yosh avlodini mintaqaviy loyihalar va dasturlarni amalga oshirish uchun tayyorlashga mo‘ljallangan kadrlarni tayyorlash ta’lim tizimida alohida ahamiyatga ega.

Shuningdek, ta’lim tizimini rivojlantirishda bir qator muammolar aniqlangan va bayon qilingan, ya’ni:

bir qator ta’lim tashabbuslari mahalliy xususiyatga ega, ular tarqoq va ta’lim tizimiga deyarli tatbiq etilmaydi, mamlakat aholisining innovatsion salohiyatining rivojlanishiga hissa qo‘shmaydi;

kasbiy va shaxsiy o‘sish uchun teng huquqli imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan mamlakat aholisini yuqori sifatli ta’lim bilan qamrab olish etarli emas;

innovatsion rivojlanish dasturlarini amalga oshirishda yangi yondashuvlarni tarqatish mexanizmlarining etishmasligi va buning natijasida ta’lim muassasalarining muhim qismini innovatsion rivojlanish jarayonlariga jal qilinmaganligi.

Umuman olganda, nazariy shart-sharoitlarni o‘rganish talabalarning innovatsion kompetensiyasini shakllantirishga yordam beradigan, talabaning innovatsion kompetensiyasini shakllantirish konsepsiyasi, strategiyasi va modelini ishlab chiqish kabi asosiy shart-sharoitlarni aniqlash imkonini berdi. SHu bois ham bugun O‘zbekistonda ma’naviy barkamol avlodni har tomonlama shakllantirish ustuvor vazifalardan sanaladi. Jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga to‘la javob beruvchi, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatga bardoshli, keskin o‘zgarishlarga moslasha oluvchi, shuningdek, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo‘yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi shaxsni shakllantirish dolzarb muammo hisoblanadi.

III BOB. TALABALARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORGARLASHNING EMPIRIK O‘RGANISH

3.1.Talabalarni empirik faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik jihatlari

Psixologiya fanida talabalar shaxsi va ularning faoliyatini o‘rganishga doir turli metodolologik yondashuvlar mavjud bo‘lib, nazariy jihatdan, ya’ni psixomerik testlarni qo‘llash bilan bir qatorda ijtimoiy-psixologik so‘rovnomalardan foydalanish tavsiya etiladi[1].

Ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma natijalarining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanish uchun asosiy motiv sifatida quyidagilar ko‘rsatilgan:

- shaxsiy rivojlanish va atrofdagilarning hurmatiga sazovar bo‘lish uchun 60%;
- kasbiy faoliyatda samaradorlikka erishish uchun murakkab bo‘lgan harakatlarni soddalashtirish uchun 60 %;
- ijodkorlik bilan shug‘ullanish uchun va ijodkorlarning suhbatidan bahramand bo‘lish uchun 50%;
- o‘zining faoliyat natijasidan qoniqmaslik sababli yuqori natijaga erishish uchun 30 %;
- moddiy rag‘bat uchun, maoshini yuqori darajada olish uchun 30%.

So‘rov natijalaridan ko‘rinib turibdiki, shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun qo‘shimcha bilim olish, ijodkorlik bilan shug‘ullanish 60% respondentlarda yaqqol ifodalangan bo‘lib, tadqiqotda ishtirok etgan faqatgina 30% respondentlar moddiy ta’minotini yaxshilash uchun izlanishlar bilan shug‘ullanar ekan. Bizningcha, bu ko‘rsatkichning zamirida o‘zbek milliy xarakterida ifodalangan bosiqlik, xayrihohlik, andishalik yaqqol ifodalangan bo‘lib, bu guruhdagai respondentlarda ma’naviy qadriyatlarning dominantligi kuzatilmoqda.

[1]Толочек В.А. Современная психология труда. – СПб.: Питер, 2005, Туник Е.Е. Психодиагностика творческого мышления: Креативные тесты. –С-Петербург: Спб, 1997.

Agarda har qanday ongli harakatni amalga oshirishda ichki yoki tashqi motivlar bevosita ta’sir ko‘rsatishini inobatga olsak, tadqiqotda qatnashgan respondentlar uchun quyidagi motivlar ularni innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishlari uchun muhim emasligini ko‘rsatadi:

- istiqbolda o‘zining kasbiy faoliyatiga arzigullik baho olish 10%;
- olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llashga intilish 10%;
- kashfiyotni amalga oshirish uchun izlanishlar olib borish 10%;
- etakchilikka intilish 10%;
- yuqori kasbiy natijalarga erishish 10%.

Ijtimoiy-psixologik munosabatlar nazariyasi hamda boshqaruv psixologiyasining qonuniyatlaridan ma’lumki[1], har bir jamoa guruh a’zosi o‘zining ijtimoiy mavqeini egallash uchun u yoki bu tarzda o‘z iqtidorini namoyon etish uchun intiladi. Ammo ijtimoiy-psixologik tadqiqotimizda qatnashgan 10% talabalarda bu ijtimoiy-psixologik xususiyat ifodalanmagan. Kontent tahlil uslubi yordamida respondentlarni o‘quv faoliyatining natijalarini pedagogik baholanishini (reyting daftarchalari, qaydnomalar va b.) o‘rganganmizda, 16,7 % respondentlarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichi “Yaxshi” (71,0 ball va undan yuqori) hamda “A’lo” (86,0 ball va undan yuqori) ekanligi aniqlandi. Bu shundan dalolat beradiki, o‘quv faoliyatini to‘g‘ri baholanganligi ularda intelektual “Men”ni barqaror rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Oliy ta’lim muassasasida olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llab ko‘rish ishtiyoqi past bo‘lgan talabalar 10% tashkil etgan. Bizningcha, bu toifadagi talabalar istiqbolda o‘zlari egallayotgan ixtisoslik bilan shug‘ullanmasdan, turdosh ixtisoslik yo‘nalishida faoliyat olib bormoqchilar. CHunki tadqiqotda ishtirok etgan 14,2 % respondent “Siz egallayotgan kasbingizni o‘z qiziqishlaringiz asosida tanlaganmi?” degan savolga “Talaba bo‘lish ishtiyoqi meni bu yo‘nalishga olib kirdi” degan javoblarni berdi.

Innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishda tadqiqiy qobiliyatga ega bo‘lishi bilan birga bilim olishga intilish talab etiladi. Tadqiqotda ishtirok etgan 10 % respondentlarni bu motiv unchalik ham muhim emas deb ko‘rsatganliklari,

[1]Андреева Г.М. Психология социального познания: Учебное пособие. - М.: «МОДЕК», 1997. – 342 с.

o‘zlariga bo‘lgan kasbiy ishonchning shakllanmaganligida dalolat beradi. Bu ko‘rsatkich talabalarda kasbiy ishonch hissini shakllantirish uchun “Men va kasbiy dunyo”, kasbi bilan obru-e’tiborga sazovor bo‘lganlar mavzusida psixologik ma’rifat o‘tkazishni taqozo etadi.

Ijtimoiy-psixologik so‘rov natijalari shuni ko‘rsatdiki, etakchilikka barcha talabalar bir xil tarzda qiziqmaydi. Masalan, 10% respondentlar uchun yangilik yaratib, kashfiyotlarni bajarib, jamoada etakchilikni qo‘lga kiritish maqsad emas. Chunki ular ijtimoiy faolligi bilan, kursdoshlarining turli yumushlariga amaliy yordam berish hamda talabalar jamoasida ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish bo‘yicha o‘z o‘rinlarini egallab bo‘lganlar. Ular uchun navbatdagi rivojlanish bosqichi bu istiqbolda kasbiy faoliyat doirasida yuqori natijalarga erishishdan iborat.

Tadqiqotda ishtirok etganlarning 51%ida innovatsion faoliyatga motivatsion tayyor turish o‘rta darajada ifodalangan bo‘lib, 33% respondentlarda motivatsion tayyorgarlik past ifodalangan. Bilim-amaliyot-mutaxassis-jamiyat kabi ijtimoiy-psixologik munosabatlar tizimida bu toifadagilar eng past o‘rinni egallashlari mumkin. Bizning vazifamiz esa shiddat bilan rivojlanib borayotgan Yangi O‘zbekistonda yaratuvchanlik bilan shug‘ullana oladigan, kasbiy burch va mas’uliyatni seza oladigan yosh mutaxassislarni tarbiyalashdan iborat. YOshlarga oid davlat siyosatida ko‘rsatilishicha, ertangi kunimizning egalari shular sanaladi. Tadqiqotda ishtirok etganlarning faqatgina 16%idagina innovatsion faoliyatga tayyorgarligi yuqori darajada ifodalangan.

Professor S.Mirzaevning ta’kidlashicha, 2018-2021 yillar davomida O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi va boshqa vazirlik va qo‘mitalar uchun hamda ilmiy tadqiqot markazlarini qayta ta’mirlash uchun 116 milliard so‘m ajratilgan va 32,2 million AQSH dollari miqdorida zamonaviy ilmiy laboratoriyalarini jihozlash uchun sarflanadi[1]. Agarda Fanlar Akademiyasi vitse prezidentining keltirgan ma’lumotlariga, mavzuimizning dolzarbligi nuqtai nazaridan yondasak, 32,2 million AQSH dollari miqdorida barpo etilgan ilmiy laboratoriyalar va sotib

[1] Мирзаев С.З. Реформирование научно-исследовательской деятельности в Узбекистане: инновационный подход. // XX1 аср –интелектуал ёшлар асри. Республик илмий ва илмий-техник анжуман материаллари.- Тошкент, 2018. -Б. 6.

olingan uskunalar, bevosita ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadiki, talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash mamlakatimiz miqiyosida olib borilayotgan siyosatning mantiqiy davomi sanaladi.

Bugungi kunda ta’lim tizimini rivojlantirish maqsadida o‘quv-tarbiya jarayoniga innovatsiyalarni tadbiq etish ta’lim muassasalarining istiqboli uchun harakatlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi. Ta’limning globallashuvi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilayotgani ta’lim muassasalarida ta’lim sifatining oshishiga sabab bo‘lmoqda.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta’lim tajribalarini o‘rganish so‘nggi yillarda ta’lim samaradorligini ta’minlovchi muhim omil – pedagogik texnologiyalar va ularning imkoniyatlari ekanligini ko‘rsatdi. SHu sababli ta’limiy islohotlarning muhim yo‘nalishi o‘qitish ishlarini tashkil etadigan va barkamol shaxs tarbiyasi uchun mas’ul bo‘lgan muassasalar faoliyatiga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni samarali tashkil etishdan iborat etib belgilandi.

Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, xorijiy mamlakatlar ta’lim tajribalarini o‘rganish bilan bir qatorda xorijiy ta’lim muassasalari bilan ikki tomonlama tajriba almashishni yo‘lga qo‘yish yurtimizda izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Xukumatimizning ta’lim sohasiga doimiy e’tibori natijasida o‘tgan yillar davomida yurtimizda jahondagi nufuzli universitetlari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatildi. Buning natijasida Toshkentda Buyuk Britaniyaning Xalqaro Vestminster universiteti ish boshladi. I.Gubin nomidagi Rossiya neft va gaz davlat universiteti, Italiyaning Turin politexnika universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, G.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi, M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiallari kabi yuksak xalqaro obro‘- e’tibor va chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan evropa va Osiyoning etakchi oliy o‘quv yurtlarining filiallari tashkil etildi hamda muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda.

Yangilik kiritishda tashxis qilish usullarini ikki guruhga ajratish mumkin: birinchi guruh-yangilik haqidagi bilimlar olishga qaratilgan usullar: ikkinchi guruh- innovatsion jarayon tashkiliy doirasini baholashga qaratilgan usullar.

Shunga qaramay, odatiy usullar innovatsiya tashxis mantiqiga bo‘ysunadi.

Birinchidan, yangilik kiritish haqidagi standartlar to‘plamini o‘z ichiga oluvchi jarayon sifatida qarab chiqiladi. Tadqiqotchi o‘z faoliyatini nimaga qaratilganiga qarab bu jarayonning ikki tushunchasi shakllanadi. Birinchi holda, uning mazmuni qaror qabul qilish mantiqi deb hisoblansa, ikkinchi holda, jarayonning asosi, yangilik kiritishning hayotiy sikli deb olinib, uning bosqichlarining ketma-ketligiga qaraladi.

Ikkinchidan, yangilik kiritishning o‘ziga xos yuzaga keluvchi va rivojlanuvchi oddiy jarayon deb qarash mumkin. SHu munosabat bilan shunday tashxis predmetlari tarqatiladiki, uning natijasida innovatsion jarayon va muhit rivojlanadi.

Tajriba olib borish davrida test topshiriqlarining turli variantlarini qo‘llab ko‘rildi.

Bu testlar pedagogika universitet talabalari va boshlang‘ich sinflar o‘qituvchilariga taklif etildi. Ushbu testlar mazmunini keltiramiz:

1. Talabalardan bir vaqtning o‘zida ikki faoliyatni bajarish zarur bo‘lgan vaziyatda yuzaga keladigan muammolarni yozib borishni taklif etiladi: yangi materiallarni tushuntirish va direktor qabuliga borishga tayyorlanish, daftarlarni tekshirish va o‘quvchi javobini tinglash, telefon orqali gaplashish va bolalar shovqinini tinchlantirish va boshqalar.

2. «Muammolarni hal etib borish» testi. Talaba va o‘qituvchilarga quyidagi mazmunda yuzaga keladigan muammolarni ko‘rsatib berish taklif etiladi: maktabda aniq dars o‘tkazish; yosh o‘qituvchi va rahbarlar o‘zaro munosabati darsga tayyorlanish; bolalar bilan tarbiyaviy ishlar olib borish; yangi dastur bilan ishlash; maktab kutubxonasi, bolalar va ota-onalar bilan munosabatlar; maktab oshxonasi. Bu test qobiliyatda ijodkorlik uchun muhim bo‘lgan muammolarni ko‘ra bilish, ochish qobiliyatini aniqlash uchun mo‘ljallangan.

3. «Oqibat, natija»test. Tekshirilayotgan maktabda mumkin bo‘lgan odatdan tashqari hodisalar oqibatlarini sanab o‘tish taklif etiladi, masalan, agarda o‘quvchilar darsda ota-onalar bilan birga shug‘ullansalar nima bo‘ladi: agar

maktabda darslar 10 daqiqa, tanaffuslar esa 40 daqiqa bo‘lsa, nima sodir bo‘lishi mumkin, agarda o‘quvchilar o‘zlari o‘qituvchini tanlasalar, maktabda ma’muriyat bo‘lmasa, nima bo‘ladi: agarda maktab harakatlanuvchi /g‘ildirakli harakat vositasida/ bo‘lsa nima bo‘ladi?

4. «Qo‘llash» testi. O‘quvchilarga dars paytida quyidagi predmetlarning har biridan foydalanish variantlarini sanab o‘tish taklif etiladi: qalam, qog‘oz, skrepkalar, gazeta, jurnal, sterjen, tugmacha, qopqoqcha, tish cho‘tkalari. Bu test bir turkum tushunchadan boshqa erga o‘tish qobiliyatini aniqlash hamda fikrlashning o‘ziga hosligini aniqlashga imkon beradi. Ko‘rinib turibdiki, har bir topshiriqlarda qandaydir mahsulot, qandaydir natija yaratish talab qilinadi. SHu bilan birga maxsulot hususiyatlari turlicha bo‘lishi mumkin, xuddi ana shunda o‘qituvchining ijodiy faoliyati mexanizmlari, kreativlik mexanizmi rivojlanishi darajasi ko‘riladi. Tashxisni takomillashtirish innovatsion faoliyat va mexanizmlari rivojlanishiga teskari ta’sir ko‘rsatadi, bu o‘z navbatida yangi tashxis vositalari yuzaga keltirishiga turtki bo‘ladi.

Bu, eng avvalo, ijodiy faoliyatning faqatgina natijalarini tashxis qilish bilan tez orada qaysi yo‘l bilan qanday mexanizmlar yordamida u yoki bu ijodiy natijaga erishish mumkinligini aniqlash kerakligiga olib kelishida ifodalanadi, ya’ni «natijalar bo‘yicha» o‘zini ham tashxis qilish zarur bo‘ladi.

Yuzaga kelgan alohida pedagogik texnologiya sohasi, tashxis vositalari rivojlanishning yangi bosqichga o‘tishi, pedagog turli yo‘llar bilan aniq texnologiyalar shaklida ijodiy faoliyat ko‘rsatib qanday ijodiy samaradorlikka erisha olish mumkinligini o‘z ichiga olgan o‘qituvchi kreativligi turlicha bo‘lgan tashxisni rivojlanishiga olib keladi. Bu hol har bir pedagog uchun uning kreativligi ko‘p o‘lchovli model ko‘rinishi haqida gapirishga imkon beradi. Unda kreativlikning turli texnologik ko‘rsatkichlari, turli predmet sohalariga munosabati, har bir texnologiyaning keng olib borishi darajasi bilan ta’rif etilgan bo‘ladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ijodiy faoliyatni o‘rganishga qaratilgan metodikalar sonining keskin o‘sib borishiga qaramay ular baribir etishmayapti. SHu kabi testlarni ishlab chiqish va ularning kerakligini aniqlashda ma’lum

qiyinchiliklar mavjud, o‘ylaymizki hamma tomonlarni qamrab oluvchi tashxis qo‘llanmalarini ishlab chiqish o‘qituvchi innovatsion faoliyatini rag‘batlantirishni, o‘rganish, tashxis qilish bilan bog‘liq psixologik-pedagogik masalalardan biri bo‘lib qolishi kerak.

Innovatsion jarayonda o‘z pozitsiyalarini aniqlash uchun «kelajakni tasavvur etish» uslubi qo‘llanib, u o‘qituvchini mumkin bo‘lgan vaziyatlarga faol tayyorlash va shunga muvofiq yo‘l tutishga yordam beradi.

Rollar pozitsiyasini tashxis qilish uchun vaziyat treningi katta ahamiyatga ega. Bu esa innovatsion jarayonning hamma ishtirokchilari bilan munosabatni o‘rnatishda o‘z pozitsiyasini mustahkamlash uchun u yoki bu ijtimoiy mahoratni yuzaga keltirishga qaratilgan. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, yangilik kiritish jarayoni ziddiyatlar, ba’zida kasbdoshlar, ma’muriyat va ota-onalar o‘rtasida nizolar keltirib chiqaradi.

3.2. Talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini ajratish

Innovatsion faoliyatning ijtimoiy-psixologik xarakteristikasini o‘rganish dasturi asosida “Innovatsion faoliyat haqida nimalarni bilasiz?” - degan savolga respondentlarning javobini o‘rganib chiqdik. So‘rovlar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, innovatsiyaviy faoliyatning mohiyatini talabalarning 45 %i tushunadi, 15 % respondentlar innovatsion faoliyatni shunchaki, maishiy muloqot darajasidagi mazmunini tushunadi. 12% respondentlar esa savolga javob bermaganlar. 15% respondentlar innovatsion faoliyatni tushunmasligini, qolgan 13%i esa dixomatik tarzdagi javoblar bilan chegaralangan.

Respondentlarning tasavvurida har qanday yangi bo‘lgan narsa yoki predmet innovatsion faoliyatning natijasi sanaladi.

SH.T.Kubaeva innovatsion tafakkurni falsafiy nuqtai nazardan o‘rganib, uningcha ustuvor faoliyat sifatida yangi g‘oyalar, konsepsiyalar va loyihalarni ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan tafakkurni shunchaki, umumiy emas, balki

innovatsion tafakkur deb belgilashga asos bor deb ta'kidlaydi[1]. Bizningcha innovatsion tafakkurni ontologik jihatdan o'rganishda tafakkur sub'ektining yosh xususiyatlari va etnomadaniy muhitning ta'siri inobatga olinishi lozim, chunki, innovatsion faoliyatning psixologik zamirida obrazlar, ramzlar, ma'nolar, xukmlarning ixtiyoriy assotsiatsiyasi ularning o'zaro semantik ta'siri mujassamlashgan bo'lib, yangi obraz va tasavvurlarning paydo bo'lishida idrok belgilovchi sanaladi.

I.Abdullaeva taraqqiyotning yangi bosqichida iqtisodiy va innovatsion tafakkurning uyg'unligini ijtimoiy-falsafiy jihatdan o'rganib, muallifning fikricha, innovatsion izlanishlarni regulyasiyasi ma'lum bir me'yorlar asosida tartibga solinishi shart. CHunki innovatsion bilimning navbatdagi pag'onasi ishlab chiqarish texnologiyalari bilan bog'liq[2]. Agarda navbatdagi pag'ona moddiy resurslar kapitali va tabiiy resurslar kapitali deb atalsa, ularni qurish, ijaraga berish yoki ijaraga olish bevosita huquqiy darajada sub'ekt-sub'ekt va sub'ekt-ob'ekt kabi munosabatlarni tartibga solishni talab etadi. Bunda ijtimoiy-psixologik mexanizmlar bevosita amal qiladi va munosabatlar mazmundorligini (samarali, samarasiz) ta'minlaydi. Tadqiqotchi esa bu masalaga falsafiy yondashib, xususiy tarkiblarning ishtirokini inobatga olmagan.

Innovatsion tafakkur, innovatsion ijodkorlik, innovatsion faollik va innovatsion tashabbuskorlik mezonlarini o'rgangan A.Saitqosimov jamiyatda innovatsiyalarni joriy etishni muvofiqlashtirish, natijalarini esa davlat siyosati amaliyotiga moslashtirishni muvafaqqiyatli kechishi uchun "Innovatsion tadqiqot markazlarni tashkil etishni" ko'rsatib o'tgan. Uning fikricha, oliy ta'lim tizimida klaster tizimini joriy etish, oliygohlar qoshida maktablar, bog'chalar, texnopark

[1] Кубаева Ш.Т. Ўйин ва инновацион тафаккур (онтологик ва гносеологик таҳлил) // Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. – Самарқанд, 2019. - Б. 16. (Умум. 49 б.)

[2]Абдуллаева И.Ғ. Миллий тараққиётнинг янги босқичида иқтисодий ва инновацион тафаккур уйғунлиги // Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. - Самарқанд, 2019. - Б.19. (48 б.)

kabilarni tashkil etib, ishlab chiqilgan mahsulotlarni miqyosini kengaytirish uchun tijoratlashtirish lozim[1].

Innovatsiya tushunchasi tarkibida dinamik barqarorlashtirish, yangilash va takomillashtirish kabi uchta ichki aloqadorlikda amal qiluvchi funksiyani bajaruvchi tarkiblar mavjud bo‘lib, ular o‘zaro aloqadorlikda “Inson-inson”, “Inson-Ijtimoiy guruh”, “Inson-Ishlab chiqarish jarayoni-Kasbiy faoliyat samaradorligi” kabi ijtimoiy-psixologik munosabatlarni ravnaq topishni ta’minlaydi. SHu sababli talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirish quyidagi ijtimoiy-psixologik jihatlari bilan ajralib turadi:

- talabalar innovatsion g‘oyalarning tashuvchisi sifatida uning yaratuvchisi va iste’molchi sub’ektini sanalib, innovatsion bilimlarni kasbiy faoliyatda qo‘llashni ta’minlovchilar sanaladi;
- talabalarning hayoti va o‘quv faoliyati davomida vujudga keladigan vaziyatlar, ularni raqobatga dosh berishlarini ta’minlashi lozim. Ya’ni, innovatsion g‘oyalarni tadbiq etish uchun bir qator kompetensiyalarga egalik qilish bilan dominatlik qilishlarini oliy ta’lim tizimida tahsil olish davomida shakllantirish maqsadga muvofiq;
- talabalar innovatsiyaning ijobiy baholanishi yoki tanqid ostiga olinishiga ochiq turishlari lozim. Bu o‘z navbatida ularning shaxsida kreativlik, ya’ni tafakkurning mobilligi, tamoman yangi g‘oyalarni ilgari surish bilan birga, ularning maqbulligini asoslay olish hamda streotiplarga tanqidiy yondasha bilishlari lozim. Buning uchun ular o‘zlariga ishonch bilan ma’lum xulq modelini birovlarga ziyon etkazmasdan turib, ko‘rsata olishlari talab etiladiki, bu innnovatsion faoliyatning madaniy jabhasi sanaladi. Talabalar o‘zlarining “Men” siymosini tanqidiy baholay olish bilan birga, o‘zgaruvchan hayotiy vaziyatlarda o‘zlariga nisbatan adekvant baho berishlari lozim bo‘ladiki, bu ularda refleksivlikni ta’minlashni taqozo etadi.

[1] Саитқосимов А.И. Фуқаролик жамиятини барпо этишда ижтимоий соҳани инновацион ривожлантириш қонуниятлари // Фалсафа фанлари бўйича фан доктори (DSc) дисс. автореферати. – Самарқанд, 2019. (61-бет.)

Talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirishda resurslarni belgilash alohida o‘rin tutadi. Bular quyidagilardan iborat:

ijtimoiy madaniy asos: huquqiy me’yoriy, professional texnologik, shaxsiy-kasbiy jihatlarni o‘zida mujassam etadi;

metodologik asos: talaba shaxsini o‘zini namoyon etish, qadriyatli-faoliyatli yondashuv asosida kompetentligini shakllantirishning ilmiy asosini belgilab berish bilan birga ijtimoiy muhitda amal qilayotgan me’yorlarni ilmiy asoslash imkonini beradi;

nazariy asos: talabalarga maqsadli yo‘nalish berishning g‘oyasini, maqsadini belgilab, tushunchaviy kategoriyalarini mazmun-mohiyatini etnopsixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda asoslab beradi;

yadroviy asos: talabalarning muloqot jarayonida ishonch, empatiya kabi prinsiplarga amal qilishini (K.Rodjers ta’limoti asosida) qadriyatli- mazmunli tarzda amal qilishini ta’minlaydi.

Innovatsiya bugungi kunda quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

- anologli innovatsiya, ya’ni innovatsiya klassik metodlarning prinsiplariga asoslanib, uning ayrim xususiy qismlariga o‘zgartirishlar kiritiladi;
- kombinatsiyalashtirilgan innovatsiya. Bunda yangi yondashuvga erishish uchun mavjud ta’limiy bloklar birlashtiriladi;
- retro innovatsiya, ya’ni qachonlardir mavjud bo‘lgan va qo‘llanilmaydigan metodlarni yangidan faoliyatda qo‘llash;
- mohiyatli innovatsiya, ya’ni mavjud bo‘lgan ammo amaliyotda qo‘llanilmagan metodlar.

Nazariy jihatdan har qanday innovatsiya bevosita biron-bir faoliyat sohasiga taalluqli bo‘ladi. SHu sababli innovatsiya muallifi o‘z g‘oyasini amaliyotda qo‘llanilishining samara berishini anglashi kerak. Buning uchun kasbiy tayyorgarlikning darajasi yuqori bo‘lishi lozim. Innovatsiyalar tarbiyaviy, ta’limiy, boshqaruv hamda ishlab chiqarish sohalariga daxldor bo‘lib, yangi O‘zbekistonda talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash “ta’lim muassasasi-jamiyat-ishlab chiqarish-ishlab chiqaruvchi-iqtisodiy samaradorlik” kabi munosabatlar tarzida

ifodalanadi. Yangi g‘oyani amaliyotga tadbiq etish bu mavjud bo‘lgan metodlarni takomillashtirishni taqazo etadi. SHu sababli ta’lim muassasalarining talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda o‘rni muhim sanaladi.

Bundan tashqari, talabaning innovatsion faoliyatga tayyorgarlik mezonlarini belgilashda davlatni rivojlantirish strategiyasini, shuningdek ta’lim tizimini rivojlantirishni ham hisobga olish lozim.

Shu tariqa, o‘tkazilgan tahlil natijalaridan va ta’limda innovatsion faoliyatning muhim jihatlaridan kelib chiqib, biz talabaning innovatsion faoliyatga tayyorgarligining asosiy mezonlarini quyidagicha belgiladik:

- talaba tomonidan innovatsiyani shaxsiy qadr-qimmat sifatida qabul qilish, unga bo‘lgan ehtiyojning mavjudligi, innovatsionrejimda ishlash zarurligiga ishonch va o‘zining mehnat natijalariga mas’uliyati;

- innovatsiya sohasida nazariy bilimlar mavjudligi;

- innovatsion texnologiyalar, usul va uslublarini qo‘llashda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi.

Mezonlarni tayyorgarlikni tashkil qiluvchilarga o‘tkazish bilan, K.K.Platonovning shaxs strukturasining tadqiqotida, V.I.Slobodchikovning faoliyatning me’yoriy strukturasiga vainnovatsion hamjamiyatning asosiy kompetensiyalarigatayangan holda, innovatsion faoliyatga talabaning tayyorgarlik darajalarini belgilab oldik va ularni qo‘yidagicha tavsiflash mumkin:

Demak, to‘rtinchi – yuqori daraja, talabaning innovatsion faoliyatga to‘liq shayligini aks etadi, uchinchi – o‘rta, to‘liq emasligini, ammo amaliyot natijasida oson bartaraf etilishini bildiradi, ikkinchi – o‘rtadan pastroq, to‘liq emasligini, talabaning ta’limni tashkillashtirish bo‘yicha katta mehnati natijasida bartaraf etilishini ko‘rsatadi, birinchi – past daraja – shaylik uzoq davom etiladigan o‘zini tarbiyalash, o‘quv va treninglar natijasida shakllanishi mumkin.

Agar talaba tayyorgarlikning birinchi yoki ikkinchi darajalarida bo‘lsa, u holda unga bilim va ko‘nikmalarini boyitish va innovatsion faoliyatga jalb etish, uning ushbu kasbda harakatlanish individual traektoriyasini (yo‘nalishini) yaratish asosida innovatsion faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishi uchun kerak bo‘lgan

innovatsion kompetentlikni shakllantirish uchun kerakli sharoitlar yaratilishi lozim. Tayyorgarlikning uchinchi va to‘rtinchi darajalarida bo‘lgan talabalar uchun refleksiv-tahliliy va loyihali tadbirlar shaklida ularning professional rivojlanishi uchun kerakli ko‘mak berilishi lozim. Bundan tashqari ta’kidlash joizki, innovatsion faoliyatga talabalarning tayyorgarlik darajalarining mazmunli parametrlari (ko‘rsatkichlari) keltirilgan, ularni kerak bo‘lgan hollarda boshqacha shaklga keltirilishi (miqdoriyga o‘tkazish)mumkin

Talabalarning innovatsion faoliyatni amalga oshirishga tayyorgarligini muhokama qilayotib shuni ta’kidlash kerakki, shaxsning asosiy sifatlari orasida, kompetentlik bilan bir qatorda, innovatsion faollik muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatmoqda, bu esa, ijodiy faoliyat dinamikasida o‘sib intellektual tashabbuskorlik darajasida namoyon bo‘ladi.

Innovatsion faollik sub’ektning faoliyat normalaridan tashqariga chiqishini nazarda tutadi.

Talabaning innovatsion faoliyatga tayyorgarlik mezonlari va parametrlarini ishlab chiqish asosiga, biz tomondan “shaxs” tushunchasi qo‘yildi, chunki shaxsiy rivojlanish o‘z ortidan professional rivojlanishni chorlaydi. SHuning uchun biz, birinchi o‘ringa shaxsiy sifatlar blokini, ikkinchi o‘ringa – innovatsion faoliyatga bir qator tayyorgarlikdan so‘ng namoyon bo‘ladigan professional sifatlarni qo‘ydik.

Mezonlar va parametrlar ko‘rsatkichlari asosida talabaning innovatsion faoliyatga tayyorlash dasturlarini tuzishga va ushbu faoliyatni mintaqaviy va mamlakat darajasida kuzatishgaimkon yaraladi; talabaning innovatsion shakllanish kompetentligi natijadorligini monitoringli tadqiqlarni o‘tkazishga imkon bo‘ladi.

Ta’sir etishning pedagogik texnologiyasi yig‘indisida pedagogik texnika alohida o‘rin egallaydi. Bu element ta’sir etish quroli - pedagog organizmini ta’minlaydi. Sahnaga tayyorgarliksiz, sozlanmagan asbob bilan chiqqan musiqachini tasavvur qilish qiyin instrumentning sozlanishi psixologik apparatni tayyorlashdan iborat. Bunda nafas olishga e’tibor beriladi, ovoz sozlanadi, plastik va mimik ifoda mashqi, maxsus mashqlar yordamida ritm tezligiga erishiladi, xis-

tuyg‘ular boshqariladi va boshqalar.

Har bir elementda pedagogik ta’sirning 3 funksiyasi jamlashtirilgan: subektni faollashtirish, faoliyat usullari bilan qurollantirish va individual tanlovga rag‘batlantirish. Agar amaliyotda o‘qituvchi bu elementlarning birini ishlatmasa, bunday kasbiy chegaralanish o‘quvchini ob’ekt darajasida qoldirib, o‘qituvchi unga ta’sir etadi. Ko‘rsatmalarning bajarilishini ko‘rsatadi va baholaydi.

Pedagogik texnologiyani egallash qisqa (yoki davomiy) ta’sir etish davrida tizimning barcha elementlarini ishlatish va egalik qilishdir. Bu egalik ko‘nikma darajasida bo‘lib, pedagog nima qilish kerakligi haqida o‘ylamasdan, texnologik to‘g‘ri ta’sir etishi, hosil bo‘lgan vaziyatni kompleks tarzda hal etishi lozim.

Bu operatsion blokda texnologik ta’sir tizimi hosil qiluvchi, funksional blok yoritiladi. Bu: pedagogik muloqot, pedagogik baho, pedagogik talab, pedagogik nizo, informativ -ta’sir.

Bu elementlarning namoyish etish darajasida ta’sir etish instrumenti sifatida organizmni psixofizik tayyorgarligiga bog‘liq.

Natijada, keng ko‘lamli texnologik echim pedagogik ta’sirning umumiy funksiyalarini faollik, faoliyat usullari bilan qura olmaganlik rolining amalga oshirishni ta’minlaydi. Belgilangan funksiyani kalit operatsiyali aniqlangan elementlari pedagogik texnologiyalar vaqtini hosil qilib, pedagog uchun tarbiyalovchiga ta’sir etish bo‘yicha zarur bo‘lgan tizim bilan ta’minlaydi. Lekin shu bilan pedagogik texnologiya mohiyati tugamaydi: qo‘shimcha elementlar, psixologik iqlim, guruh, faoliyat, pedagogik ta’sirlanish, muhit tayyorgarligi va boshqalar umumiy yoki xususiy xarakterga ega bo‘lib qoladi . Bu operatsion, variativ holat o‘qituvchiga shaxsiyatini saqlab, ta’sir etish shakllarini almashtirishga yo‘l qo‘yadigan holatga ham taalluqli.

Ta’lim nuqtai nazaridan interaktiv texnologiyalar-bu ishtirokchilarning shaxsiy maqsadlari aks etgan kontekstda voqelik imkoniyatlarini ko‘pchilik tomonidan dialogik izlanishiga asoslangan o‘yinlardir.

3.3.Empirik tadqiqotlar natijasining ijtimoiy-psixologik tahlili

Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorgarligini ta’minlash uchun ularga sohaga oid yangi axborotlarni etkazish lozim bo‘ladi. CHunki axborot vositasida ularning innovatsion faoliyatni yo‘nalishi belgilanadi. SHu sababli biz ijtimoiy-psixologik tadqiqot davomida Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda qobiliyatlarini baholash xaritasidan foydalandik. Emipirik tadqiotlar davomida jamlangan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ijodiy va motivatsino orientatsiya 80% respondentlarda yuqori darajada ifodalangan va 20% respondentlarda o‘rta darajada ifodalangan. Bu ko‘rsatkich shundan dalolat beradiki, talabalar istiqboldagi faoliyatini samaradorligini ta’minlash uchun o‘z kasbiy faoliyatlariga ijodiy jihatdan yondashishlari lozim bo‘ladi. SHu sababli ular sohaga doir bo‘lgan kashfiyotlarning natijalaridan xabardor bo‘lishlari talab etiladi. Respondentlarning 53%ida kreativlik yuqori ifodalangan bo‘lib, ularning 47%ida bu ko‘rsatkich o‘rta ifodalangan bo‘lib, 47%ni tashkil etadi. CHunki muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanishda kreativlik[1] talaba shaxsining ijodiy qobiliyatini, faoliyatga nisbatan yangicha tarzda munosabatda bo‘lishni ta’minlaydi, ya’ni yangicha echim, yangi usul vositasida yaratuvchanlik bilan shug‘ullanadi. 67% respondentlarda innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanish uchun sifatlarining tahlili yuqori ifodalanganligini ko‘rsatdi. Bu talabalar amaliyotda mavjud bo‘lgan usul va vositalarni kasbiy faoliyatning samaradorligini ta’minlash jihatidan biron bir elementini o‘zgartirib (takomillashtirib), qo‘llay olishga qodir ekanliklarini ko‘rsatdi. 33% respondentlarda esa bu ko‘rsatkich 33%ni tashkil etadi. SHu sababli oliy ta’lim muassasalarining yuqori bosqich talabalari uchun kasbiy faoliyatni takomilashtiruvchi psixologik omillar haqida ma’lumotlar berish tavsiya etiladi. Lekin ularni individual-shaxsiy sifatlari ham innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishga mos tushishi lozim bo‘ladiki, tadqiqotda qatnashga 67% respondentlarda bu ko‘rsatkich yuqori darajada ifodalangan va 13 %

[1] Креативлик (инг.creative – ижодий, яратувчи) – шахснинг нисбатан барқарор тавсифини ташкил этувчи ижодий қобилият, ижодга бўлган лаёқат даражаси; қандайдир янгини яратишга бўлган ўқув. Саидов М.Х., Перегудов Л.В., Тоҳиров З.Т. Олий таълим (луғат-маълумотнома). – Тошкент: “Молия”, 2003. - Б. 152.

respondentlarda o‘rta darajada ifodalangan. Bu ko‘rsatkichlar shundan dalolat beradiki, talabalarni innovatsion faoliyatga

tayyorlashga doir o‘tkazilgan psixologik ma’rifat tadbirlari samarali sanaladi.

Tadqiqot jarayonida M.Rokichning qadriyatlar yo‘nalganligini aniqlash metodikasidan foydalanildi. Mazkur metodikani ishlatishdan asosiy maqsad talabalarda innovatsion faoliyatga psixologik tayyorlikning qadriyatlar bilan bog‘liqliklarini tadqiq qilishdan iborat edi. Empirik tadqiqotlar natijasining ijtimoiy-psixologik tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘g‘il va qiz bolalar o‘rtasida qadriyatlarni tanlashda deyarli farq yo‘q. “Qiziqarli ish” va “Yuqori talablar” qiymatlari bundan mustasno.

3.1-jadval

Qadriyat yo‘nalishlarining farqlari (M.Rokichning qadriyatlar yo‘nalganligini aniqlash metodikasi asosida)

		O‘rtacha rang (qiz bolalar)	O‘rtacha rang (o‘g‘il bolalar)	U_{emp}	R
Terminal qadriyat	Faol hayotiy faoliyat	8,63	7,62	713,00	0,27
	Qiziqarli ish	8,10	10,47	**564,00****	**0,01**
	Ommaviy e’tirof	12,12	11,32	741,50	0,40
	Bilimi	10,47	10,91	775,00	0,59
	Samarali hayot	11,31	9,47	668,00	0,13
	Erkinlik	9,59	9,35	815,00	0,87
	Boshqalarning baxti	14,59	12,94	738,50	0,38
	Ijodkorlik	13,12	13,09	779,00	0,62
	O‘ziga ishonch	6,69	7,50	737,00	0,37
Instrumental qadriyat	Yuqori talab	14,84	10,41	**570,00****	**0,01**
	Mustaqillik	9,22	8,68	784,50	0,65
	Ma’lumot	8,41	8,15	801,50	0,77
	Mas’uliyat	5,86	7,24	689,50	0,18
	Ratsionallik	10,00	8,12	631,50	0,06
	O‘zini boshqarish	8,27	8,85	769,00	0,55
	Jasorat, o‘z fikrida qolish	8,82	9,15	793,50	0,71
	Tolerantlik	10,69	11,53	743,00	0,40
	Ishdagi foydasi	8,47	9,85	687,50	0,18

Ayniqsa, qizlar o‘rtasida “Qiziqarli ish” darajasi o‘g‘il bolalarga qaraganda ancha yuqori. “Yuqori talablar” darajasi esa qizlarga qaraganda o‘g‘il bolalarda ancha yuqori. 3.1-rasmda o‘g‘il va qizlarning “Qiziqarli ish” va “Yuqori talablar” qiymatlari bo‘yicha daraja ko‘rsatgich foizlari ko‘rsatilgan. Bu tarzda ijtimoiy-psixologik xarakteristikalar boshqa tadqiqotlarda ham kuzatiladi[242].

O‘g‘il bolalar (n=34) va qizlar (n=49) orasidagi farqini bilish maqsadida matematik statistikaning Manna-(U) Uitni mezonidan foydalanildi.

3.3.2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, qizlarning 30,61%ida “Qiziqarli ish” qiymati ancha yuqori darajada (3-5), 10,2%ida esa past darajada (13-18). Aksincha, o‘g‘il bolalarda 38,24% ida “Qiziqarli ish” qiymati ancha past darajada (13–18), 14,17% ida esa yuqori darajada (3-5). “Yuqori talablar” qiymatiga kelsak, bu holda qarama –qarshi ko‘rsatkich faqat qizlarda kuzatiladi: qizlarning 4,08 %i bu qiymatni birinchi o‘ringa (1-5), 79,59 %i – oxirgi o‘rinlarga (13-18) qo‘yishgan. O‘g‘il bolalar noan’anaviy ko‘rinishdagi “Yuqori talablar” qiymatini birinchi (1-2 va 5; 32,35%) va oxirgi o‘rinlarga (16-18; 47,06%) qo‘yishgan.

3.2-jadval.

“Qiziqarli ish” va “Yuqori talablar” (n=83) qiymati bo‘yicha har xil darajasidagi o‘g‘il va qizlarning ulushi

	Qiz bolalar (n=49)		**O‘g‘il bolalar (n=34)**	
Rang	**Qiziqarli ish**	**Yuqori talab**	**Qiziqarli ish**	**Yuqori talab**
1	0,00	0,00	0,00	17,65
2	0,00	0,00	0,00	8,82
3	10,20	2,04	5,88	0,00
4	14,29	2,04	5,88	5,88
5	6,12	0,00	2,94	0,00
6	8,16	2,04	8,82	2,94
7	8,16	0,00	2,94	5,88
8	6,12	2,04	2,94	2,94
9	8,16	4,08	5,88	2,94
10	8,16	0,00	17,65	0,00
11	10,20	6,12	5,88	2,94
12	10,20	2,04	2,94	2,94
13	4,08	4,08	11,76	0,00
14	0,00	4,08	8,82	0,00
15	4,08	14,29	5,88	0,00
16	2,04	14,29	2,94	11,76
17	0,00	12,24	5,88	17,65
18	0,00	30,61	2,94	17,65
∑ (%)	100	100	100	100

Qiyosiy-psixologik tahlil natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, turli yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar o‘rtasida qiymat imtiyozlarida farqlar mavjud. Shunday qilib, “Pedagogika va psixologiya” (PP) guruhi talabalari

“Qiziqarli ish” qiymatini “Amaliy psixologiya” (AP) va “Iqtisodiyot” guruhi (IQ) talabalariga qaraganda ancha yuqori (r≤0.01) qo‘yishgan.

“Amaliy psixologiya”(AP) guruhi talabalari esa boshqa ikki guruh talabalariga qaraganda “Boshqalarning baxti” ko‘rsatgichiga yuqori pog‘ona berishgan (r≤0.001), lekin ayni paytda “Amaliy psixologiya” (AP) guruhi boshqa guruh talabalariga qaraganda “Mas’uliyat” qiymatiga unchalik ahamiyat berishmaganlar (r≤0.05).

3.3-jadval

Ta’limning turli sohalarida o‘qiyotgan talabalar o‘rtasidagi qiymat imtiyozlarining farqlari

Qadriyatlar	Indikatorlar	AP	PP	IQ	Nemp	R
Terminal qadriyat	Faol hayotiy faoliyat	9	6,3	8,76	4,22	0,12
	Qiziqarli ish	10	9,95	7,5	**8,61****	**0,01**
	Ommaviy e’tirof	13	11,6	11,2	2,33	0,31
	Bilimi	11	10,2	11,1	0,89	0,63
	Samarali hayot	11	9,7	10,5	1,46	0,48
	Erkinlik	8,7	9,85	9,91	1,47	0,47
	Boshqalarning baxti	12	14,9	15,1	**14,70*****	**0,001**
	Ijodkorlik	12	14	13,6	3,70	0,15
	O‘ziga ishonch	7,5	7,25	6,53	0,63	0,72
Instrumental qadriyat	Yuqori talab	13	13,4	12,8	0,44	0,80
	Mustaqillik	9,1	9,55	8,79	0,11	0,94
	Ma’lumot	10	7,1	7,29	5,10	0,07
	Mas’uliyat	8,3	4,95	5,65	**5,89***	**0,05**
	Ratsionallik	10	9,2	8,59	1,10	0,57
	O‘zini boshqarish	8,6	9,5	7,85	1,13	0,56
	Jasorat, o‘z fikrida qolish	9,2	10,1	8,32	1,33	0,51
	Tolerantlik	11	8,7	13	**11,48****	**0,003**
	Ishdagi foydasi	9	9,2	8,82	0,33	0,84

Shunisi e’tiborga loyiqki, har uch guruhda ham "Qiziqarli ish" qiymati bu namunadagi talabalar tomonidan 1 va 2-marotabaga qo‘yilmagan (n=83). 3.4-jadvalda “Boshqalarning baxti” qiymatida sezilarli darajada farqlar mavjud, shuni ta’kidlash joizki, uch guruhda ham bu qiymatni oxirgi o‘ringa qo‘yish tendensiyasi mavjud. Farqlar bu tendensiyaning qanchalik aniqligi bilan bog‘liq. Shunday qilib, 3.4-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, “Iqtisodiyot” (IQ) va “Amaliy psixologiya” (AP) guruhlari talabalari “Boshqalarning baxti” qiymatini oxirgi o‘rinlarga qo‘yishgan

(13- 18), haqiqattan ko‘p (80,95 %),“Amaliy psixologiya” va 80,25% “Iqtisodiyot” (IQ) talabalari uchun “Pedagogika va psixologiya” guruhi talabalariga qaraganda (50%), “Pedagogika va psixologiya” (PP) talabalar guruhi boshqa guruhlardan farqi shundaki, bu guruh talabalari 2 martadan ko‘proq (25%) “Mas’uliyat” qiymatini oxirgi o‘rinlarga qo‘yishgan (13-18).

3.4-jadval

Qadriyat	Qiziqarli ish			Boshqalarning baxti			Mas’uliyat			Tolerantlik/ Bag‘rikenglik		
Guruh/ rang	AP (n=28)	PP (n=21)	IQ (n=34)	AP (n=28)	PP (n=21)	IQ (n=34)	AP (n=28)	PP (n=21)	IQ (n=34)	AP (n=28)	PP (n=21)	IQ (n=34)
1	0,00	0,00	0,00	0,00	0,00	2,94	3,57	14,29	5,88	0,00	0,00	0,00
2	0,00	0,00	0,00	0,00	0,00	0,00	14,29	19,05	26,47	3,57	4,76	2,94
3	7,14	4,76	11,76	0,00	0,00	0,00	7,14	0,00	11,76	0,00	9,52	2,94
4	7,14	0,00	20,59	3,57	0,00	0,00	10,71	4,76	2,94	7,14	19,05	0,00
5	0,00	9,52	5,88	0,00	0,00	0,00	3,57	23,81	2,94	0,00	9,52	0,00
6	7,14	0,00	14,71	7,14	0,00	0,00	3,57	4,76	23,53	10,71	4,76	2,94
7	3,57	9,52	5,88	14,29	4,76	5,88	7,14	14,29	2,94	10,71	0,00	8,82
8	3,57	4,76	5,88	3,57	0,00	2,94	0,00	4,76	0,00	10,71	9,52	0,00
9	14,29	4,76	2,94	3,57	4,76	0,00	3,57	4,76	5,88	0,00	0,00	5,88
10	7,14	23,81	8,82	3,57	4,76	0,00	3,57	0,00	2,94	10,71	0,00	0,00
11	10,71	14,29	2,94	7,14	0,00	0,00	7,14	4,76	2,94	3,57	4,76	5,88
12	7,14	9,52	5,88	7,14	4,76	0,00	10,71	0,00	2,94	0,00	4,76	5,88
13	7,14	4,76	8,82	14,29	0,00	2,94	3,57	4,76	0,00	10,71	19,5	8,82
14	7,14	4,76	0,00	3,57	14,29	5,88	3,57	0,00	5,88	3,57	0,00	11,76
15	7,14	4,76	2,94	10,71	14,29	17,65	14,29	0,00	0,00	14,29	9,52	5,88
16	3,57	4,76	0,00	10,71	14,29	20,59	0,00	0,00	0,00	0,00	0,00	11,76
17	3,57	0,00	2,94	3,57	19,05	14,71	3,57	0,00	2,94	7,14	4,76	17,65
18	3,57	0,00	0,00	7,14	19,05	26,47	0,00	0,00	0,00	7,14	0,00	8,82
∑ (%)	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100

Ko‘pincha, “Amaliy psixologiya” (AP) guruhi talabalari (61,9%) bu qiymatni birinchi o‘ringa quyishgan (1-5). Talabalarning yakuniy qiymatlari bilan qanday instrumental qadriyatlar bog‘liqligini bilish uchun Spirmen korrelyasion tahlilidan foydalanildi (3.6-jadval).

3.5-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, bir nechta terminal qiymatlar instrumental qiymatlar bilan sezilarli aloqaga ega. SHunisi e’tiborga loyiqki, “Ta’lim” instrumental qiymati “Tabiat va san’at go‘zalligi” ($r \leq 0,05$ da gemp = - 0,23), “Erkinlik” (gemp = 0,22 da $r \leq 0,05$), “Boshqalarning baxti” ($r \leq 0,05$ da gemp = - 0,22) va “Ijodkorlik” ($r \leq 0,05$ da gemp = - 0,23). Ya’ni, bu terminal qiymatlar yuqori lavozimlarni belgilaydigan sub’ektlar “Ta’lim” qiymatlariga past rangni belgilaydilar, yoki aksincha. Biz uchun eng e’tiborli jihat,

bu “O‘ziga ishonch” va “Ta’lim” qadriyatlari o‘rtasidagi salbiy munosabatlardir (r≤0,01 da semp = - 0,30).

Ya’ni, “O‘ziga ishonch” qiymatini eng muhim deb belgilagan talabalar “Ta’lim”ga past darajani qo‘yadilar.

3.5-jadval.

Talabalar namunasidagi terminal va instrumental qiymatlar o‘rtasidagi munosabatlari (n = 83)

Indikatorlar	**Tarbiya**	**Yuqori talab**	**Quvnoq**	**Mustaqil**	**Kamchiliklargam urosasizlik**	**Ta’lim**	**Ratsionallik**	**Fikrning kengligi**	**Ishdagi foydasi**
Faol hayotiy faoliyat	-011	0,11	0,19	0,07	-0,14	0,05	-0,22*	0,01	0,07
Sog‘liq	0,20	-0,05	0,03	0,10	-0,26*	0,15	0,01	0,08	-0,14
Qiziqarli ish	0,17	-0,15	-0,20	-0,05	-0,23*	0,42***	0,16	-0,11	0,23*
Tabiat va san’at go‘zalligi	-0,06	0,12	-0,02	0,12	0,17	-0,23*	-0,12	0,15	-0,04
Sevgi	0,07	-0,13	0,17	-0,13	-0,06	-0,01	-0,05	0,01	0,02
Moddiy ta’minoti	0,11	0,22*	-0,24*	0,11	-0,02	0,20	0,25*	-0,17	-0,16
Ishonchli va yaxshi do‘stlar	0,04	-0,21	0,15	0,03	-0,28*	0,02	-0,14	-0,12	-0,13
Jamiyatnie’tirofi	0,04	-0,01	-0,12	0,20	-0,02	0,17	0,20	-0,06	-0,36***
Sermazmun hayot	0,00	0,05	-0,10	0,11	0,14	-0,12	-0,03	-0,02	0,30**
Rivojlanish	0,13	-0,08	0,11	-0,05	0,15	0,06	-0,03	0,22*	-0,10
Erkinlik	-0,19	0,10	-0,01	0,14	0,07	-0,22*	0,04	-0,26*	-0,16
Baxtli oilaviy hayot	0,02	-0,10	0,01	-0,25*	-0,17	0,04	-0,07	-0,11	0,10
Boshqalarning baxti	-0,22*	0,07	-0,13	-0,10	0,04	-0,22*	-0,11	0,03	-0,01
Ijodkorlik	0,05	-0,02	0,11	-0,16	0,12	-0,23*	-0,03	0,02	0,27*
O‘ziga ishonch	-0,16	0,09	-0,07	-0,02	0,10	-030**	-0,16	0,17	0,05

Izoh: 1) aniqlik darajasi *p≤0,05; **p≤0,01; ***p≤0,001. 2) ushbu rasmda qiymatlar yoritilgan.

Shu bilan birga, “Ta’lim” talabalar tomonidan “Qiziqarli ish” bilan ijobiy bog‘liq, bu mantiqan to‘g‘ri keladi (r≤0,001 da semp = 0,42). “Qiziqarli ish” terminal qiymati, o‘z navbatida, “Biznes samaradorligi” bilan ijobiy bog‘liq (r≤0,05 da gemp = 0,23) va salbiy – “Kamchiliklarga murosasizlik” bilan (gemp = - 0,23 va r ≤0,05). “Ijodkorlik” terminal qiymati “Biznes samaradorligi” bilan ijobiy bog‘liq (r≤0,05 da gemp = 0,27), ya’ni talabalar bu qiymatlarni xuddi shunday muhim darajalarga namoyon etishadi. Xuddi holat “Sevgi” – “Sezuvchanlik” (r≤0,01 da gemp = 0,29), “Sezuvchanlik” – “Baxtli oilaviy hayot”

(gemp = 0,24 da r≤0,05), “Moddiy ta’minoti” – “Yuqori talablar” (r≤0,05 da gemp = 0,22), “Moddiy ta’minlangan hayot” – “Ratsionalizm” (r≤0,05 da gemp = 0,25), “Rivojlanish” – “Fikrlarning kengligi” (gemp = 0,22) r≤0,05 da).

Talabalarni innovatsion faoliyatida muammoni o‘z vaqtida aniqlab, unga nisbatan munosabatda bo‘lish uchun shart hisoblanib, ochiqlik esa yangi axborotlarni qabul qilish, boshqalarning ham fikrini inobatga olishda muhim sanaladi. Bularning qatorida o‘ziga bo‘lgan ishonch, innovatsion faoliyatda muvaffaqiyatga erishishni ta’minlovchi sanaladi. SHu sababli, talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirishda, ular bilan “Ishonch hosil qilishning asoslari”, “O‘z fikrini asoslash texnikasi” mavzularida psixologik treninglar o‘tkazish tavsiya etiladi. Chunki, innovatsion faoliyatni jamlagan texnologiyalar, bilimlar va uskunalarni tijoratlashtirishga mo‘ljallangan texnologik, ilmiy, tashkiliy va moliyaviy chora-tadbirlar majmualar tashkil etadi. Bu o‘z navbatida, birinchidan shaxsni, aniqrog‘i, talaba shaxsini innovatsion faoliyatga – (yangilik yaratish, takomillashtirilgan tovarlar (xizmatlar), shuningdek, yangi sifatga ega tovarlar yoki xizmatlarni barpo etishga) tayyorlash lozim bo‘ladi. SHunda, milliy taraqqiyotimizni ijtimoiy-psixologik jihatini ta’minlash mazmunli kechadi. Mutaxassislik fanlarini o‘tash amaliyotida ishlab chiqarish va kasbiy ta’lim orasidagi ijtimoiy masofani yaqinlashtirish maqsadida, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash lozim bo‘ladi.

Talabalarning innovatsion faoliyat sub’ekti sifatida dolzarblashuv mezonlari va ko‘rsatkichlari empirik tadqiqotlarning asosida ishlab chiqildi. Ma’lum bo‘lishicha, talabalarni innovatsion faoliyat sub’ekti sifatida dolzarblashuvining dastlabki holati innovatsiya, innovatsion ishlanmalar, innovatsion faoliyat kabi tushunchalar haqida aniq ma’lumotga ega emasligini ko‘rsatdi. SHu bois, innovatsion faoliyatga yo‘naltirish dasturi ishlab chiqildi, uning maqsad va vazifalari belgilandi.

78% respondentlar hayotlarida ko‘p marotaba tanlovni amalga oshirganlarini ta’kidlashdi; 2% respondentlar hali tanlov qilmaganliklarini; 3% respondentlar esa javob berishga qiynaldilar. Biroq, 17% respondentlar shaxs sifatida o‘sish

maqsadida tanlov qilganliklarini ko‘rsatib o‘tganlar. SHu bilan birga, tanlov uchun mas’uliyat, ijodkorlik va qat’iyatlilikning rivojlanish istiqbollari to‘g‘risida etarlicha o‘ylamaslik holati aniqlandi. Bu ko‘rsatkichlar o‘z navbatida:

ijtimoiy-madaniy munosabatlar tizimida innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion hamkorlik kabi tushunchalarni shakllantirish, talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirishni maqbul yo‘llaridan biri sanaladi;

talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda “eritish”, “harakatlantirish” va “muzlatish” kabi bosqichlarga amal qilib, ularni texnologiyalarni to‘plash, yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga yo‘naltirish lozim;

talabalarning innovatsion faoliyatga yo‘naltirilganlikning natijasi bo‘lib, egallayotgan ixtisosligi bo‘yicha yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash uchun o‘quv faoliyatini faollashgani, shuningdek, takomillashtirilgan mahsulotlar (xizmatlar) loyihasini tayyorlash va taqdim etish tashkil etadi;

oliy ta’lim muassasalari, mahalla va psixologik xizmat ko‘rsatish markazlari psixologlari uchun innovatsion faoliyat psixologiyasiga doir qo‘shimcha psixologik ma’lumotlar tayyorlash lozim bo‘ladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning nazariy va empirik tahlili asosida olingan psixologik ma’lumotlar asosida quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin:

1. Ishlab chiqarish tashkilotlar va boshqa muassasalarning innovatsion faoliyati alohida xodimning o‘zining kasbiy faoliyatiga ijodiy yoki yangicha yondashuvi natijasida shakllanib, innovatsion faoliyat deganda ishlab chiqarishda (shu jumladan, alohida sohada) yangi samara beruvchi, ya’ni sifat ko‘rsatkichini yaratish uchun amalga oshiriladigan ijodiy jarayonni tushunish lozim. Innovatsion faoliyat talabani istiqoboldagi kasbiy faoliyatini samaradorligining in’ikosi sanalib, uning salohiyatini ifoda etadi.

2. Psixometrik metodlar vositasida jamlangan ma’lumotlarni qiyosiy tahlili asosida innovatsion faoliyatga tayyorlik darajasining quyidagi mezonlari aniqlandi: innovatsion faoliyatga tayyorlik darajasi past – bilim olishga intilmaslik, innovatsion texnologiyalarga qiziqishlari beqaror, sohaga doir yangiliklarga befarq, kasbiy maqsadi to‘liq shakllanmagan, innovatsiyalarni idrok etishi sust, individual faoliyat texnikasiga ega emas, kasbiy Mening rivojlantirishga doir tasavvurga ega emasligi bilan izohlanadi.

3. Talabalarining innovatsion faoliyatga tayyorlik darajasi o‘rta - kasbiy faoliyatga o‘zgartirish kiritish mumkinligi haqida tasavvur shakllanmagan, kasbiy sohaga oid bo‘lgan yangiliklarni mohiyatini tushunmaslik, faoliyatda individuallikning etishmasligi, o‘zining iqtidoriga oid bilimlarini to‘liq shakllanmaganligi, kasbiy tasavvur, ko‘nikma va malakalarning sustligi, rejalashtirish va biron-bir ob’ektning modelini yaratishda bilim, ko‘nikma va malakalarining etishmasligi bilan izohlanadi.

4. Talabalarining innovatsion faoliyatga tayyorlik darajasi yuqori – kasbiy Meni konstrutiv tarzda shakllangan bo‘lib, faoliyat maqsadi aniq belgilangan. Kasbiy ko‘nikma va malakalarni to‘liq egallab, kasbiy faoliyat jarayoniga yangilik

(toza element) kiritishdan qo‘rqmaslik, kasbiy bilimlarni rivojlantirishga yuqori motivatsiyaning ifodalanganligi bilan izohlanadi.

5. Oliy ta’lim tizimida talabalarning muvaffaqqiyatli innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishlarini ta’minlash uchun ularda o‘z-o‘zini rivojlantirish (takomillashtirish)ning ijtimoiy-psixologik modelini yaratish ko‘nikmasini shakllantirish lozim. Buning uchun psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlari doirasida o‘tiladigan shaxs va uning strukturasi, shaxs va ijtimoiy muhit, shaxs rivojlanishini ta’minlashda tashqi va ichki omillarning roli kabi mavzularni nazariy o‘tishdan voz kechib, olingan nazariy bilimlarni shaxsiy va kasbiy rivojlantirish kontekstida o‘tishni yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi.

6. Talabalarini innovatsion faoliyatga muvaffaqiyatli yo‘naltirishda Buyurtmachi (davlat, jamiyat) va kasbiy faoliyatga tayyorlovchi (oliy ta’lim muassasalari) orasidagi ijtimoiy masofani yaqinligini ta’minlab, iste’molning (ish beruvchining) talab va takliflarini ijtimoiy-psixologik monitoringini olib borib, mutaxassisni (talabani) shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida ta’lim-amaliyot tarzida ta’limiy dasturlarni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2020. – 80 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi “YOshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni O‘RQ-406 / http://lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.07.2020 y., 03/20/630/1101-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori / http://lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi № 472-sonli “Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarlikning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori / http://lex.uz.
6. Mirziyoev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017. -104 b.
7. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. . - Toshkent: O‘zbekiston. 2017, – 488 b.
8. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. - Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2017.- 592 b.
9. 2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda) strategy.regulatoin.gov.uz
10. Abdullaeva I.G‘. Milliy taraqqiyotning yangi bosqichida iqtisodiy va innovatsion tafakkur uyg‘unligi // Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. - Samarqand, 2019. - 48 b.

11. Abdullaeva I.G‘. Milliy taraqqiyotning yangi bosqichida iqtisodiy va innovatsion tafakkur uyg‘unligi // Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. - Samarqand, 2019. - 48 b.

12. Abdullaeva SH.X..Pedagog professional kompetentliligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari // Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati.-Toshkent, 2019. - 61 b.

13. Abdumadjidova D.R. Talabalarda assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari // Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (RhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2019. - 44 b.

14. Azizova G.G. Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarning kasbiy pedagogik faoliyatini takomillashtirish (ingliz tili materiallari misolida) // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. - Samarqand, 2019. – 52 b.

15. Andreeva G.M. Psixologiya sotsialnogo poznaniya: Uchebnoe posobie. - M.:«MODEK», 1997. – 342s.

16. Bekova T.B. Innovatsionnыe strukturы v sovremennoy sisteme vыsshego obrazovaniya Rossii: determinantы i sledstviya // Avtoref. dis. kand. sotsiol. nauk. - Tyumen: Tyumenskiy gosudarstvennыy neftegazovыy universitet, 1997. - 20 s.

17. Belousov I. V. Metodicheskie osnovы otsenki nauchno-innovatsionnogo potensiala vuza i strategiya aktivizatsii ego razvitiya // Avtoref. dis... kand. ekon. nauk. - SPb., 2011 // ttp://rushkolnik.ru

18. Berulava M. N., Berulava G. A. Metodologicheskie osnovы innovatsionnoy setevoy konsepsii razvitiya lichnosti v usloviyax informatsionnogoobщestva // Vestnik Universiteta Rossiyskoy akademii obrazovaniya. – M.:URAO, 2010. – № 4 (52). – S. 8-11.

19. Bobrov V.V. Innovatsii v texnologii vыsshego obrazovaniya (sotsialno-filosofskiy aspekt) // Dis. kand. filos. nauk. - Novosibirsk, 1994. - 204 s.

20. Bordovskiy V.A. Teoriya i praktika organizatsionno-metodicheskogo obespecheniya innovatsionnogo razvitiya vыsshego pedagogicheskogo obrazovaniya // Dis. d-ra. ped. nauk. - SPb., 1999. - 365 s.

21. Gerasimov G.I., Ilyuxina L.V. Innovatsii v obrazovanii: suщnost i sotsialnыe mexanizmы. – Rostov n/D., 1999. - 136 s.

22. G‘oziev E.F. Taraqqiyot psixologiyasi. - T.: Universitet, 1999.- 48b.

23. Gryazeva-Dobshinskaya V.G. Innovatsionnoe liderstvo: modelirovanie tendensiy aktivnosti menedjerov predpriyatiya // Vestnik YuUrGU. Seriya «Psixologiya». – 2010. – № 17. – Vыpusk 9. – S. 9-17.

24. Guzeev V.V. Innovatsionnыe idei v sovremennom obrazovanii // SHkol, texnologii. 1997. № 1. -S. 3-10.

25. Demochko V. B. Innovatsionnaya lichnost: model i usloviya formirovaniya // Nauchnoe soobщestvo studentov: materialы VI Mejdunar. studench. nauch.–prakt. konf. – CHeboksarы: SNS «Interaktiv plyus», 2015. – S.253 – 262.

26. Dolgova V. I. Psixofiziologicheskie determinantы gotovnostik innovatsionnoy deyatelnosti // Vestnik CHelyabinskogo gosudarstvennogopedagogicheskogo universiteta. – 2013. – № 12. – S. 17-24. Rejim dostupa:http://cyberleninka.ru/article/n

27. Dubinina T. N. Formirovanie innovatsionnogo povedeniya lichnosti v obrazovatelnoy srede vuza // Sovremennыe problemы nauki i obrazovaniya. – 2014. – № 4 [Elektronnыy resurs]. – Rejim dostupa: http://www.science-education.ru/118–14020

28. Dudina M. N. Didaktika vыsshey shkolы: ot traditsiy k innovatsiyam. – Ekaterinburg: Izd-vo Uralskogo universiteta, 2015. – 152 s.

29. Egorova M.S. Sopostavlenie divergentnыx i konvergentnыx osobennostey kognitivnoy sferы detey//Voprosы psixologii, 2000. – №1. - S.36-45.

30. Zborovskiy G.E., Romansev G.M. Innovatsii v professionalnom obrazovanii: problemы issledovaniya // Obrazovanie i nauka, 2000.№ 3. – S. 18-28.

31. Ivanova L.A. Organizatsionno-pedagogicheskie usloviya stimulirovaniya innovatsionnoy deyatelnosti v munitsipalnoy sisteme obrazovaniya // Dis. kand. ped. nauk. - Novgorod, 1998. - 188 s.

32. Ivanova L.A. Organizatsionno-pedagogicheskie usloviya stimulirovaniya innovatsionnoy deyatelnosti v munitsipalnoy sisteme obrazovaniya // Dis. kand. ped. nauk. - Novgorod, 1998. - 188 s.

33. Istoriya psixologii. XX vek / pod red. P.Ya. Galperina, A.N. Jdan. – 5-e izd. - Moskva: Akademicheskiy Proekt, 2003; Ekaterinburg: Delovaya kniga, 2003. – 830 s.

34. Kadirov B.R. Sklonnosti i ix individualno – prirodnыe predposыlki // Avtorefer. diss…. dokt. psixol. nauk. – Moskva, 1989. – 49s.

35. Karimova V.M., Sunnatova R.I. Tojiboeva R.N. Mustaqil fikrlash. - T.: SHarq, 2000. 6-bet.

36. Karimova V.M., Sunnatova R.I.,Tojibaeva R.N. Mustaqil fikrlash. – Toshkent: SHarq, 2000. – 111b.

37. Karpenko M.P. Stanovlenie novoy pedagogicheskoy paradigmы i ee texnologicheskoe obespechenie // Mir psixologii, 1998. - №3. – S.22-29.

38. Karpova Yu.A. Vvedenie v sotsiologiyu innovatiki. – SPb.: Piter, 2004. -192 s.

39. Krayg G. Psixologiya razvitiya. – S-Peterburg: Piter, 2000. – 992s.

40. Kretu D. Kriticheskoe mыshlenie v vыsshey shkole//Peremena,2000.– № 2. – S. 13–16

41. Kubaeva SH.T. O‘yin va innovatsion tafakkur (ontologik va gnoseologik tahlil) // Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2019. - 49 b.

42. Kubaeva Sh.T. O‘yin va innovatsion tafakkur (ontologik va gnoseologik tahlil) // Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2019. - 49 b.

43. Qodirov B.R.Iste’dodli bolalar va ularni tanlash metodikasi. - T., 1992.- 326 b.

44. Qoraboev Sh.A., Babaeva N.M. Innovatsiya va innovatsion salohiyat tushunchalarining mohiyati va mazmuni // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №3, may-iyun, 2017.- www.iqtisodiyot.uz

45. Qo‘shoqov Sh.S. Innovatika falsafasi. /O‘zbekiston fani va texnologiyalarida innovatsiya: muammolar, echimlar va istiqboli. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Samarqand 2007. - B. 28-30.

46. Lapin N.I. Teoriya i praktika innovatiki. – M.: Logos, 2008. 328 s.

47. Leontev A.N. Deyatelnost. Soznanie. Lichnost. – M.: Smыsl, 2004. - 352 s.

48. Mayers D. Sotsialnaya psixologiya - SPb.: Piter. 2002.– 639s.

49. Maklakov A.G. Obщaya psixologiya. – SPb.: Piter. 2003.– 592s.

50. Malanov C.B. Psixologicheskie mexanizmы mыshleniya cheloveka: mыshlenie v nauke i nauchnoy deyatelnosti. – Voronej, 2004. – 478s.

51. Merenkov A. V. Pedagogika samorazvitiya lichnosti. – Ekaterinburg: Izd-vo Ural. Un-ta, 2001. – 321 s.

52. Merton R. Sotsialnaya teoriya i sotsialnaya struktura. – M.: Xranitel, 2006. - 873 s.

53. Mirzaev S.Z. Reformirovanie nauchno-issledovatelskoy deyatelnosti v Uzbekistane: innovatsionnыy podxod. // XX1 asr –intelektual yoshlar asri. Respublik ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari.- Toshkent, 2018. -B. 6.

54. Motivatsiya i deyatelnost / X.Xekxauzen. – 2-e izd. – SPb.: Piter; M.:Smыsl, 2003.-860 s.

55. Muxamedova D. Teoretiko-metodologicheskie osnovы sotsialno-psixologicheskix aspektov innovatsionnogo menedjmenta v obrazovanii. Monografiya. - Tashkent, 2013.- 160 s.

56. Muxammedova D.G. Ta’lim menejerini innovatsion faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik texnologiyalarini takomillashtirish. / Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2015. – 75 b.

57. Nikitin V. Obrazovanie v lovushke razvitiya // Kentavr, 2004. №33. – S.36-41

58. Nikolaev A. I. Innovatsionnoe razvitie i innovatsionnaya kultura // Elektronnыy resurs: http://www.center-inno.ru

59. Nikolaev A.I. Innovatsionnoe razvitie i innovatsionnaya kultura // http:www.center-inno.ru/materials/library/04-4

60. Nishonova Z. T. Mustaqil ijodiy fikrlash. – Toshkent: Fan, 2003.–215 b.

61. Oliy ta’lim (lug‘at - ma’lumotnoma). – Toshkent: Moliya, 2003. - 456 b.

62. Orlov A. A. Monitoring innovatsionnых protsessov v obrazovanii // Pedagogika. 1996. № 3. - S.9-15.

63. Osipova A.A. Oвщaya psixokorreksiya. - M.: Piter, 2001. – 274 b.

64. Osnitskiy L.K. Psixologiya samostoyatelnosti. – Moskva, 1996.–125 s.

65. Petrova L.I. Metodicheskoe soprovojdenie innovatsionnoy deyatelnosti uchrejdenie srednego professionalnogo obrazovaniya / Avtoref. dis. … kand. ped. nauk. – M., 2005. -21 s.

66. Piaje J. Izbrannыe psixologicheskie trudы. –Moskva: Mejdunarodnaya pedagogicheskaya akademiya, 1994. – 680s.

67. Plomin, R., Prays, T.S. Genetika i kognitivnыe sposobnosti// Inostrannaya psixologiya, 2001. – № 14. – S.6–16.

68. Podgoretskaya N.L. Izuchenie priemov logicheskogo mыshleniya u vzroslых. – Moskva: MGU, 1980. – 150s.

69. Psixologicheskiy slovar. / Pod red. V.P.Zinchenko, B.G.Meщerekova. Izd-e 2-e M.: Praym. 1997.

70. Psixologiya fanidan izohli lug‘at / M.G.Davletshin tahriri ostida. -T.: TDPU. 1992.

71. Psixoterapevticheskaya ensiklopediya / pod red. B.D.Karvasarskogo. – SPb.: Piter, 1999. – 752 s.

72. Puzep L. G. Razvitie kreativnых chert lichnosti studentov v protsesse professionalnoy podgotovki v pedagogicheskom vuze // Dis.. kand. psixol.. nauk. – Omsk, 2007. – 61 s. // http:www.dissercat.com/content/razvitie-kreativnykh-chert-lichnost

73. Rodjers K. Vzglyad na psixoterapiyu. Stanovlenie cheloveka: Per.s angl. / Obщ. red. i predisl. Iseninoy E. I. – M.: Izdatelskaya gruppa «Progress», «Univers», 1994. – 480 s.

74. Rodjers N. Tvorchestvo kak usilenie sebya // «Voprosы psixologii»: http://www.voppsy.ru/issues/1990/901/901164.htm

75. Sablina N.A. Povedencheskie proyavleniya agressivnosti v podrostkovom vozraste i vozmojnosti ix preodoleniya // Dis.... kand. psixol. nauk. – Stavropol, 2004. – 178 c.

76. Saitqosimov A.I. Fuqarolik jamiyatini barpo etishda ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirish qonuniyatlari // Falsafa fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) dis. avtoreferati. – Samarqand, 2019. - 61 b.

77. Santo B. Sila innovatsionnogo samorazvitiya // Innovatsii. – 2004. – № 2. – S. 5-15.

78. Selektr S. Kogda formiruetsya komanda. Ob innovatsionnom povedenii i motivatsii // Direktor shkolы, 1995. № 4. - S.9-17.

79. Semyonov I.N. Psixologiya refleksii v organizatsii tvorcheskogo protsessa mыshleniya: Avtoref. diss. … dokt. psixol. nauk. – Moskva, 1992. – 51s.

80. Semenov S.N. Tvorcheskoe mыshlenie (suщnost, mexanizmы, puti optimizatsii). – Ufa: RIO BashGU, 2005. – 144s.

81. Sidorenko E.V. Metodы matematicheskoy obrabotki v psixologii / E.V. Sidorenko. – SPb.: Sotsialbno-psixologicheskiy sentr, 1996. – 350 s.

82. Slastenin V.A., Podыmova L. S. Pedagogika: Innovatsionnaya deyatelnost. – M.: ICHP «Izdatelstvo Magistr», 1997. – 224 s.

83. Sovremennыy psixologicheskiy slovar/ pod redaksiey B.G.Мещeryakova, V.P.Zinchenko – Spb: Praym – Evroznak, AST, 2007. – 496 s

84. Sovremennыy sotsioekonomicheskiy slovar. – M., 2012. - S.356.

85. SokolovA.N.Vnutrennyayarechimыshlenie.–M.:LKI,2007.–256 s.

86. Stepanov E.N. Metodologiya modelirovaniya vospitatelnoy sistemы obrazovatelnogo uchrejdeniya // Pedagogika, 2001. - №4. –S.14-19.

87. Sunnatova R.I. Samoregulyasiya mыslitelnoy deyatelnosti.– Tashkent: Fan, 1996. – 84 s.

88. Tolochek V.A. Sovremennaya psixologiya truda. – SPb.: Piter, 2005. - 479 s.

89. Tunik E.E. Psixodiagnostika tvorcheskogo mыshleniya: Kreativnыe testы. –S-Peterburg: Spb, 1997. – 33 s.

90. Turaeva D. R. Kasb-hunar kolleji o‘qituvchilari faoliyati uslubining psixologik xususiyatlari // Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (RhD) dissertatsiyasi avtoreferati.- Toshkent, 2018.-46 b.

91. Umarova N.h Shaxs iqtisodiy ijtimoiylashuviga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar // Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (RhD) dissertatsiyasi avtoreferati.-Toshkent, 2019. - 51 b.

92. Utepberganov M.A. Qoraqalpoq oilalarining ijtimoiy va etnopsixologik muammolari // Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2018. - 70 b.

93. Fedak E.I., Senserya S.V. Innovatsionnaya lichnost. Psixologo-pedagogicheskoe obosnovanie // Mir obrazovaniya – obrazovanie v mire. –2011. – № 1 (41). – S. 150-156.

94. Feldshteyn D.I. Psixologiya razvitiya cheloveka kak lichnosti. – M.: MPSI MODEK, 2005. - 412 s.

95. Xvan A.A. Psixologicheskie pokazateli effektivnosti innovatsionnogo protsessa v shkole // Voprosы prikladnoy psixologii, 1995. - S. 37-50.

96. Xilman Dj. Arxetipicheskaya psixologiya.– M.: Kogito-Sentr, 2006. – 352 s.

97. Xolyigitova N.H. O‘quvchilardagi kasb motivlari barqarorligiga guruhiy jipslikning ta’siri // Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (RhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent., 2019.-51 b.

98. Xolodkova L.A. Innovatsionnaya kultura sub’ektov vыsshego professionalnogo obrazovaniya // Izvestiya Rossiyskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta im. A. I. Gersena, 2006. – № 14. – S. 78–84.

99. Xolm S.T. Innovatsionaya sep: v poiskax nedostayuщego zvena rossiyskoy innovatsionnoy sistemы // Blleyuten Innovatsionnыe Trendы, 2011. №1. –S. 12-14.

100. Senserya S. V. Ponyatie «innovatsionnoy lichnosti» v sovremennoy nauchnoy teorii // Mir obrazovaniya – obrazovanie v mire. – 2010. – № 3(39). – S. 142-147.

101. Shumpeter Y.A. ekonomicheskogo razvitiya. – M.: EKSMO, 2008. – 864 s.

102. Ernazarov D. Nodavlat notijorat tashkilotlarning ijtimoiy innovatsiyalarni rivojlantirishdagi ishtiroki. // Yangilanayotgan jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligi:muammo va echimlar. Konferensiyasi maqolalar to‘plami – Toshkent: “Innovatsion rivojlanish”, 2020. – B.202-208.

103. Yusuf Sh. Ot kreativnosti k innovatsii. / Per. s ang. A.Pinskoy // Voprosы obrazovaniya, 2007. № 4. -S. 159-172.

104. Yusufbekova N.R. Obщie osnovы pedagogicheskoy innovatika. Opыt realizatsii innnovatsionnыx protsessov v obrazovanie. – M., 1991. 91 s.

105. Yagolkovskiy S. R. Psixologiya innovatsiy: podxodы, modeli, protsessы. – M.: Vыsshaya shkola ekonomiki, 2011. – 272 s.

106. Yagolkovskiy S. R. Psixologiya innovatsiy: podxodы, modeli, protsessы. – M.: Vыsshaya shkola ekonomiki, 2011. – 272 s.

107. Cheng A.Y.N., Szeto E. Teacher leadership development and principal facilitation: Novice teachers' perspectives // Teaching and Teacher Education. – №58. – 2016. – P. 140-148.

108. Fowler J. Experiential learning and its facilitation // Nurse Education Today. – № 28. – 2008. – P. 427–433.

109. Herskovits M.J. Les basis del antrologie culturelle. – Paris, 1967.

110. Hong, E., Peng, Y., Rowell, L. L., & O'Neil, H. F. Relations of metacognitive and motivational strategies to test and homework performance in Chinese students. In M. C. W. Yip (Ed.), Cognition, metacognition and academic performance: An East Asian perspective. - New York: Routledge, 2018. - Pp. 7-26.

111. Hoppe H. Lernen fuer eine ungewisse Zukunft // Sozialer Fortschritt. 1996. - № II. - Rr. 275-279.

112. Knowles Malcolm S., Holton Elwood F., Swanson Richard A. The AdultLearner: The Definitive Classic in Adult Education and Human Resource Development (Managing Cultural Differences) 5 th ed, Houston, TX: Gulf Publishing Company, 1998.

113. Rienties B., Brouwer N., Lygo-Baker S. The effects of online professional development on higher education teachers' beliefs and intentions towards learning facilitation and technology // Teaching and Teacher Education. – № 29. –2013. – P. 122-131.

114. Rycroft R.W., Kash D.E. Steering Complex Innovation // Research Technology Management. 2000. Vol. 43. № 3. -P. 18–23.

115. Turner J. Some current issues in research on social identity and selfcategorizationtheories // Social identity: context, commitment, content / edited byN. Elemers, R. Spears, B. Doosje. – 1999. – P. 6 – 34.

116. Van Lith U. Falsches Vertrauen in den Bildungsprotecktionismus // Handelsblatt. 1997. - 5 - 6. Dez. - R. 47.

117. Won S. G. L., Evans M. A., Carey C., Schnittka C.G. Youth appropriationof social media for collaborative and facilitated design-based learning // Computers in Human Behavior. – № 50,2015. – P. 385–391.

118. Yun Peng. Effects of Creativity Instruction in Science on Creative Thinking and Science Achievement in Chinese Students (is approved in partial fulfillment of the requirements for the degree of) // Doctor of Philosophy - Educational Psychology. - University of Nevada, Las Vegas, August 2019.– 255 p.

119. K. Turg‘unboev, M. Ortiqova P edagogik innovatsiya asoslari. *o‘quv qo‘llanma* Andijon-2011

SHUKUROVA O‘G‘ILOY UMAROVNA

TALABALARNI INNOVATSION FAOLIYATGA YO‘NALTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

MONOGRAFIYA

Nashriyot muharriri:
Mohira YULDASHEVA

Texnik muharrir:
Baxtiyor YAKUBOV

Sahifalovchi-dizayner:
Shohida MUKUMOVA

Nashriyot litsenziyasi № 880921. 14.08.2020 y.
Nashriyotga topshirildi 10.06.2021 yil.
Chop etishga ruxsat berildi 15.06.2022 yil.
Bichimi 108x84/16. Shartli bosma tabog’i 6,75.
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 294.

“Ziyo nashr matbaa” XK
Guliston shahri, O‘zbekiston ko‘chasi,
Ma’naviyat-ma’rifat markazi.

«Sirdaryo Print» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Sirdaryo shahri, O‘zbekiston ko‘chasi, 92-uy